

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O‘RTA MAXSUS TA‘LIM VAZIRLIGI
ALISHER NAVOIY NOMIDAGI
SAMARQAND DAVLAT UNIVERSITETI**

Tarix-falsafa fakulteti

**Arxeologiya, qadimgi dunyo tarixi va
etnografiya kafedrasi**

Bobodustov Bobur

Qadimgi Mesopatamiyada huquqning asosiy belgilari

**5220200 – Tarix bakalavriat ta‘lim yo‘nalishi
Malakaviy bitiruv ishi**

**Ilmiy rahbar
Rasmiy taqrizchi**

Djurakulova D.M.

Malakaviy bitiruv ishi arxeologiya, qadimgi dunyo tarixi va etnografiya kafedrasining 2011-yil 24-maydagi majlisida muhokama qilingan va YaDAKga himoya uchun tavsiya etilgan (№ 14-son bayonnoma).

Kafedra mudiri:

prof. Djurakulov M.D.

Malakaviy bitiruv ishi YaDAKning 2011-yil __ - iyundagi majlisida himoya qilingan va _____ ball bilan baholangan (№__-son bayonnoma).

YaDAK raisi

t.f.d. MATBOBOYEV B.X.

A‘zolari:

MUNDARIJA

Kirish	2-5
I Bob. Qadimgi Mesopotamiyaga oid manbalar va istoriografiya	
1.1 Manbalar	6-10
1.2 Mesopotamiyani arxeologik tekshirishlar tarixi va qadimgi yozuvlar.....	10-18
1.3 Istoriografiya.....	18-24
1.4 Xronologiya.....	24-25
II Bob. Mesopotamiyaning eng qadimgi davlatlari (Shumer va Akkad)	
2.1 Mesopotamiyaning tabiiy sharoiti.....	26-31
2.2 Qulchilikning rivojlanishi.....	31-36
2.3 Yer egaligi.....	36-42
III Bob. Qadimgi Shumerning ijtimoiy va davlat tuzumini o`rganishda hammurapi qonunlarining ahamiyati	
3.1 Bobil davlatining ijtimoiy tuzumi.....	43-57
3.2 Bobilning davlat tuzumi.....	57-62
IV Bob. Qadimgi Mesopotamiyada huquqning asosiy belgilari	
4.1 Huquq manbalari.....	63-67
4.2 Mulk huquqi va majburiyatlar.....	67-77
4.3 Nikoh –oila munosabatlari. Meros huquqi.....	77-88
Xulosa	89-91
Foydalanilgan adabiyotlar	92

Kirish

Hammurapi kodeksi va bu davrga oid rasmiy hujjatlardan I Bobil dinastiyasi davridagi konunlar va ma'muriyatning sinfiy harakteri ochiq-ravshan ko'rinib turadi. Qonun chiqaruvchn va davlat hokimiyati hukmron quldorlar sinfi manfaatlarini himoya qilgan. Xususiy mulkni qo'riqlash eng muhim masala bo'lgan. Bu, kodeksning o'g'irlikka oid ishlar ayniksa mufassal yozilgan bir qancha moddalaridan ko'rinib turibdi, shu moddalarga muvofiq narsa o'g'irlab qo'lga tushgan o'g'riga, xuddi shuningdeq o'g'irlangan buyumlarni sotgan yoki sotib olgan kishiga o'lim jazosi berilgan Qonunga ko'ra, erkin kishini, ayniksa «mavqyei yuqori bo'lgan kyshini» haqorat qilgan odam qattiq jazolangan. Masalan. 202-moddaga muvofiq «agar biron kishi mavqyei yuqori bo'lgan kimsaning yuziga bir shapaloq ura, urgan odam bu kimsadan xaloyiq o'rtasida 50 marta qamchi yeyishi kerak». 205-moddaga muvofiq «agar biron-bir kishining quli erkin odamning yuziga bir shapaloq ura, qulnnng qulog'i kesilishi kerak».

Urug'chilik tuzumidan qolgan qadimgi rasm-odatlarinnng quldorlik xukuqining yangi qoidalari bilan qo'shilishi Hammurapi kodeksi o'rganishda alohida ahamiyatga ega. Davlat hokimiyati qisman qonunlashtirgan olomon qilish tartibi o'sha eski zamondan qolgan. Masalan, biror kimsaning uyini teshib kirib o'g'irlik qilgan odam, qonunning 21-moddasiga muvofiq, shu teshilgan joy (devor) yonida o'ldirilgan va shu yerga ko'milgan, o't chiqib ketib, o't o'chirish vaqtida biron kishi o'g'rlik qilsa, u odam qonunning 25-moddasiga muvofiq, xuddi shu o'tga tashlab kuydirilgan. O'z-o'zidan ma'lumki, bunday g'ollarda ishni sudda tekshirib o'tirish va hukm chiqarish imkoni bo'lmaganligi uchun qonun bu o'rinda olomon qilib jazolashga yo'l kuygan, bu esa eski rasm-odat hukuqining qoldig'idir. «Talion huquqi» deb ataluvchi qasos konunining ayrim elementlari Hammurapi kodeksida saqlangan, bu ham urug'chilik tuzumi davridan qolgan eski huquqning koldiqlaridan biridir. Chunonchi, biron odam boshqa bir kishining ko'ziga qanday shikast yetkazsa, «uning ko'ziga ham xuddi shunday shikast yetkazilgan». Agar biron kishi boshqa odamning suyagini sindirsa, sindirgan odamning ham suyagi sindirilgan. Hammurapi kodeksining bu moddalari qadimgi yahudiylar qonunlaridagi: mayib qilganni mayib kil, qonga-qon, jonga-jon, degan moddalariga aynan o'xshab ketadi. Hammurapi kodeksining boshqa

moddalarida qadimgi rasm-odat huquqining qoldiqlari quldorlik davridagi huquq qoidalari bilan qo'shilishib ketgan. Chunonchi. qonunning uy qurgan odamga pul bilan xaq to'lash va qurilgan uy uchun uning javobgar ekanligi haqida yozilgan moddalarida uy ko'rgan odamning ma'lum hajm ish uchun qonun bilan qat'iy belgilangan miqdorda haq olish xuquqiga ega ekanligi ko'rsatilgan. Biroq, shu bilan birga, uy quruvchi qurgan uynning sifati (mustahkamligi); uchun javobgar bo'lgan. Agar u qurgan uy qulab ketib, uy egasini bosib o'ldirsa, uyni qurgan odam o'ldirilishi lozim bo'lgan. Bordi-yu uy qulab ketib, uy egasining o'g'linn bosib o'ldirsa, u holda uy qurgan ustani emas, balki uning o'g'lini o'ldirish lozim bo'lgan. Shubhasiz, bu hol ham qonga-qon talab qiluvchi qadimgi teng kasos qonunining qoldig'i bo'lgan. Bordi-yu uy bosib qolib, uy egasining quli o'lsa, bu holda uy qurgan usta o'lgan qul o'rniga boshqa qul berishi lozim bo'lgan, xolos. Bu, quldorlik huquqining tamomila yangi elementidirki, shu yangi huquqqa ko'ra, qulga xuddi bir buyumdek qaralgan va qulga yetkazilgan zarar shu qulning xujayiniga to'langan. Urug'chilik tuzumi davridagi qadimgi rasm-odat huquqidan anchagina farq qiladngan quldorlik davrining yangi huquqi ana shu tariqa tashkil topgan. Bu yangi huquqning va, xususan Hammurapi kodeksining ahamiyati shundan iborat bo'lganki, quldorlik huquqining shu yangi elementlari yo`qchilik tuzumining qoldiqlarini yanada yemirishga va umuman butun quldorlik jamiyatini mustahkamlashga birmuncha yordam bergan. Shunday qilib, quldorlik jamiyatining yangi huquqi Hammurapi kodeksi bilan tartibga solingan va mustahkamlangan. Quldorlik davrining yangi hukuqi, bir qancha moddalardan iborat bo'lib, bu moddalar «qonunlar to'plami»da yozilgan, ma'lum tartibga solinib, «kodeks» shakliga kiritilgan, lekin unda muayyan bir sistema bo'lmagani va bir-biriga bog'lanmagan ayrim hodisalar, «chalkash ishlar» berilgani, ya'ni shu ayrim masalalar yuzasidan sud hukmlari chiqarilgani uchun, u juda qadimgi «qonunlar to'plami» harakterida bo'lgan. Bobil podshosi Hammurapining kodeksi bizga ma'lum bo'lgan eng qadimgi qonunlar to'plami bo'lib, bu kodeks boshqa qadimgi Sharq xalqlarining keyingi qonunlariga, xususan tavrotida saqlanib qolgan qadimgi yahudiy qonunlariga katta ta'sir ko'rsatgan.

Davlat hokimiyati (despotiya)

Bobilda Hammurapi podsholik qilgan zamonda qadimgi Sharqda xos despotiya tarkib topgan. Butun mamlakat bir markazdan idora qilingan va butun oliy hokimiyat — qonun chiqaruvchi, ijro etuvchi organlar, sud ishlarini idora qilish va diniy hokimiyat —hammasi faqat podsho qo'lida bo'lgan. Hammurapi bilan uning amaldorlari o'rtasidagi yozishmalarga qaraganda, mamlakatni boshqarishda turli sohalarga, jumladan sun'iy sug'orish ishlariga podshoning o'zi rahbarlik qilgan. Turli xil janjalli ishlarni va podsho nomiga kelgan shikoyatlarni shohning shaxsan o'zi ko'rib chiqqan. Bunday masalalar yuzasidan podshoning o'zi qaror chiqargan va o'z amaldorlariga tegishli farmoyish bergan. Nixoyat kalendarga kiritilishi zarur bo'lgan o'zgarishlar ham podshoning maxsus ko'rsatmalari asosida kiritilgan.

Podsho mamlakatni murakkab va markazlashgan byurokratik apparatga tayanib idora qilgan. Amaldorlarning bir xili markaziy boshqarmaning ayrim sohalarini idora qilgan, boshqalari shaharlar yoki oblastlarni idora qilgan va ular podshoning noiblari hisoblangan. Bobilni va boshqa Sippar kabi Katta-katta shaharlarni «shakkanakku» degan oliy unvonli amaldorlar idora qilgan. Kichikroq shahar va oblastlarni «rabianum» deb ataluvchi amaldorlar boshqargan. Aholi turli xil soliqlar to'lashga majbur bo'lgan: g'alla hosilidan yoki qoramollarning urchishidan, xurmo bog'laridan, kunjut hosilidan va baliqchilik jamoalaridan soliqlar to'plangan. Bu soliqlardan tashqari, axolidan yana kumush bilan maxsus o'lpon va natura bilan maxsus podsholik o'lponi to'plangan. Bu daromalning hammasi podsho xazinasiga kelib tushgan va capoy mulki hisoblangan, bu saroy mulki ibodatxona mulklari bilan bir qatorda, konunning maxsus himoyasida bo'lgan. «Vakil amurri» deb atalgan amaldorlar byurokratik apparatda alohida o'rin tutgan. Bu amaldorlar davlatning savdo-sotii ishlarini hamda jangchilarga yer bo'lib berish (redu va bairu) ishlarini boshqargan.

Sud ishlarini yuritish maxsus amaldorlar qo'lida bo'lgan. Sud qilish funksiyalari shakkanakku. rabianum okrug sudyalarga hamda «shahar oqsoqollari va atoqli kishilari»dan iborat maxsus sudyalarga yuklatilgan. Ibodatxona sudyalari o'z hukmronligini tobora yukotib borgan va ular ibodatxonadagi xudo haykali oldida odamlarning ichgan qasamlariga guvoh bo'lish bilangina chegaralannb qolgan. Sud ishlarini yurgizish xukuqining dastlabki qoidalari paydo bo'la boshlagan. Bu

koidalarga ko'ra, sudyalari zimmasiga guvohlarning qasam ichib bergan guvohliklariga ishonibgina qolmay, balki «ishnn shaxsan tekshirish» vazifasi ham yuklatilgan. Noto'g'ri guvohlik berishda ayblangan kishi qonunning maxsus moddasiga binoan jazolangan. Nixoyat, agar sudya sud xukmini o'zgartirsa, konunning 5-moddasiga muvofiq u ham jazolangan; bunday vaqtda sudya da'vogartalar qilgan hakdan 12 marta ortiq shtraf to'lashi lozim bo'lgan va bundan keyin sudyalik qilish vazifasidan mahrum etilgan.

Mamlakatni boshqarishda byurokratik idora usulining butun sistemasiga podsho boshchilik qilgan. Kohinlar ta'biricha, podshoga oliy hokimiyatni guyo bevosita xudolarning o'zi bergan. Hammurapi kodeksida o'zi to'g'risida mag'rurlik bilan bunday deydi: «Xudo Anu va xudo Enlil meni, shavqatli va mo'min jangchisi Hammurapini hokimiyatga chaqirishdi... Men. Hammurapi, din ahllarining bosh panoxi qilib xudo Enlil tomonidan saylanganman... xudo Sin yaratgan shohona avlodidanman to'la xokimi mutlaq shahanshohman, xudo Zamamaning birodariman... shohlarning ilohiy shohiman... Marduk menn xalqqa bosh bo'lishga va mamlakatni farovon qilishga chaqirdi». Podsho xokimpyatinn xudo o'rnatganligi va bu hokimiyat ilohiy ekanligi to'g'risidagi bu tasavvurlar shumeriylarning bir gimnida yaqqol ifoda etilgan, ushbu gimn Bobil podshosi va Hammurapining vorisi bo'lgan Samsuilunaga bag'ishlangan. Bu gimnda kuyidagidar aytilgan:

Reaksion burjua tarixchilari o'zlarining ko'pdan-ko'p kitoblari va maqolalarida Hammurapi davridagi qadimgi Bobil despotiyasinn ko'pincha ideallashtirganlar va bu despotiyani mustahkam, qat'iy tashkil topgan, «unifikasiyalashtirilgan» monarxiya deb tasvirlab, bu monarxiyada guyo aholining turli tabaqalari o'rtasida ichki «uyg'un muvozanat» deyarli o'rnatilgan edi, deb ko'rsatganlar. Biroq bu chuqur tendensiyali nazariya tamomila xatodir. Bobil davlatida quldor-boylar bilan kambag'al va qullar o'rtasida keskin sinfiy ziddiyatlarni keltirib chiqargan qattiq dushmanlik mavjud bo'lgan, bu, Hammurapi kodeksini tekshirgan vaqtda juda yaqqol ko'rinadi. Davlat hokimiyati umuman sinfiy tuzumni mustaxkamlash maqsadida davlat birligini saqlash uchun zo'r berib turli choralar ko'rgan. Lekin bu urinishlar muvaffaqiyatli bo'lib chiqmagan. Shumeriylar janubi, ko'p jihatdan o'zining alohida iqtisodiy va madaniy hayotini saqlab qolgan.

I Bob. QADIMGI MESOPOTAMIYAGA OID MANBALAR VA ISTORIOGRAFIYA

1.1 Manbalar

Qadimgi Mesopotamiya tarixiga doir manbalar uch asosiy guruhga bo'linadi: 1) qadimgi Sharq yozuvi yodgorliklari, 2) moddiy madaniyat yodgorliklari va 3) antik zamon avtorlarining ma'lumotlari. Qadimgi Sharq hujjatlari tarixchi uchun hammadan ko'ra ko'proq ahamiyatga ega, chunki bu hujjatlarda tarixning ijtimoiy-iqtisodiy faktlari, siyosiy hodisalar qayd etilgan, ularda o'sha davrdagi madaniyatning tarqiyot darajasi aks etgan. Mesopotamiya xalqlarining xo'jaligi, texnikasi va turmushi qay darajada taraqqiy qilganligini ko'rsatuvchi moddiy madaniyat yodgorliklari ham katta ahamiyatga ega. Antik zamon avtorlari qoldirgan ma'lumotlar bularga qaraganda kamroq ahamiyatga ega. Lekin ishonchli va to'la manbalarga ega bo'lgan hozirgi zamon tekshiruvchisi antik zamon avtorlarini e'tibordan chetda qoldirmasligi kerak.¹

Antik dunyo avtorlari qadimgi Sharq madaniyatining so'nggi asrlarida yashaganlar. Ular ko'p voqyealarni shaxsan ko'rganlar, ko'p narsalarni o'sha vaqtlarda mavjud bo'lib, keyinchalik yo'qolib ketgan manbalardan bilganlar. Qadimgi Sharq yozuvining asl yodgorliklari antik zamon avtorlari bergan ma'lumotlarning ko'pi to'g'ri ekanligini tasdiqladi. Nihoyat, antik zamon avtorlari madaniy taraqqiyot darajasi jihatidan qadimgi Sharq dunyosining namoyandalariga qaraganda ancha yuqori turganlar. Lekin hozirgi zamon tarixchisi grek va Rim yozuvchilarining asarlarini tanqidiy urganib, undan extiyotlik bilan foydalanishi keraq. Antik dunyo avtorlari bergan ma'lumotlarni qadimgi Sharq hujjatlari va yodgorliklariga hamma vaqt taqqoslab ko'rish zarur. Hozirgi zamon tekshiruvchisi qadimgi zamondagi har bir yozuvchining xususan har bir tarixchining tendensiyasi va uning dunyoqarash xususiyatini nazarda tutishi kerak. Nihoyat, antik zamon avtori tarixni qanchalik zamonbop qilib hikoya qilganligini ham nazarda tutish zarur.

Qadimgi Sharq haqida yozgan grek tarixchilari orasida Gerodot ayrim o'rin tutadi, uni haqli ravishda «tarix otasi» deb ataydilar. Gerodot (eramizdan av. 480—425 yillarda) o'zining katta asarini grek-fors urushlari tarixiga bag'ishlagan. Gerodot

¹ Никольский Н.М. Вавилония. М., 1927 507-509 бет

ellinlarning daxshatli dushmani bo'lgan Eron davlatini mumkin qadar batafsil ta'riflashga harakat qilib, Eron despotiyasi sostaviga kirgan mamlakatlarning tabiiy sharoitlari, xalqlarning urf-odatlarini, diniy e'tiqodlari, madaniyati va tarixini mufassal bayon etgan. Gerodot o'z asarini yozishda, asosan, kohinlar va yo'l boshlovchilarning hikoyalaridan, shuningdek Sharq mamlakatlariga qilgan sayohati vaqtida o'zi qurgan narsalaridan foydalangan. Gerodot qadimgi Sharq tillarini bilmasa ham va o'zi foydalangan manbalarga jiddiy tanqidiy ko'z bilan qaray olmagan bo'lsa ham, biz uning asarida ilmiy tanqidning dastlabki kurtaklarini ko'ramiz. Avtor Eron va Misr to'g'risida mufassal gapirib, Mesopotamiya ustida ozroq to'xtalgan. Chunki u Osuriya tarixiga bag'ishlab maxsus asar yozmoqchi bo'lgan, ammo yoza olmagan.¹

Gerodot hamma vaqt mamlakatning tarixi va madaniyatini har taraflama yoritishga harakat qilib, Mesopotamiyaning tabiiy sharoitlari to'g'risida gapirganida. u yerdagi sun'iy sug'orishga, foydali o'simliklardan foydalanish va ularni o'stirishga, shuningdek tuproqning unumdorligiga alohida ahamiyat bergan. U tuproq unumdorligining ahamiyatiga juda ortiqcha baho bergan. Gerodot Mesopotamiya xalqlarining turmushi va urf-odatlarini haqida gapirib, kemasozliq suv transporti va savdo xaqida hikoya qilgan. Odamlarning kiyim-kechagi, ovkati, davolash usullari, uylanishdagi rasm-odatlar va ko'mish marosimlarini tasvirlagan. Mesopotamiyaning asosiy shahri bo'lmish Bobilni ayniqsa batafsil tasvirlagan hamda bu shaharni «mamlakatning eng mashxur va juda ham mustaxkam shaxri» deb hisoblagan. Mesopotamiyaning siyosiy tarixi haqida Gerodot bergan ma'lumotlar juda ham qisqa bo'lib, unda tasodifiy va qisman afsonaviy hodisalar tasvir etilgan. Gerodot ayniqsa Semiramida va Nntokridaning binokorlik ishlarini, Kayxisrovnng Bobilni olgani, Eron shohi Doro xukmronlik qilgan vaqtida bobilliklar ko'targan qo'zg'olon, osur podshosi Sinaxeribning Misrga qo'shin tortib borganini mufassal tasvirlagan.

Gerodot o'z hikoyalarida qadimgi mif (afsona) va xalq ertaklaridan keng foydalanib, ko'pincha ularni tarixda bo'lgan voqyealar deb tushuntirgan. Chunonchi, Geraklidlar avlodidan chiqqan Belning ugli Ninni Gerodot osur podsholiginnng asoschisi deb hisoblagan. Lekin Gerodot asarlarini sinchiklab, tanqidiy ko'z bilan

¹ Ko'rsatilgan asar

analiz qilgan hozirgi zamon tarixchisi u yozib qoldirgan faktlarning ko'pidan foydalanishi mumkin.

Gerodot qadimgi Sharq xalqlarining madaniyatiga yuksak baxo bergan va qadimgi Sharq antik dunyoga ta'sir ko'rsatganligini ta'kidlab o'tgan. Gerodot quyosh soatlari va kunning 12 qismga bo'linishi haqida gapirib, ellinlar «bularning hammasini bobilliklardan olganlar» deydi.

Eramizdan avvalgi V asrning ikkinchi yarmida tug'ilgan Ktesiy Knidskiy yozib qoldirgan ma'lumotlar ilmiy jihatdan kamrok ahamiyatga ega. Ktesiy Osuriya tarixiga bag'ishlangan ocherkiga ko'pgina xalq afsonalarini kiritgan, masalan, Sinaxerib va Asarxaddonning vaziri dono Axikar haqidagi. Osuriya podsholigiga asos solgan Nin bilan Semiramid haqidagi afsonalarni kiritgan. Bu barcha afsonalar Sharq rivoyatlari bilan ancha keyin vujudga kelgan grek naqlarining xilma-xil aralashmasi bo'lib ketgan. Ammo Ktesiy ba'zi hollarda ishonchliroq manbalardan, jumladan podsholar pergamentlaridan foydalangan bo'lishi mumkin. Ktesiy Eron shohi Artakserksning saroy tabibi bo'lgan, shu tufayli u Suzadagi shoh arxivlariga kirib, bu pergamentlarni o'rganish imkoniyatiga ega bo'lgan. Ktesiy asari bizning zamongacha saqlanmagan. Uning asaridan olingan ayrim parchalar Diodor asarida saqlanib qolgan.¹

Eramizdan avvalgi I asrda yashagan Diodor «Tarix kutubxonasi» degan asarida o'zidan oldin o'tgan tarixchilarning turli asarlaridan, xususan Gerodot bilan Ktesiy asarlaridan keng foydalangan. Diodor osur podsholigining asoschilari Nin va Semiramidning afsonaviy hayot va faoliyatlarini ayniqsa mufassal tasvirlagan. Diodor asaridagi Bobil tasviri, jumladan Bobilni qazish vaqtida topilgan Bobil saroylarining devorlaridagi nafis suratlarning tasviri birmuncha kiziqarlidir. Nihoyat, Xaldeya astrologiyasi va astronomiyasining Diodor asarida saqlanib qolgan tasviri **ham** diqqatga sazovordir.

Eramizdan avvalgi I asrning oxiri va eramizning I asri boshlarida yashagan Strabonning «Geografiya»sida kadimgi Mesopotamiyaning tarixi haqida ma'lumotlar saqlanib qolgan. Strabon o'z asarida Mesopotamiyaning tabiiy sharoitini tasvirlagan hamda Dajla va Frotning vaqt-vaqti bilan bo'lib turadigan toshqiniga

¹Авдиев В.И. Қадимги шарқ тарихи. Т -1964 26 бет

va sun'iy sug'orish tarmoqlari tashkil qilishning zarurligiga e'tibor bergan. Strabonning ko'pgina kuzatishlari anchagina qiziqarli bo'lsa-da, lekin uning tasvirlarida juda mubolag'a qilib yuborilgan joylar ham bor. Masalan, Strabon Mesopotamiya yerlarinnng unumdorligini va xurmo daraxtinng xo'jalikda keng ishlatilishini haddan tashqari bo'rttirib ko'rsatgan. Strabon bobilliklarning urf-odat va kiyim-kechaklarini, uylanishdagi rasm-odatlar va ko'mish marosimlarini batafsil tasvirlagan. Strabon o'zining bu hikoyalarida ko'p narsalarni tasvirlashda Gerodotga ergashgan. Strabon asarida Bobil va undagi Xaldeya astronomlari observatoriyasnnng ajoyib ta'rifi, shuningdek Nin va Semiramida haqida antik davr tarixshunosligida keng o'rin olgan afsonalar kabi tarixiy afsonalar saqlanib qolgan. Shuning uchun ham bu afsonalarning avloddan-avlodga kelganligi ajablanarli emas. O'rta asr tarixchilari bu afsonalarni, antik zamon tarixchilari yozib qoldirgan oz-moz ma'lumotlar bilan birga, yangi davr boshlarida qadimgi Sharq olamining allaqachonlar unutilgan xalqlari madaniyatiga qaytadan qiziqish uyg'otgan olimlarga meros qilib o'tkazganlar.

Old Osiyoning qadimgi xalqlari to'g'risida yozgan antik tarixchilar orasida eramizdan avvalgi IV—III asrlarda yashagan bobillik Beros alohida o'rin tutadi. U Bobildagi Marduk ibodatxonasining kohini bo'lgani sababli, ibodatxona arxivlaridan fondalanish imkoniyatiga ega bo'lgan, bu hol esa uning ishinn yengillashtirgan. Aleksandr Makedonskiy va dastlabki Salavkalarinnng zamondoshi Beros grek madaniyatiga daxldor bo'lgan, Bobil tarixi hamda madaniyatini u o'sha zamonning bilimdon kishisi nuqtai nazaridan ta'riflab bera olgan. Shunnng uchun Beros grek tilida Bobil tarixi va mifologiyasi ocherkidan iborat katta tarixiy asar yarata olgan. Berosning asari uch kitobdan iborat. «Donishmandlik» deb atalgan birinchi kitobda Bobil miflari bayon etilgan. Ikkinchi kitobda afsonalardagi dunyo to'foni dazridan tortib to shox Pulning (ya'ni osur podshosi Tiglatpalasar III ning) podsholik qilish davrigacha bo'lgan Mesopotamiya tarixi bayon qilingan. Uchinchi kitobda Mesopotamiya tarixining Aleksandr Makedonskiy o'limigacha bo'lgan davri tasvirlangan. Afsuski Berosning asari to'la saqlanib qolmagan. Beros asarining Iosif Flaviy va boshqa yozuvchilarning asarlarida keltirilgan parchalari va qitatalarigina

bizning zamongacha yetib kelgan. Bu parchalar ibtidoiy zamonlar, to'fon davri, patriarxlar, Sinaxerib va Navuxodonosor haqidagi qissalardan iborat.

1.2 Mesopotamiyani arxeologik tekshirishlar tarixi va qadimgi yozuvlar

Olimlar Mesopotamiya territoriyasida topilgan qadimgi yozuvlar va arxeologik yodgorliklarni ilmiy jihatdan tekshirish imkoniga ega bo'lganlaridan keyingina Mesopotamiyada yashagan qadimgi xalqlar tarixi va madaniyatini chinakam o'rganish boshlandi. Dastlabki qazishlarni XIX asrning o'rtalarida Botta boshlagan. U Xorsobodda osur podshosi Sargon saroyining xarobalarini topishga muvaffaq bo'lgan. 1845—1851 yillarda Leyyard o'tkazgan qazishlar ayniqsa muvaffaqiyatli chikqan. U Osuriya poytaxtlari — Kalax bilan Nineviya xarobalarini ochgan. Leyyard Kalax harobalarni kovlab, Osuriya podsholarining eramizdan av. IX—VII asrlarda qurilgan beshta saroyining qoldiqlarini topgan. Leyyard bu yerda ajoyib haykallarni, jumladan podsho saroyining posbonlari bo'lgan qanotli bahaybat ho'kizlarning tasvirlarini topgan. Bu saroylarning devorlaridagi barelyeflarda urush va ov qilish, qal'alarni qamal qilish, asirlar haydab kelish va saroy hayotiga oid manzaralar saqlanib qolgan. Leyyard Nineviya xarobalaridan ko'pdan-ko'p zallari, xonalari va koridorlari bo'lgan katta saroyning qoldiklarini topgan. Osur san'atining bir qancha asarlaridan tashqari. Leyyard moddiy madaniyatga oid turli-tuman buyumlar (qurol-yarog'lar, idish-oyoqlar, zeb-ziynat va uy-ro'zg'or buyumlari) ham topgan. Osuriya saroylarining harobalaridan Leyyard topgan yozuvlar alohida tarixiy qimmatga ega. U boshlagan ishlarni Rassam bilan Smit davom ettirgan; bularning qazib topganlari Osuriya tarixi va madaniyatini o'rganish uchun juda katta material bergan.¹

Janubiy Mesopotamiyada ham XIX asrning ikkinchi yarmida katta qazishlar o'tkazilgan. Arxeologlar bu yerda eramizdan avvalgi IV ming yillik oxirlaridagi eng qadimgi Shumer shaharlarining xarobalarini topgan. De-Sarzek va Xeze hozirgi Tello o'rnida qadimgi Shumer shahari Lagash (Shirpurla)ning qoldiqlarini topishgan, ular Lagash xarobalaridan Shumer san'atining ko'pdan-ko'p asarlarini hamda shumeriyalar mixxati bilan yozilgan bir qancha sopol lavhalar, jumladan xo'jalik ishlariga oid

¹ Ko'rsatilgan asar 32 bet

qimmatli hujjatlar topganlar. Bu hujjatlarnig ba'zilar Moskva va Leningrad mo'zaylarida saqlanmokda. Qadimgi Shumerning asosiy diniy markazi bo'lgan Nippur shahridan binolar, jumladan ibodatxonalar va ibodatxona minoralari (zikkurat)ning ko'plab qoldiqlari topilgan.

XIX asrning eng oxirida nemis olimi Koldeveyning Bobilda o'tkazgan qazishlari yangi Bobil podsholigini o'rganish uchun juda qimmatli material bergan. Bu qazishlar natijasida qadimgi Sharq dunyosnning eng katta shahri bo'lgan qadimgi Bobilning topografiyasini tiklash imkoniyati tug'ilgan. Koldevey Bobil podshosi Navuxodonosorning mashhur «osma bog'lari» bo'lgan bir qancha saroy xarobalarini topgan; bu «osma bog'lar»ning ta'rifi grek tarixchilarnig asarlarida saqlanib qolgan. Bobilda ibodatxonalarig xarobalari, kanallarig qoldiklari, «Mabuda Ishtar darvozasi» ning bir qismi va darvoza orqali o'tgan shox yo'li topilgan. «Ma'buda Ishtar darvozasi» sirlangan (koshinkor) g'ishtlardan rang-barang ziynatlar berilib qurilgan. Bobil xarobalarida qimmatli tarixiy hujjatlar, jumladan Eron shohi Kayxisrov manifestinig teksti topilgan; bu manifestda Eron qo'shinlarinig Bobilni olishi yozilgan.

Mesopotamiyadagi eng katta va sistematik qazishlar XX asrning dastlabki o'n yillarida olib borilgan, bu qazishlar Mesopotamiyanig turli joylarida o'tkazilgan. Shuruppakda, Urukda, Al-Obeidda va Jemdet-Nasrda neolit davrida vujudga kelgan eng qadimgi poseleniyelar topilgan. Mesopotamiyanig quyidagi uch katta shahri territoriyasida, chunonchi, Ikkidaryo oralig'ining janubiy qismidagi Shumer mamlakatinig Ur shahrida, Mesopotamiyanig o'rta qismidagi Akkad mamlakatinig Eshnunna shahrida va Frot daryosi bo'yidagi Mari shahrida ayniqsa katta qazishlar qilingan (Mari katta shahar bo'lgan). ¹

Urdan turli davrlarga oid juda ko'p yodgorliklar topilgan. Eramizdan avvalgi uchinchi ming yillikning boshlarida o'tgan podsho Maskalam-dugning va malika Shubadning maqbaralaridan qimmatli va g'oyat nafis qilib ishlangan bir kancha zargarlik buyumlari, jumladan oltin, kumush, lojuvard bilan bezatilgan hamda oltindan yasalgan ho'kiz boshi o'rnatilgan g'oyat go'zal arfa (cholg'u asbobi), go'zal naqshlar solingan shashka taxtasi, eshkakli qayiqning kumush modeli, bir talay zeb-

¹ Ko'rsatilgan asar 36 bet

ziynat buyumlari, idishlar, qurollar va oltin, kumushdan yasaliib, xilma-xil bezaklar berilgan bir qancha boshqa narsalar topilgan. So'ngra shaharning Rimsin podsholik qilgan zamonga oid (eramizdan avvalgi XVIII asr) kattagina qismi sinchiklab kovlangan va butunlay tekshirib chnqilgan. Bu yerdan ko'pdan-ko'p uylarnng qoldiqlari, bir necha ko'cha, tor ko'chalar va maydonlar topilgan, bularga qarab qadimgi Shumer shahrining hayotini aniq tasavvur qilish mumkin. Shaharning janubi-Sharqiy qismidan asosan Rimsin davriga oid mixxat bilan yozilgan juda ko'p hujjatlar topilgan.

Qadimgi Akkad mamlakatidagi Eshnunna shahridan juda qimmatli yodgorliklar topilgan, bu shaharning harobalaridan qadimgi ibodatxonalar va ikki asr (eramizdan avvalgi XX—XVIII asrlar) davomida qurilgan hamda qayta qurilgan g'oyat katta va muxdasham saroy qoldiklari topilgan.

Eshnunna harobalaridan, shuningdek qadimgi Akkadning hozirgi Xafaja shahri o'rnidagi boshqa bir shahari xarobalaridan topilgan yozuvlar va moddiy madaniyat yodgorliklar eramizdan avvalgi uchinchi ming yillik boshlarida eng qadimgi Shumer madaniyati akkadning simitlar yashagan markazlarida kuchli ta'sir ko'rsatgan, deb aytishga imkon beradi. Nihoyat, bu shaharlarning harobalaridan topilgan san'at va turmush yodgorliklari o'sha vaqtlarda Mesopotamiyaga bostirib kelgan amorit qabilalari bilan Akkad, Elam o'rtasidagi o'zaro munosabatlarnn yanada aniqroq bilishimizga imkon beradi.

Nihoyat, 1933—1936 yillarda Mari davlati poytaxtining xarobalari ochildi. Bu shaharning nomi Bobil podshosi Hammurapi zamonidagi (eramizdan avvalgi XVIII asr) yozuvlarda ko'p tilga olinadi. Bu shaharning xarobalaridan katta ibodatxona, g'oyat katta saroy va yaxshi saqlanib qolgan maktab qoldiqlari topildi. Topilgan narsalar orasida eng muhimi qimmatli hujjatlarga boy bo'lgan arxivdir.

Mari davlatining xo'jalik hayotini aks ettiruvchi bir talay hujjatlar va tarixiy tekstlar orasida o'sha zamonda Old Osiyo davlatlari o'rtasidagi xalqaro munosabatlarni yorqin qilib ochib beruvchi diplomatik hujjatlar alohida o'rin tutadi. Mixxat bilan yozilgan ba'zi lavhalar Mapi podshosi Zimrilim bilan Bobil¹ podshosi Hammurapi o'rtasida harbiy ittifoq bo'lganligini aniqlashga imkon beradi. Nihoyat,

bu hujjatlar Mari davlatining shimoliy Suriya va hatto Krit oroli bilan bo'lgan iqtisodiy aloqalari haqida gapirishimizga imkon beradi.

Moddiy madaniyat yodgorliklari

Butun bir yuz yil davomida Mesopotamiyaning barcha territoriyasida muttasil olib borilgan katta qazishlar natijasida juda ko'p moddiy madaniyat yodgorliklari topildi. Bu yodgorliklar qadimgi Mesopotamiyada xom ashyoning qaysi turlari ko'proq tarqalganligini, xom ashyoning qanday xillari qo'shni mamlakatlardan keltirilganligi va keltirilganda ham qaysi mamlakatlardan keltirilganligini ko'rsatib beradi. Shunday qilib, tarixchi Mesopotamiya bilan unga qo'shni mamlakatlar o'rtasida bo'lgan o'zaro savdo munosabatlarini aniqlay oladi. So'ngra, moddiy madaniyat, yodgorliklarini o'rganish texnikaning taraqqiyot darajasini aniqlashga ham imkon beradi. Bu jihatdan g'isht quyish, keramika, metallurgiya va binokorlik ishlari harakterlidir. Keramikani o'rganish shuni ko'rsatadiki, eng qadimgi zamonlarda Mesopotamiyaning janubiy qismidagi aholi binokorlik ishlarida yirik-yirik yapalok g'ishtlardan foydalangan, bu g'ishtlarning formasi esa asrlar davomida anchagina takomillashib borgan. Saqlanib qolgan sopol idishlarga qarab kulolchilikning qay darajada rivojlanganligini aytish mumkin. Metallurgiyaning bo'lganligi texnika taraqqiysini aniq ko'rsatadi. Eng qadimgi zamonlarda Mesopotamiya aholisi faqat misdan foydalangan bo'lsa, keyinchalik bronza, eramizdan avvalgi ikkinchi ming yillikning oxirlarida esa temir misni siqib chikara boshlagan. Nixoyat, Mesopotamiyaning o'ziga xos narsalar, chunonchi asfalt tayyorlash va binolarning sirtini bezashda ishlatiladigan koshinkor g'ishtlar tayyorlash g'oyat diqqatga sazovordir.

Mixsimon xatlarning o'qib chiqarilishi

Antik avtorlar yozib qoldirgan ma'lumotlarga va moddiy madaniyat yodgorliklariga qaraganda, hujjatlar, alohida mixxat bilan bitilgan yozuvlar ancha katta ilmiy ahamiyatga ega. Mixxat qadimgi zamonlarda butun Old Osiyoning asosiy yozuv sistemasi bo'lgan. Saroy va ibodatxonalarning arxivlaridan juda ko'plab topilgan va ko'pincha sopol lavhalarga bitilgan mixxatlarda qadimgi Mesopotamiya xalqlarining xo'jalik ijtimoiy, siyosiy va madaniy hayotiga oid turli -tuman faktlar

kayd etilgan, shuning uchun bu xatlar Mesopatamiya xalqlarining tarixi va madaniyatini o'rganishga imkon beradi.¹

XVII asrda italiyalik savdogar va sayyoh Pyetro della Valle mixsimon xatlarning nusxa (kopiya)larini birinchi marta Yevropaga olib kelgan, Pyetro della Valle bu yozuvlarni Eron shohi Doroning Persepol saroyi devorlaridan ko'chirib olgan. Ammo Yevropa olimlari bu yozuvlarni ko'p vaqtgacha o'qiy olmaganlar. XVIII asr oxirida daniyalik Kareten Nibur mixsimon xatlarni o'qib chikarishga birinchi marta harakat qilgan. Nibur mixsimon xatlarning ma'lum darajada aniqroq chizib berilgan bir necha nusxasinn bosib chiqargan va ularni o'qib chiqarishga kirishgan. Ammo Nibur bu vazifani bajarishga muvaffaq bo'la olmagan. Nibur mixsimon xatlar uch xil yozuv sistemasida yozilganligini va shu uch xil sistemadan eng soddasi 42 alfavit belgisidan iborat ekanligini aniqlay olgan, xolos.

Gettingen gimnaziyasining o'qituvchisn Grotefend (1775— 1853 yillar) mixxatlarni o'qib chiqarishda katta muvaffaqiyatlarga erishgan. Grotefend o'zidan oldin o'tgan olimlarning, qiyshiq mix belgi — ajratuvchi belgini bildiradi va alfavitli Persepol xatidagi bir guruh belgilar esa podshoning unvonini bildiradi, degan farazlariga asoslanib, bu yozuvning hammasi umuman ikki Eron shoxining unvonini bildiradi deb taxmin qilgan. Grotefend bir talay oqilona muljallari tufayli, bu yozuvda Axmaniyar dinastiyasidan bo'lgan ikki Eron shoxining: Doro va Kserksnnng nomlarini, shuningdek Doroning otasp Kashtosib (Gistasp)ning nomini o'qib chiqarishga muvaffak bo'lgan. Shunday kilib, Grotefend qadimgi fors mixxatining to'qqizta alfavit belgisini to'g'ri tushuna olgan va bu bilan mixxatlarni o'qib chiqarish ishiga asos solgan. O'qib chiqarilgan xatning to'g'riligi keyinchalik to'rt tilli yozuvni tekshirishda tasdiqlangan, bu to'rt tilda yozilgan yozuvda Kserksnnng nomi mixxat bilan va uning yonginasiga misr iyerogliflari bilan yozilgan. Bu iyerogliflarda Kserksnnng nomi mixxatga juda yaqin bo'lgan shaklda (Kshayarsha) transkripsiyasida berilgan. Grotefendning kashfiyotini olimlar tezda tan olgan emas, lekin shunday bo'lsa ham, uning ishini Lassen va Byurnuf degan olimlar davom ettirib, qadimgi fors alfavitinnng qolgan belgilarini ham aniqlaganlar. Byurnufning

¹ Бобил. Аккадча –худо дарвозаси

1836 yilda bosilib chiqqan asarida qadimgi fors yozuvidagi 34 alfavit belgisining to'g'ri o'qilishi berilgan.

Ingliz sayyoxi G. Roulinson asarlari fors mixxatlarinn o'qib chiqarishning to'g'riligini tekshirish va keyinchalik assiriologiya (osurshunoslik) deb nom olgan yangi fanni yanada rivojlantirish uchun juda qimmatli material bergan. Roulinson Eronda 1835 yilda mixsimon xatlardan bir nechasing nusxasini ko'chirib olgan. Bular orasida chiqib bo'lmaydigan baland koyaga uyib yozilgan mashhur Bexistun yozuvi ham bo'lgan. Grotefendning o'qib chiqargan yozuvidan hali bexabar bo'lgan Roulinson bu yozuvlarni sinchiklab tekshirib, fors mixsimon xatining 18 alfavit belgisini to'g'ri aniqlagan.² Roulinson to'plagan boy material mixsimon xatlarning qolgan ikki sistemasini ham aniqlashga kirishishga imkon bergan. Roulinson va Norris yangi elam yozuvlari uchun xizmat qilgan ikknchi sistemaning 200 ga yaqin belgisini aniqlashga muvaffak bo'lganlar. Bu ikkinchi sistema sillab yozuvi (bo'g'inli yozuv) sistemasi bo'lib chiqqan. Mixxatning uchinchi sistemasini Roulinson, Xinks va Oppert o'qib chiqarganlar. Ular uchinchi sistemada 200 dan ortiq sillab (bo'g'inli) belgi borligini va bu bilan bir qatorda ishlatiladigai bir qancha ideogrammalarning borligini aniqlaganlar. Bu yozuvlarni o'rganish natijasida ular semitik tillar guruhiga mansub bo'lgan tilda yozilganligi ma'lum bo'lgan. Keyinchalik Bobil mixxatiga yaqin bo'lgan osur bo'g'inli mixxati sistemasi va, nihoyat, Janubiy Mesopotamiyaning shumeriylar deb atalgan eng qadimgi aholisida paydo bo'lgan mixsimon xatning eng qadimgi tili ham o'qib chiqarilgan. Mixxat avvalo shumeriylarda paydo bo'lgan, keyin esa ulardan bu xatni bobilliklar olib, uni o'z navbatida osuriylarga bergan va osuriylar orqali qadimgi eronliklarga o'tgan bo'lsa kerak.

Mixsimon yozuvlar

Mixxatlarning o'qib chiqarilishi natijasida olimlar qadimgi Mesopotamiya tarixi xaqida juda qimmatli manbalarga ega bo'ldilar. Mixsimon yozuvlar Mesopotamiyadagi qadimgi xalqlarning xo'jalik va ijtimoiy tuzumini, siyosiy tarixi va madaniyatini ravshan qilib yoritadi.

Eng qadimgi Mesopotamiyaning ekonomikasini o'rganishda qadimgi Shumerdagi turli shaharlarning arxivlaridan, Lagash, Umma, Ur, Larsa va boshqa

shaharlarnig arxivlaridan topilgan xo'jalik hisobotlariga doir hujjatlar g'oyat katta ahamiyatga ega. Bu hujjatlar orasida «ishchi kuchlari bilan ish yurgizish» hisobotlaridan iborat keng to'plamlar, qo'l savdosi haqidagi shartnomalar, yer uchastkalari sotish to'g'risidagi shartnomalar, shuningdek savdogarlarning daromad va xarajatlari, savdo ishlari va preyskurantlar (mol va uning narx-navolari) haqidagi hisobotlar kabi hisobot hujjatlari ko'proq diqqatga sazovor. Bu hujjatlarning hammasi qadimgi Shumerning xo'jalik tuzumini mufassal o'rganishga, shuningdek u yerda qullarni ekspluatasiya qilishdagi harakterli xususiyatlarni aniqlashga imkon beradi. Eramizdan avvalgi XXIV asrda yashagan Lagash hokimi Urukagining mashxur yozuvlari sosial kurashning va sosial reformalar o'tqazish yo'lida qilingan harakatning yorqin manzarasini ko'rsatib beradi. Podsholar tomonidan in'om qilib berilgan yer yorliqlarining marza toshlarda saqlanib qolgan tekstlari (eramizdan avvalgi XIV—XII asrlar) xamoa tuzumining qoldiqlarini ta'riflash va dehqonchilik formalarini o'rganish uchun boy material beradi. Bobil podshosi Hammurapining Larsadagi amaldorlari bilan olib borgan ma'muriy yozishmalari eramizdan avvalgi ikkinchi ming yillikning birinchi yarmida Bobildagi sun'iy sug'orish va ma'muriy idora qilish usuli (sistemi)ni tasavvur qilishga imkon beradi. Yerni ijaraga olishning o'sha davrdagi turli formalarini tasvirlamoq uchun bizning qo'limizda ko'pgina ijara shartnomalari bor.¹

Shumer, Akkad va Bobilning xo'jalik va ijtimoiy tuzumini o'rganishda, shuningdek huquq va sud ishlarini rivojlanishini o'rganishda qadimgi Shumerning eramizdan avvalgi XX—XVIII asrlarga oid qonunlarining parchalari, Bilalama podsholik qilgan zamonda Eshnunnada nashr etilgan qonunlar to'plami hamda Hammurapining qadimgi Bobildagi huquq ishlarini o'rganishda juda muhim manba hisoblangan va deyarli to'la-to'qis saqlanib qolgan kodeksi (qonunlar to'plami) muhim ahamiyatga ega. Bu davrdagi ko'pgina shartnomalar va bitimlar (kontraktlar) kodeksning ayrim moddalari amalda qanday ko'llanilganligini ko'rsatadi va kodeksni ma'lum darajada to'ldiradi.

¹ Кўрсатилган асар 68 бет

Shumer, Akkad va Bobil podsholarining tinchlik va urush davridagi faoliyatlariga oid tarixiy yozuvlar manbalarining alohida guruhini tashkil qiladi. Ibodatxonalar qurish va kanallar qazish, zafarli yurishlar va sulh axdnomalari tuzish tasvir etilgan yozuvlar katta ahamiyatga ega. Lagash hukmdori Eannatumning «Kalxatlar lavhasida» («Stela korshunov») saqlanib qolgan va Umma ustidan qozonilgan g'alabani tasvirlovchi yozuv shunday yozuvdir. Qadimgi Shumerdagi diplomatik munosabatlarni o'rganishda katta ahamiyatga ega bo'lgan Entemena yozuvlari ham shunday yozuvdir. Lagash hukmdori Gudeaning Lagashda xudo Ningirsga atab qurgan ibodatxonasini mufassal bayon qilib beruvchi yozuvlar ham shunday yozuvdir. Nihoyat, eramizdan avvalgi ikkinchi ming yillikning birinchi yarmida Old Osiyoning xalqaro munosabatlarini va Bobil podshosi Hammurapining istilochilik siyosatini tasvirleydigan diplomatik hujjatlar (bular Maridagi arxivlardan topilgan) shunday yozuvdir. Bu yozuvlarni to'ldirishda tarixiy afsonalar ham birmuncha rol o'ynagan. Bu afsonalarning asosiy syujeti guyo xudolar yordami bilan yangi dinastiyaga asos solgan mashhur podshoga qilingan madxiyadan iborat. Bu afsonalar orasida, bog'bon tarbiyalab yetishtirgan va ma'buda Ishtar baland martabaga ko'targan Akkad podshosi Sargon I hakidagi afsona alohida o'rin tutadi.¹

Hujjatli manbalar kam bo'lganligi tufayli tekshiruvchilar Mesopotamiyaning qadimgi shaharlari harobalaridan juda ko'plab topilgan adabiy, diniy-sexriy va ilmiy tekstlardan keng foydalanishga majbur bo'ladilar. Tarixchi bu tekstlardan ko'pincha muhim tarixiy ma'lumotlar olishi mumkin. Masalan, fol ochish, karomat ko'rsatish va turli nishonalar (omina) to'g'risidagi sehriy tekstlarda siyosiy tarixning turli-tuman voqyealari haqida ko'rsatmalar saqlanib qolgan. Qadimgi paxlavon Gilgamesh xaqidagi mashhur eposda Elamning Shumer bilan qilgan kurashi to'g'risida uzoq o'tmishdan xotiralar bor. «Xo'jayin bilan qul dialogi» degan ajoyib suhbat esa Hammurapi podsholik qilgan davrda qadimgi Bobildagi sinfiy kurashni yorqin tasvirlab beradi. Bu tekstlarning hammasi birga ko'shilib, Mesopotamiyadagi qadimgi xalqlarning diniy e'tiqodlari, adabiyoti va ilmiy bilimlarining taraqqiyoti haqida to'la tasavvur beradi, o'sha zamondagi madaniyatning taraqqiyot darajasini

¹ Авдиев В.И. Вавилонская религия. Б.С.Е., Т.6 М-1951 492

ochiq-oydin harakterlaydi. Nihoyat, grammatik yozuvlar va lug'atlar bu xalqlarning tillari va yozuvini sinchiklab o'rganishga imkon beradi.

1.3 Istoriografiya

Yirik arxeologik qazishlar va mixsimon yozuvlarning o'qib chiqarilishi olimlarga Qadimgi Mesopotamiyaning tarixi va madaiyatini o'rgana boshlashga imkon berdi. Tekshiruvchilar dastlabki vaqtlarda asosan qadimgi Osuriyaga e'tibor berganliklari tufayli, bu yangi tarix-filologiya fani assiriologiya (osurshunoslik) deb nom olgan edi. Faqat keyinchalik Bobil yodgorliklarini va Shumer yozuvlarini o'rganish qadimgi zamon tarixidagi bu sohaning doirasini kengaytirdi, ammo bu sohaning osurshunoslik degan avvalgi nomi tradisiyaga ko'ra saqlanib qolgan.

XIX asrning birinchi yarmidayoq qadimgi Mesopotamiya tarixini o'rganishga harakat qilib ko'rigan. Bu ishlarning ahamiyati antik avtorlarning yozib koldirgan ma'lumotlarini to'plash va ulardan foydalanishdan iboratdir. Arxeologik yodgorliklar va mixsimon yozuvlardan foydalanish natijasida osurshunoslik chinakam hujjatlarga asoslangan mustahkam zaminga qo'yilib, fanda butun bir katta o'zgarish yasaldi. Ammo yangi, hali yetarli darajada o'rganilmagan materiallarning ko'pligi dastlabki tekshiruvchilarning juda ham keng umumiyashtirishlariga va asossiz farazlariga sabab bo'lgan.¹

Ba'zi bir osurshunoslarning, Bobil jahon madaniyatining eng qadimgi o'chog'i bo'lib, yer sharidagi madaniy xalqlar ko'pchiligining tarakkiyotiga ta'sir ko'rsatgan ahamiyatini oshirib yuborishlari katta munozaraga sabab bo'lgan. XIX asrning oxiridayok Shrader bilan Gunkel qadimgi Bobil bilan, Qadimgi Isroil madaniyatlari o'rtasida bir qancha o'xshashliklar borligini juda to'g'ri ko'rsatib berganlar. F. Delich bilan G. Vinkler bu taqqoslashni davom ettirib. panbobilchilik nazariyasini ilgari surganlar. Bu nazariyaga muvofiq mifologiya, din, sehr sohalaridagi eng qadimgi tushunchalar, adabiyotdagi obraz va syujetlar. shuningdek fan soxasidagi dastlabki yutuqlar qadimgi Bobildan kelib chiqkan. Shunday qilib, Bobil insoniyatning eng qadimgi va asosiy beligisi deb e'lon qilingan. Old Osiyoda eng keyingi vaqtlarda yashagan xalqlarning madaniy tarakqiyoiga Bobilning katta ta'sir ko'rsatganligi haqida asosan to'g'ri aytilgan fikr haddan tashqari oshirib yuborilgan; shu bilan birga,

¹ Большая советская Энциклопедия. Изд.2. Т.3 М-1952 с 264

yer sharidagi turli-tuman xalqlarning har xil tipdagi ideologiyalari va dunyoqarashlarining har xil formalari aslida qadimgi Babil mifologiyasi va astral e'tiqodlarining o'zi bo'lib, faqat so'nggi vaqtlarda o'zgargan deb talqin qilingan. Panbobilchilik nazariyasi tarafdorlarining fikricha, dunyoning yaratilishi haqidagi, to'fon to'g'risidagi, avvalgi odamlarning gunoh qilganliklari haqidagi, qadimgi zamonlarda keng yoyilgan afsonalar, do'zax va jannat haqidagi afsonaviy tushunchalar, axloqning dastlabki elementlari, gunoh to'g'risidagi tushunchalar, xudoning birligi haqidagi ideya dastlab Bobilda paydo bo'lgan va so'ngra Bobildan boshqa barcha xalqlar o'rtasida yoyilgan emish.

Panbobilchilarning Babilni haddan tashqari ko'klarga ko'tarib maqtashlari hatto ko'pgina mutaxassislar, jumladan Ed. Meyer va Kugler tomonidan juda asosli ravishda tanqid qilingan. Misrda, Suriyada, Hindiston va Xitoyda o'tkazilgan qazishlar turli mamlakatlarda yashagan ko'p xalqlar o'z madaniyatlarini tamoman mustaqil ravishda o'zlari vujudga keltirganliklarini va rivojlantirganliklarini ko'rsatib berdi. Lekin bu fakt qadimgi zamondagi turli xalqlar madaniyatini bir-biriga yaqinlashtirishga imkon bergan ba'zi bir o'xshashlik xususiyatlari bo'lganligini istisno qilmaydi, bu esa shuni ko'rsatadiki, o'sha xalqlar yagona yo'l bilan taraqqiy qilgan, shuningdek ba'zan ular bir-birlariga ta'sir ko'rsatganlar. Albatta, Babil madaniyatining elementlari Old Osiyoda yashagan qadimgi xalqlar orasida tarqalganligini ham esdan chiqarmaslik kerak.¹

Manbalarining chuqur tekshirilishi osurshunoslnkni yanada rivojlantirishga ko'p darajada yordam berdi. Bunga esa mixxatlarning tekstlarini bosib chiqarish va shumeriyalar, bobilliklar va osuriyaliklarning til va yozuvlarini diqqat bilan o'rganish yordam berdi. Maxsus grammatika, lug'at va spravochniklar bosib chiqarildi. Bu ishlar tarix va madaniyatning turli masalalarini, qisman san'at, adabiyot, din va fanni chuqurroq o'rganishga imkon tug'dirdi. Tor doiradagi maxsus asarlarda ham, katta to'plamlarda ham shumer xalqining kelib chiqishi haqidagi, Shumer bilan babil-semit madaniyatlarinnng o'zaro munosabatlari haqidagi va, nihoyat, qadimgi Bobildagi ijtimoiy munosabatlar hakidagi masalalar xususan ko'proq muhokama qilindi. Ingliz arxeologi Frankfort Ikkidaryo oralig'ining azalgi aholisi — Shumer xalqi va

¹ Вииклер Г. Вавилонская культура. под ред. Никольского 170 с

Mesopotamiya madaniyatini eng qadimgi zamonda bunyodga keltirgan xalq ham shumer xalqidir, deb tasdiqlash mumkin, deydi. Lekin eng qadimgi arxeologik yodgorliklar bilan undan keyinrok davrga oid bo'lgan yodgorliklar o'rtasidagi ba'zi tafovutlar, shuningdek Shumer tilining faqatgina o'ziga xos xususiyatlari tekshiruvchilarni Mesopotamiyada shumeriylardan ham oldii boshqa bir aholi bo'lganligi haqidagi masalani ko'yishga majbur etdi. Ingliz arxeologi Gordon Chayld Ikkidaryo oralig'idagi eng azalgi aholini ehtiyotlik bilan protoshumeriylar deb ataydi va bu protoshumeriylar Mesopotamiyada dastlabki sun'iy sug'orish elementlarini tashkil qilib, bu yerda serhosil yerlar vujudga keltirganlar, deb ko'rsatadi. Ammo Chayldning fikricha, Shumer madaniyatini vujudga keltiruvchilar tarix tongida Mesopotamiyaga bostirib kirgan shumeriylardir. Shumeriylarning o'zlari qayerdan kelib chiqqan, degan savolga hozirgi zamon tekshiruvchilari har xil javob beradilar. Ayrim tekshiruvchilar, masalan, Chayld, ularni Sharqdan, ehtimolki, Elamdan kelgan bo'lsalar kerak deb taxmin qiladi. Boshqalar (B. Grozniy) esa ularning asli vatani shimoliy mamlakatlar bo'lgan, deydi.

Qadimgi Shumer shaharlaridagi qazishlarning natijalari shumeriylar va Akkad semitlari madaniyatlari o'rtasidagi o'zaro ta'sirini o'rganish muammosini ilgari surishga imkon berdi. Shumerning tarixi va madaniyatini o'rgangan bir qancha tekshiruvchilar Bobil madaniyatining negizi va manbai Shumerdir, degan fikrga keldilar. Bu fikrni ingliz olimi King bayon qildi va mufassal suratda asoslab berdi. Fransuz semitologi (semitshunos) Galevi, Bobil madaniyati shumeriylardan kelib chiqqan, deb tasdiqlovchi nazariyaga keskin suratda qarshi chiqdi. Galevi bu bahsda juda qizishib ketib. Shumer xalqi. tili va madaniyatining bo'lganligini ham xech bir asossiz ravishda inkor kildn. Shumeriylar tili esa Bobil kohinlari tomonidan sun'iy suratda o'ylab chiqarilgan «maxfiy» tildir, dedi. Bu munozarada E. Meyer o'rtacha yo'l tutdi. Meyer, Shumer xalqining bo'lganligini va ularning madaniyati semitlarga katta ta'sir ko'rsatganligini aytib, semitlar har holda Shumer madaniyatining yutuqlariga ko'r-ko'rona taqlid qilavergan emaslar, balki ular bu sohada ko'p narsalarni mustakil ravishda o'zlari yaratganlar va Shumerning madaniy merosiga ko'p yangiliklar qo'shganlar, deb ko'rsatdi.

Istorpografiyada qadimgi Bobildagi ijtimoiy munosabatlar haqidagi va davlat xokimiyatining tili haqidagi masalalarga birmuncha e'tibor qilindi. Burjua tarixchilari qadimgi Sharq jamiyatini ideallashtirib va tarixiy rivojlanish prosessini noto'g'ri talqin qilib, qadimgi Bobil-ning xo'jalik va ijtimoiy tuzumidan, shuningdeq davlat tuzumidan ancha keyingi davrlarga xos hodisalarni topishga urindilar. Masalan, tarixni haddan tashqari zamonbop qilib ko'rsatishga harakat qilgan franso'z olimi Kyuk qadimgi Mesopotamiyada anchagina pul xujaligi, bozorlar borligini va tashqi savdoning g'oyat darajada taraqqiy qilganligini aytib, Bobilning xo'jalik sohasidagi rivojini juda ham oshirib yuborgan edi. Konteno ham o'z asarlarida Bobil despotiyasining ijobiy ahamiyatini ana shunday oshirib yuborgan edi. Tyuro-Danjen, Bobil ijarachilarini Rim kolonlari bilan tenglashtirish mumkin, deb topdi. Volkov qadimgi Bobilda lenlik munosabatlarini topishga urindi.¹

Tarixchilarning bir guruhi gitlerchilar Germaniyasining Harbiy bosqinchilik siyosatini tarixiy jihatdan asoslashga intilib, qadimgi Mesopotamiyaning quldorlik tuzumi va despotik davlatini juda ham ideallashtirib tasvirladilar. Masalan. o'z broshyura va kitoblarida g'irt fashistlar ideologiyasini ifodalagan nemis «tarixchisi» Teger qadimgi Sharq davlatining ba'zi bir ijobiy tomonlarini haddan oshirib maqtaydi. Teger bu despotizmga, zamondan tashqari va abadiylashgan hodisa bor, deb biladi. Teger tarixiy faktlarni buzib va ularni o'taketgan darajada soxtalashtirib, eng qadimgi Shumer podsholarining qonxo'rlik va dahshatli bosqinchilik urushlarini «adolatli» urush deb tasvirlaydi. Bobil podshosi Hammurapining eramizdan avvalgi XVIII asr oxirlarida o'rnatgan davlat tuzumini Teger, xalqqa yaxshilik keltirgan davlat tuzumi, deb tasvirlaydi. Despotnng cheklanmagan hokimiyatini Teger, idora qilishning eng yaxshi usuli, deb hisoblaydi. Nemis «tarixchi»lariing qadimgi Mesopotamiyadagi quldorlik tuzumini ana shu xilda abadiy ideal qilib ko'rsatishga urinishlari hyech qanday ilmiy ahamiyatga ega emas, chunki bu urinishlar tarixiy faktlarni qasddan buzishga asoslangandir.

Hozirgi zamon Amerika burjua tarixchilari tarix sohasidagi tekshirishlarini reaksion ideologiyaga bo'ysundirib, Amerika Ko'shma Shtatlarini o'tmishdagi, shu jumladan qadimgi Sharq dunyosidagi «buyuk sivilizasiyalarning vorisi» silib

¹ Волков И.М. законы Вавилонского царя Хаммурапи. М-1941 80с

ko'rsatishga o'rinmokdalar. Shu bilan birga, ular Amerika Qo'shma Shtatlarining imperialistik ekspansiyasi uchun Yaqin Sharqning kanday siyosiy va strategik ahamiyatga ega ekanligini ta'kidlamokdalar. Shu sababdan ular qadimgi Sharq tarixi va madaniyatini ayniqsa zo'r berib soxtalashtirmokdalar.

Rus olimlari osurshunoslikka katta va qimmatli hissa qo'shdilar. Rus olimlari ichida birinchi marta qadimgi Mesopotamiya tarixini yirik tadkikotchi M. V. Nikolskiy tekshirdi, uning Mesopotamiya tarixiga oid bir qancha asarlari hozirgi vaqtgacha ham o'z ahamiyatini yo'kotmay keladi. Rossiya territoriyasida topilgan moddiy yodgorliklar va mixsimon xatlarnng tarixiy qimmatini juda yaxshi tushungan M. V. Nikolskiy A. A. Ivanov bilan birgalikda 1893 yildayoq Armanistonda Van madaniyati yodgorliklarini, asosan yozuvlarini to'plash va o'rganish yuzasidan katta ish qildi. Qadimgi Urartu mamlakati territoriyasida topilgan Van yozuvlari to'plamini bosib chiqara boshlashga imkon bergan bu ekspedisiyaning natijalari «Kavkaz arxeologiyasiga oid materiallar» degai asarda (V kism) nashr etilgan. M. V. Nikolskiy o'zining boshqa asarlarini Urartu tarixi va madaniyatini o'rganishga bag'ishlagan va Urartu tarixini birinchi bo'lib butun dunyo tarixi doirasiga kiritgan. Shu bilan birga, M. V. Nikolskiy babil-osuriya yodgorliklaridan rus to'plamlariga kirganlarini o'rganish va tasvirlash ustida ko'p ishlagan. M. V. Nikolskiy asarlari orasida uning «N. P. Lixachyov to'plamiga kiritilgan qadimgi Xaldeyaning xo'jalik xisobotlariga doyr hujjatlar» degan sarlavxa ostida bosilib chiqqan ajoyib asari ayniqsa katta qimmatga yega. M. V. Nikolskiy bu katta asarida Lixachyov to'plamidan olingan bir qancha eng qimmatli hujjatlarni juda yaxshi nashr qilgan, tarjima qilgan va ularga izohlar bergan. Lixachyov to'plamidan olingan bu eng qimmatli hujjatlar qadimgi Shumer va Akkadda yashagan xalqlarning ijtimoiy-iqtisodiy tuzumini ravshan qilib yoritib bergan. Osurshunoslikning o'sha vaqtdagi yuksak muvaffakiyatlari darajasida turgan, juda sinchiklab ishlangan avtografpk transkripsiya va yozuvlarning tarjimasi, bu boy materialni umumiyLashtirish yo'lidagi birinchi urinishdan iborat bo'lgan kirish maqolasi bu asarni tom ma'nosi blan klassik asarga aylantirgan.¹

Rus osurshunoslarining keyingi avlodi orasida akademik B. A. Turayev maktabidan chiqkan P. M. Volkovni shuningdek professor V. K. Shileykoni ko'rsatib

¹ Никольский Н.М. Вавилония. В. КН: Б.СЭ. изд Т-8 с 510

o'tish kerak I. M. Volkov Misrning Elefantin orolidagi yahudiy koloniyasidagi arameylarning (eramizdan avvalgi V asr) hujjatlarini va Bobil podshosi Hammurapining mashhur qonunlarini tarjima qilgan. Professor V. K. Shileyko osurshunoslikka katta hissa qo'shdi. V. Q Shileyko, M. V. Nikolskiyning ishini davom ettirib, rus to'plamlarida saqlanib qolgan mixsimon xatlarning turli tekstlari va tarjimarini nashr qilgan. V. Q Shileyko 1915 yilda «Shumer hokmlarining sayohat taassurotlari» degan kitobini bostirib chiqardi, bu kitobda Lixachyov to'plamidan olingan mixsimon xatlar tekstlarining bosilishi va tarjimasini hamda mufasal ravishda yozilgan kirish maqolasi zo'r qimmatga ega. V. K. Shileyko astrologiya, astronomiya, adabiyot va dinga oid bir qancha tekstlarni nashr etdi va tarjima qildi. V.K. Shileyko bu bilan rus kitobxonlarini birinchi marta Bobil adabiyotining mashhur asarlari bilan tanishtirdi.

Sobiq sovet olimlari qadimgi Mesopotamiya tarixini o'rganishga ancha katta hissa qo'shdilar. V. V. Struvening asarlari katta ahamiyatga ega bo'ldi. V. V. Struve manbalarni o'rganish natijasida eramizdan avvalgi III ming yillikda qadimgi Mesopotamiyada quldorlik munosabatlari bo'lganligini aniqladi. V. V. Struve Urning III dinastiyasi davriga oid bo'lgan va Ur podsholarining katta-katta xo'jaliklarida bevosita ishlab chiqaruvchilar mehnatining tashkil etilishi va ekspluatatsiya qilinishini tasvirlovchi xo'jalik xisobotlariga doir hujjatlarni ayniqsa mufassal suratda o'rganib chiqdi.¹ Akademik M. V. Nikolskiy Mesopotamiyadagi qadimgi davlatlarning ekonomikasida jamoalarning roli va jamoachilar mehnatining ahamiyatini, shuningdek qadimgi Sharq qulchiligining o'ziga xos xususiyatlarini o'rganishga bag'ishlangan maxsus asarlar yozdi.¹

Shu bilan birga, sovet olimlari sovet mo'zaylarida saqlanayotgan mixsimon xat tekstlarini nashr etish va o'rganish ishlarini davom ettirdilar. A. P. Riftin I Bobil dinastiyasi davriga oid hujjatlarning teksti va tarjimasini nashr qildi, bu hujjatlar qadimgi Bobil zamonasining huquq va ekonomikasini o'rganishda katta ahamiyatga ega. qadimgi Mesopotamiya xalqlarining madaniyatini o'rganishga ham katta ahamiyat berildi. V. V. Struve «Xo'jayinning qul bilan suhbatini» degan Bobil hujjatini tarjima qildi va unga izohlar berdi. N. D. Flittner bir qancha asarlarida Mesopotamiya

¹ Струве В.В. Наёмный труд и сельская община в южном Междуречье. Вестник древней истории. 1948 М2 13 -33

xalqlarining san'ati. moddiy madaniyati va dinini, jumladan dexqonchilnik e'tiqodlarini maxsus o'rgandi

1.4 Xronologiya

Qadimgi Mesopotamiyada muayyan bir eraning, ya'ni o'sha zamonlarda yil hisobining boshlanishini belgilaydigan ma'lum bir sananing bo'lmaganligi xronologiyani o'rganishda katta qiyinchiliklar tug'diradi. O'sha davrda yillarni mashhur voqyealarning nomi bilan ataganlar va yillarni shu voqyeadan boshlab birmuncha vaqtgacha sanab borganlar. Masalan, Eshnunnada topilgan yozuvlarda mujmal qilib: «Bobbar va Ka-Ibaum qurilgan yil» yoki «Amurru bo'ysundirilgan yil» deb sana ko'rsatilgan.

Hujjatlarda turli voqyealarning bir vaqtda bo'lganligini yoki har xil siyosiy arboblarning bir vaqtda yashaganligini aniqlashga imkon beradigan ko'rsatmalar xronologiyani belgilashga bir qadar yordam beradi. Masalan, Eshnunna va Marida topilgan hujjatlar Eshnunna podshosi Ibalpel, Mari podshosi Zimrilim, Bobil podshosi Hammurapi, Larsa podshosi Rimsin va Osuriya podshosi Shamshiadad I zamondosh bo'lganliklarini aniqlashga imkon beradi.

Al-Amarna arxividagi diplomatik hujjatlar Misr fir'avni Exnaton Mitanniy podshosi Tushratta bilan, Xett podshosi Shupiluliuma bilan, Bobil podshosi Burnaburiash va Osuriya podshosi Ashshuruballit bilan zamondosh bo'lganligini aniqlashga imkon beradi. Misr fir'avni Ramzes II ning Xett podshosi Xattushil III bilan tuzgan shartnomasi ham ana shunday ahamiyatga ega. Exnaton bilan Ramzes II podsholik qilgan vaqtlarini bilgandan keyin, qadimgi Mesopotamiya tarixiga doir yillarni aniqlash mumkin.

Xronologiyani belgilash uchun aniqroq ma'lumotlarni osur yozuvlaridan topsa bo'ladi. Biz bu yozuvlardan Osuriya podshosi Tukulti-Ninurta I Sinaxeribdan 600 yil ilgari podsholik qilganligini va Osuriya podshosi Ashshurbanipal eramizdan avvalgi 650 yilda Elamni o'ziga bo'ysundirib, bu yerda ma'buda Nananing xaykalini topganligini, bu haykalni esa 1635 yil ilgari Elam podshosi Kudurnaxundi Osuriyadan olib ketganligini bilamiz.

Ammo astronomik hodisalar to'g'risida gapirilgan tekstlarda voqyealarning bo'lgan vaqtlarini belgilash uchun hammadan ko'ra aniqroq ma'lumotlar bor. Bu

astronomik xodimlarning sanasini matematika vositasi bilan juda aniq belgilash mumkin. Ellin davrining astronomlari Bobildagi astronomik tekstlardan foydalannb, Bobil podshosi, Nabonasarning eramizdan avvalgi 747 yildan boshlab podsholik qilganligini aniqlaganlar. Yana, shu narsa ayniqsa katta ahamiyatga egaki, yillar osur eponimlar (amaldorlari)ning nomn bilan atalgan ro'yxatda eramizdan avvalgi 763 yil 15 iyunda bo'lib o'tgan quyosh tutilishi tilga olinadn. Bu fakt shu ro'yxatdagi eponimlardan har birining yilini qo'yib chiqishga va ro'yxatda nomi birinchi bo'lib turgan amaldorning eramizdan avvalgi 911 yilda hukmronlik qilganinn aniqlashga imkon beradi. Shunday qilib, osur xronologiyasi eramizdan avvalgi 911 yildan boshlab butunlay aniq qilib belgilanishi mumkin.

Ikkidaryo oralig'idagi barcha mamlakatlarning xronologiyasini aniqlamoq uchun ayrim yillarni va turli voqealarning bir vaqtda bo'lganligini belgilashdan tashqari, yana har bir davlatda Qaysi podshodan keyin qaysi podsho hukmronlik qilganligini va ulardan har birining necha yildan podsholik qilganligini ham mumkin qadar aniqroq belgilash kerak bo'ladi. Bunda podsholarning yozuvlari va birorta podshoning hukm surgan davrini ko'rsatadigan aloqa hujjatlari, podsho va amaldorlarning ro'yxatlari, shuningdek antik avtorlarning yozib qoldirgan asarlaridan olingan ma'lumotlar, nixoyat, Beros asarlaridan olingan parchalar birmuncha yordam beradi. Lenin shu narsani esdan chiqarmaslik kerakki, bu xronologiyada ko'rsatilgan yillarning ko'pchiligi va aynikma eng qadimgi davrga oid bo'lgan yillar hali taxminiydir.¹

¹ Кадимги дунё тарихи. Т-2009 71 –бет

II Bob. MESOPOTAMIYANING ENG QADIMGI DAVLATLARI (SHUMER VA AKKAD)

2.1 Mesopotamiyaning tabiiy sharoiti

Old Osiyodagi mamlakatlar orasida dehqonchilikni keng rivojlantirish uchun eng qulay bo'lgan mamlakat Dajla bilan Frot daryolari o'rtasida joylashgan bo'lib, uni qadimgi greklar Mesopotamiya (Ikkidaryo oralig'i) deb ataganlar. Bu mamlakat shimolda Armaniston tog'laridan boshlanib, janubda to Fors qo'ltig'igacha cho'zilgan. Bu mamlakat g'arbda Suriya-Mesopotamiya dashti bilan, Sharqda esa G'arbiy Eroy tog' kryajlari bilan chegaralangan. Mesopotamiyaning o'rta va janubiy qismi tekislik bo'lib. u vaqt-vaqti bilan toshib yerlarni o'g'itlovchi va sug'oruvchi Dajla va Frot daryolari keltirgan yotqiziqliq (allyuviy)lardan iborat. Dajla daryosi Van ko'lining janubidan, Armaniston tog'laridan boshlanadi. Frot esa Arzirumning Sharqida, dengiz yuzidan 2 ming metr balandlikdan boshlanadi. Dajla juda tez oqar daryo. Dajla Frot dan 750 km kalta, lekin Dajla Frotga nisbatan ikki baravar ortiq suv keltiradi, uzunligi 2600 km ga yetadigan Frot esa sekin oqadigan daryodir. Frot qirg'oqlari Dajlani qirg'oqlariga qaraganda pastroq. Shuning uchun Frot suvi toshganda Dajlaga nisbatan ancha katta territorini suv bosib ketadi va toshqini uzoqroqqa cho'ziladi, ya'ni martnning o'rtalaridan boshlanib sentyabrgacha davom etadi. Har ikkala daryoning o'zani besh ming yil ichida o'zgarib ketgan. Saqlanib qolgan yozuvlardan ma'lum bo'lishicha. Shumer va Akkadning qadimgi shaharlari, masalan, Sippar, Kish, Nippur, Shuruppak, Uruk va Larsa Frot daryosi bo'yida bo'lgan vaqtda esa shu shaharlarning vayronalari Frot daryosi o'zanidan Sharq tomondadir. Dajla ham o'zanini o'zgartgan. Uning oqimi shimoli-Sharq tomonga burilib borgan. Shunday qilib, bu ikkala daryo ilgari hozirgiga qaraganda bir-biriga yaqinroq bo'lgan. Sug'orish mumkin bo'lgan tekislik territoriyasi ham bir kadar kichik bo'lgan. Dajla bilan Frot mamlakatning asosiy sug'orish magistrali bo'lish bilan birga, bosh transport magistrali ham bo'lgan. Bu ikkala daryo Mesopotamiyani qo'shni mamlakatlar bilan, ya'ni qadimgi Armaniston (Urartu), Eron, Kichik Osiyo, Suriya bilan bog'lagan.

Armaniston tog'laridagi qorlar erishi natijasida Dajla va Frot daryolarida vaqt-vaqti bilan bo'lib turadigan toshqinlar sun'iy cyg'orishga asoslangan dehqonchilik

xo'jaligini rivojlantirishda ma'lum ahamiyatga ega bo'lgan. Ikkidaryo oralig'ining janubidagi Shumer va mamlakatning o'rta qismini egallagan Akkad iqlim jihatidan bir-biridan birmuncha farq qilgan. Shumerda boshqa joylarga qaraganda qish yumshokroq bo'lgani uchun xurmo daraxti yovvoyi holda o'sa olgan. Akkad esa, iqlim jihatidan qishda qor yog'adigan va xurmo daraxti yovvoyi holda o'smaydigan Osuriyaga yaqin.

Janubiy va O'rta Mesopotamiyaning tabiiy boyliklari uncha ko'p emas. Allyuvial tuprokdan bo'lgan bo'rsildoq va yopishqoq loy ibtidoiy kulolchilik uchun ajoyib xom ashyo bo'lgan. Qadimgi Mesopotamiya aholisi loyni asfalt bilan aralashtirib, juda qattiq material yasagan, bu material Ikkidaryo oralig'ining janubiy qismida kamdam-kam uchraydigan tosh o'rnida ishlatilgan. Mesopotamiyada metall bo'lmasligi ham harakterlidir, bu hol mahalliy aholini shimoliy va Sharqiy metallurgiya rayonlariga qaram qilib qo'ygan.

Ikkidaryo oralig'i o'simliklarga ham boy emas. Bu mamlakatning eng qadimgi aholisi donli usimliklarni, ya'ni arpa va bug'doyni mamlakat iqlimiga moslashtirib olgan. Ikkidaryo oralig'ining janubiy qismida yovvoyi holda o'sadigan xurmo daraxti va shakar qamishi mamlakatning xo'jalik xayotida katta ahamiyatga ega bo'lgan. Yog' chiqarish uchun ishlatiladigan sezam (kunjut), shuningdek shirin smola chiqadigan yulgum (tamarisk) mahalliy o'simliklardan bo'lsa kerak Mesopotamiya aholisiga yovvoyi va uy hayvonlarining turli zotlari ma'lum ekanligini eng qadimgi yozuv va suratlar ko'rsatib turibdi. Sharqiy tog'larda qo'y (muflon)lar va echkilar, janubning botqoqli changalzorlarida yovvoyi cho'chqalar-bo'lgan va ular eng qadimgi vaqtlardayoq qo'lga o'rgatilganyu Daryolarda baliq va qush ko'p bo'lgan. Shumerda ham, Akkadda ham turli-tuman uy kushlari mavjud bo'lgan.

Jirubiy va O'rta Mesopotamiyaning tabiiy sharoiti chor-achilik va dehqonchilikni rivojlantirish uchun kulay bo'lsa ham, ammo xo'jalik hayotini uyushtirishni va uzok vaqt qo'l mehnat qilishni talab qilgan.

Bobil Mesopotamiyaning qoq o'rtasida—Dajla va Frot daryolari bir-biriga yaqinlashib kelgan yerda joylashgan bo'lib, u Kichik Osiyo va Zakavkazyedan Fors qo'ltig'iga qarab va Suriya qirg'oqlaridan Eron yassi tog'ligiga karab ketgan muhim savdo yo'llari tutashgan yerda bo'lgan. Bobil qudratli bir davlat poytaxti, Old

Osiyoning eng katta, savdo, siyosiy va madaniy markaziga aylangan. Bobil deyarli ikki ming yil davomida o'zining bu ahamiyatini saqlab turgan. Bobilning qulay geografik holati uning shunday ahamiyatga ega bo'lishiga yordam bergan. Eramizdan avvalgi uch ming yillikning oxirlarida amoriylarning ko'pdan-ko'p ko'chmanchi semit qabilalari Mesopotamiyaga kirib, Akkadmamlakatidagi juda katta yerlarni bosib olganlar va shu yerda qudratli davlat barpo etib, Bobilni davlat markazi qilganlar. Taxminan xuddi o'sha vaqtda tog'li joylarda yashovchi elam qabilalari sharq tomondan Mesopotamiyaga bostirib kirganlar va Larsani o'zlarining asosiy tayanch punktlaridan biriga aylantirib, Shumerda mustahkam o'rnanib olganlar. Kelgin i istilochilar bosib olingan mamlakatni totuvlik yo'li bilan o'zaro bo'lishib ola omaganlar. Amoriylar bilan Elam qabilalari o'rtasida raqobat boshlanib, butun Mesopotamiyada ustun bo'lish va hokimlik qilish uchun muqarrar suratda vujudga kelgan kurash avj olib ketdi. Kurashda Bobil podsholigi g'olib chiqqan va bu podsholikda amoriylar dinastiyami (er. av. 1894-1595 yillar) mustahkamlanib olgan. Bobil-Amoriy podsholigi podsho Hammurapi davrida (er. av. 1792—1750 yillar) ayniqsa gullab-yashnagan. Hammurapi butun Ikkidaryo oralig'inn o'z qo'l ostida birlashtirib, yirik va kuchln davlat tuzgan. O'sha davrning tarixiga oid juda ko'p xujjatlar saqlanib qolganligi tufayli, biz u davr bilan yaxshi tanisha olamiz. Bu hujjatlar orasida juda keng qonunlar to'plami, podshoning mahalliy amaldorlar bilan olib borgan ma'muriy yozishmalari va, nihoyat, yaqinda topilgan muxim diplomatik hujjatlar aloxida o'rin tutadi.

Bu hujjatlarga ko'ra, Hammurapi, Larsada o'rnanib olgan elam hukmdorlari Frot daryosining g'arb tomonpdagi katta Mari davlatining hamda O'rta va Shimoliy Mesopotamiya shaharlarining podsholari yuritgan tashqi siyosat murakkab va bosh-oxiri yo'q siyosat bo'lgan. Butun Mesopotamiyani o'z hokimiyati ostiga birlashtirishni maqsad qilib olgan Hammurapi bular orasida eng aktiv tashqi siyosat olib borgan. Hammurapi shu maqsadga erishnshga intilib, O'zining harbiy kuchlaridan, shuningdeq diplomatiyaning turli vositalaridan keng suratda foydalangan. U Mari davlatining podshosi Zimrilim bilan harbiy ittifoq tuzib, o'z dushmanlarini birma-bir tor-mor keltirgan. Hammurapi o'z podsholiginig boshlarida Shumer shaharlari Isin, Uruk va Urni bosib olgan. So'ngra u ittifoqdoshi

Zimrilimning roziligi bilan O'rta Mesopotamiyada ham o'z hokimnyatini mustahkamlab olgan. Zimrilim Hammurapiga yozgan diplomatik maktublaridan birida quyidagi so'zlar bilan Hammurapiga Akkadda bemaol harakat qilishga rozilik bergan.¹

«Agar Eshnunna knyazlari seni tan olsalar, Eshnunna mamlakatining podshosi bo'lib, unda hukmronlik qil. Agarda ular seni tan olmasalar, o'zingdagini... o'tqazib qo'y, u ularga podsholik qilsin».²

Hammurapi o'zining eski raqibi Larsada mahkam o'rtnashib olgan Elam hokimi Rimsin bilan uzoq vaqt shiddatli kurash olib borgan. Hammurapi o'z podsholigining 31-yilida "xudo Anu va xudo Enlil yordami bilan Emutbal mamlakatini va podsho Rimsinni tor-mor keltirgan» hamda Rimsinni qochib ketishga majbur qilib, Shumerni o'z podsholigiga qo'shib olgan, Hammurapi Mari podshosining harbiy yordamiga tayanib, Shimoliy Mesopotamiyaga kirishga va Dajla atroflarida hamda Frotning o'rta oqimida mustahkamlanib olishga dadil urinib ko'rgan. Shimoliy Mesopotamiya ham Bobil uchun, ham Mari uchun iqtisodiy va strategik jihatdan katta ahamiyatga ega bo'lgan. Shimoliy Mesopotamiyadan g'och va ruda, shuningdek turli xil boshqa mollar olib ketilgan. Sharqqa, shimolga, shuningdek Karxemish orqali g'arbga, Suriya shaharlari hamda O'rta dengiz portlariga boradigan muhim savdo yo'llari shu Shimoliy Mesopotamiyadan boshlangan. Nihoyat, Shimoliy Mesopotamiyada hukmronlik qilish Bobilning shimoliy chegaralarini tog' qabilalarining doimiy hujumlaridan saqlashga imkon tug'dirgan. Shuning uchun ham Mari podshosi Zimrilim va Bobil podshosi Hammurapi shimoliy oblastlarda o'z ta'sirlarini mustahkamlashga bab-baravar harakat qilishgan. Mari shaxridagi arxivdan topilgan yozuvlarda Zimrilim o'ziga itoat qiluvchi knyazlar va hokimlar orqali Shimoliy Mesopotamiyada bo'layotgan voqealarni diqqat bilan kuzatib borganligi, o'zini bu mamlakatning hokimi deb hisoblaganligi va hatto «Yuqori mamlakatlar podshosi» deb ataganligi bayon qilingan. Biroq Zimrilim bu mamlakatda o'z ta'sirini mustahkamlash uchun qo'shinga tayanib ish ko'rishga va ba'zan qo'rol ishlatishga majbur bo'lgan. Zimrilim ham, Hammurapi ham Subartu qabilalari

¹ Авдиев В.И. Қадимги шарқ тарихи. Т -1964 89 бет

² Кўрсатилган асар

ustiga o'z qo'shinlarini yuborib, Mesopotamiyaning shimolida ba'zi hollarda birgalikda harbiy harakat qilgan bo'lsalar kerak. Chunonchi, Zimrilim Subartuga qarshi kurashgan vaqtida uning ixtiyoriga Hammurapi .3 ming askardan iborat yordamchi otryad yuborgan. Biroq Zimrilim bu yordamni kam deb hisoblab, Bobil podshosiga murojaat qilib xat yozgan va bu xatda yordamga ko'proq qo'shin yuborishni, «Yuqori mamlakat» bilan urush olib borish uchun shunday ko'p qo'shin zarurligini bayon qilgan. Lekin Yuqori Mesopotamiyada ana shunday birgalikda qilingan harbiy harakatlar Bobilning yanada kuchayishiga olib borgan xolos. Hammurapi, Shimoliy Mesopotamiyada mustaxkamlanib olib, yaqindagina o'zining ittifoqchisi bo'lgan Mari davlatiga qarshi otlangan. Hammurapi podsholigining 33-va 35-yillarida ikki marta shiddatli hujum qilganidan keyin, bir zamonlar qudratli va boy bo'lgan bu podsholikning poytaxtini bosib olgan va vayron qilgan. Taxminan ayni shu vaqtda Hammurapi Eshnunna oblastndagi Diala daryosi bo'ylaridagi yerlarda ham mustahkam o'rtnashib olgan. Bundan tashqari, Hammurapi Bobil bilan bir oz aloqada bo'lgan Mari podshosi orqali Suriya savdo shaharlari bilan ikdisodiy aloqa bog'lashga bir necha marta harakat qilgan. Maridagi arxivdan topilgan diplomatik hujjatlarda Bobil bilan Shimoliy Suriyadagi Ugarit davlati o'rtasida diplomatik munosabatlar bo'lganligi ko'rsatiladi. Masalan, o'sha davrga oid bir hujjatda bunday deyiladi:

«Zimrilimga (Mari podshosiga — V. A.) aytgin: Sening birodaring Hammurapi bunday deydi: «Ugaritning odami menga hozirgina quyidagilarni yozib yubordi: «Menga Zimrilimning rezidensiyasini ko'rsat. Men bu rezidensiyani ko'rmoqchiman». Hozir senga ana shu chopar bilan uning o'g'lini yuboryapman».

Podsho Hammurapining bazalt ustunga arxaik mixxat bilan yozilgan mashhur qonunlar to'plami Bobil podsholigining xo'jalik va ijtimoiy tuzumini o'rganish uchun eng muhim manbadir. Ustunning yuqorigi qismida taxtda o'tirgan quyosh xudosi Shamash oldida tantanali suratda turgan podsho Hammurapi tasvirlangan.¹ Ustunning boshqa hamma joyi 247 moddadan iborat qonunlar to'plamining mixxatda yozilgan teksti bilan band qilingan. 35 modda yozilgan beshta ustunchadagi tekst qirib tashlangan, buni shu ustunchalarni o'lja qilib Suzaga olib

¹ Авдиев В.И. Қадимги шарқ тарихи. Т -1964 91 бет

ketgan Elam istilochisi qilgan bo'lsa kerak. Bu kodeksning boshqa nusxalari ham topilganligi tufayli, uning qirib tashlangan tekstini ham tiklash mumkin. Qadimgi Bobildagi mirzalar va sudyalarning boshkalarini o'qitish maksadida, shuningdek sud ishlarida kodeksning ana shu nusxalaridan foydalanganlar.

Hammurabi kodeksi Babil qonunchiligiga kuchli ta'sir ko'rsatgan qadimgi Shumer qonunlarini yanada rivojlantirgan va ularni ma'lum bir tartibga solgan. Hammurabi qonunlar to'plami Shumer sud hukmlari to'plamiga qaraganda ancha sistemali tuzilgan va unda konun chiqaruvchining mazmun jihatidan bir-biriga yaqin bo'lgan moddalarni bir gruppaga qilib birlashtirishga intilganligi ochiq ko'rinib turadi. Lekin shunday bo'lsa ham, ushbu qonunlar to'plamini chin ma'noda kodeks deb bo'lmaydi, bu ko'proq ayrim yuridik hukmlar (janjalli ishlar haqidagi huquqlar) to'plamidir. Mazkur to'plam uch qismga bo'lingan: 1. Kirish, 2. Qonunlar, 3. Xulosa. Kirish qismida kodeksni chiqarishdan maqsad mamlakatda haqqoniyat o'rnatishdir, deb ko'rsatilgan. Buning ketidan podsho o'z unvonlarini birma-bir ko'rsatib o'tgan, o'zining ulug'vorligini ko'klarga ko'tarib maqtagan, o'zining mamlakatga qilgan yaxshiliklarini aytgan. To'plamning o'rta, asosiy qismida jinoiy ishlarga oid huquqda sud ishlarini yuritishga, xususiy mulk huquqining buzilishiga (o'g'irlik va talash), jangchilar huquqiga oid moddalar birma-bir ko'rsatib o'tilgan. Ayrim moddalarda ko'chirilmas mulkka egalik qilish huquqlari to'g'risida, savdo-sotiq ishlari, garovga, qo'yish va olish huquqi, oilaviy huquq to'g'risida, o'z-o'zini mayib qilish, me'morlar va kemasozlar ishi to'g'risida, ish kuchini yollash va qulchilik to'g'risida gapirilgan. To'plamning xulosa qismida podsho xalq oldida qilgan xizmatlarini birma-bir sanab o'tib, o'zidan keyin uning qonunlarini ado etuvchi podsholarga oq fотиha bergan va bu qonunlarga rioya qilmovchi yoki uni bekor qilishga jur'at etadiganlarni qahr bilan la'natlagan.¹

2.2 Qulchilikning rivojlanishi

Xufiya (yashirincha) qullikning eng qadimgi turlari tarkib topgan patriarxal oila hali o'sha vaqtda katta ahamiyatga ega bo'lgan hamda shunga bog'liq ravishda zulm qilish va hukmronlikning eng qadimgi formalari vujudga kelgan. Patriarxal oilada ota va er doimo xo'jayin hisoblangan va oilaning barcha a'zolari bu xo'jainiga so'zsiz

¹ Кўрсатилган асар

itoat qilishga majbur bo'lgan. Ota va er o'z oilasining barcha a'zolariga nisbatan tug'ma kuldor huquqiga ega bo'lgan. Ko'p xotin olish odati xotinni xor qilib qo'ygan.¹

Hammurapi kodeksining 129-moddasiga ko'ra, er «xo'jayin» (bel ashshatim) bo'lgan, ya'ni xotin erining izmida bo'lgan, er xotinni olishda qaynataga ma'lum xaq to'lab sotib olgan va xotin erining cho'risi hisoblangan. Yirik tarixchi hukuqshunoslardan biri Koshaker qadimgi Bobil hukuqlarini o'rganishga oid bir qancha maxsus asarlar yozgan, u o'zining asarlarida qadimgi Sharqdagi oila tartiblarini ideallashtirgan reaksiyon tarixchilarni qattiq tanqid qilgan. U qadimgi Bobilda erga tekkan xotinning hak-xukuqi «to'la huquqli kishilarga nisbatan past bo'lgan, bu narsa ba'zi hollarda xotinga, hukuq jixatidan olganda, buyum sifatida qarash imkoniyatini bergan» deb ko'rsatish mumkin, deydi. Hammurapi kodeksiga ko'ra, er-xotin vafodorligi buzilgan takdirda; erga beriladigan jazo bilan xotinga beriladigan jazo farq qilgan. Agar er vafodorlikni buzsa, xotin o'z sepini olib, otasining uyiga qaytib ketishi mumkin bo'lgan, ammo xotin vafodorlikni buzib quysa, unday xotinni suvga tashlash lozim bo'lgan. Nikoh ahdida agar xotin o'z eridan yuz o'g'irsa, er xotiniga qullik tamg'asini bosib, uni sotib yuborish huquqiga ega bo'lganligi ko'rsatilgan. Xotinning mol-mulk xukuqi cheklanib ko'yilgan. Beva qolgan xotin o'z mol-mulkiga o'zi batamom xo'jayinlik qila olmagan. Qonun chiqaruvchi har qanday yo'llar bilan oila mulklarini mumkin qadar bir oila ko'lida saqlab qolishga tirishgan. Hammurapi kodeksining bir qancha moddalarida ko'rsatilishicha, beva qolgan xotin o'z mulklarini ajratib olishga haqsiz bo'lgan, chunki bu mulklar bolalar merosi hisoblangan va merosning katta ulushi katta o'g'ilga tekkan. Bobil zamoniga oid ko'pdan-ko'p hujjatlarda bolalarni qul qilib sotib yuborish hodisalari bo'lganligi ko'rsatiladi. Ba'zi hujjatlarga ko'ra, oiladagi bunday qullarning muayyan narxlari bo'lgan. Bir qancha yozuvlarda ota va erining o'z oilasiga nisbatan cheksiz huquqqa ega bo'lganligi va o'z oilasidagi a'zolarining hammasini ham qul qilib sotishi Mumkinligi yakqol ko'rsatilgan. Masalan, bir hujjatda Shamash-Dayyan degan bir odam butun oila a'zolarini hamda o'ziga qarashli erkak va ayol qullarni qarzi badaliga sotib yuborganligi aytiladi. Shamash-Dayyan faqat shu yo'l

¹ Кўрсатилган асар 94 бет

bilangina o'zining shaxsiy erkinligini saqlab qolgan. Bola otaning mulki hisoblangan. Hammurapi kodeksining 14-moddasiga ko'ra, erkin kishining yosh bolasini ug'irlab ketgan kishi qatl qilingan.

Qadimgi Sharqda bo'lgan va Bobil tarixiga oid hujjatlarda aks etgan oila qulchiligining harakterli xususiyatlari ana shulardir. Bu qulchilik ancha keyingi vaqtdagi qulchilik formalaridan ibtidoiyligi va uncha rivojlanmaganligi bilan farq qilgan. Engels Sharqdagi shu oila qulchiligini antik dunyodagi rivojlangan qulchilik bilan taqqoslab ko'rib, bunday deb yozgan:

«Sharqdagi oila qulchiligi boshqa gap; bu yerda qulchilik to'g'ridan-to'g'ri ishlab chiqarish negizini tashkil qilmaydi, balki sezilmasdan oilaga qo'shilib ketib, egri yo'l bilan bu oilaning tarkibiy qismini tashkil qiladi».

Qarzdorlik orqasida asoratga tushish budavrdagi qulchilikning boshka manbai bo'lgan. Dehqonlar yerga, uruqqa va ko'shga, hunarmandlar xom ashyoga. mayda savdogarlar esa tovarga muxtoj bo'lgan. Bu kishilar odatda 20% dan to 33% gacha prosent to'lash sharti bilan qarz olganlar. G'alla qarz olinganda odatda bir yilda 30%. pul qarz olinganda esa 20% to'langan Ayrim kishilar ham, katta boylik to'plagan ibodatxonalar ham qarz berganlar. Qarzdorlar olgan qarzlarini va bu qarzlar prosentinn o'z vaktida to'lash uchun maxsus garov qo'yib (ba'zan ko'chmas mulk masalan, uylarini qo'yib) garantiya berishlari yoki uchinchi bir odamni kafil qilishlari lozim bo'lgan. Kafillik bilan berilgan qarz o'z vaqtida kaytarib berilmasa, mas'uliyat kafil bo'lgan odam ustiga tushgan. Ba'zi hujjatlarda ko'rsatilishicha, kafil bo'lgan kishi qarzini to'lashga qurbi yetmagan qarzdorni asoratga solishga va hatto uning oilasi hamda mol-mulkini ham tortib olishga hakli bo'lgan. Bularning hammasi qarzi-ni to'lashga qurbi yetmagan qarzdorlarning tez orada xonavayron bo'lib asoratga tushib qolishiga sabab bo'lgan. So'ngi mol-mulkidan ajrab, qul bo'lib qolish oldida turgan kambag'allar bilan qudratli va jipslashgan quldorlar sinfini tashkil etuvchi boylar o'rtasida snnfiy ziddiyatlar keskinlashgan. Kuchayib borayotgan sinfiy kurashni bir oz yumshatish maqsadida Hammurapi qarzdorlik orqasida asoratga tushib qoluvchi kishining shaxsi va mol-mulkini qarz beruvchining haddan ortik siquvi va jabridan birmuncha saqlashga uringan. Masalan, 117-moddada aytilishicha, agar qarzdor o'z qarzi badaliga xotinini, o'g'lini yoki qizini bergan bo'lsa, qarz beruvchi

kishi bo'larni o'z uyida saqlab, ular mehnatidan 3 yildan ortiq foydalana olmagan, 4-yilga o'tganda qarz bergan odam ularni ozod qilishga majbur bo'lgan. Shunday qilib, qarz bergan kishi qarzdorlarning qarindoshlarini o'zoq vaqt qullikda saqlab qola olmagan va, xatto qarzdor qarzini to'lay olmagan takdirda ham, uining qarindoshlarini chinakam qulga aylantira olmagan.

Shu bilan birga, Hammurapi kodeksi qarzdorning qarz badaliga garovga berilgan o'g'lini qarz beruvchining o'zboshimchaligidan va shafqatsiz muomalasidan ko'riqlagan. Kodeksning 116-moddasiga ko'ra, agar erkin kishining qarzi badaliga qarz beruvchi tomonidan garovga olingan va ishlab berib, otasining qarzini uzishga majbur bo'lgan o'sha qarz beruvchining uyida uning kaltagi dastidan yoki yomon karashi natijasida o'lib qolgunday bo'lsa, u holda, qarz berganning o'g'li ham o'ldirilishi lozim bo'lgan. Shunday qilib, qarz bergan kishi qonunni buzib, qarz olgan kishiga qanday zarar yetkazgan bo'lsa, o'zi ham shunday zarar ko'rishi lozim bo'lgan.

Nihoyat, qonunlar to'plamida, qarz bergan kishining o'zboshimchalik bilan qarzdorning donxonasi yoki omboridan qarz badaliga g'allasinn tortib olishini man qilgan. Hammurapi olomon qilish va rasm-odatning qadimgi formalarini bitirish niyatida xuquksiz kambag'allarga kun bermovchi boylarning o'zboshimchaligini cheklashga uringan bo'lsa kerak. Shu sababdan bu kodeks har kanday bay-muomalalarda yuridik hujjatlar tuzilishni, chigal va murakkab ishlarning har qanakasi ham sudda muhokama kilinishini talab etgan va hatto sud prosedurasi formalarini aniqlab bergan. Hammurapi qonunlarining progressivligi ham ana shundadir.

Hammurapi kodeksi qarz beruvchi boy va qudratli kishilarning o'zboshimchaligini cheklashga uringan bo'lsa ham, 115-modda bilan qonunga ma'lum sharh kiritgan. Bu modda qarzdorni majburiy ishlatish huquqiga ega bo'lgan qarz beruvchi kishiga ba'zi jihatdan erkin harakat qilish imkoniyatini bergan. Mazkur moddada: «Agarda garov qilib olingan kishi garovga olgan kishining uyida o'z ajali bilan o'lsa, buning uchun da'vo qilib bo'lmaydi» deyilgan. Shuni aslo unutmaslik kerakki, Hammurapi kodeksi har xolda quldorlar manfaatpni ximoya qilgan.

Kambag'allarning xonavayron qilinishi, qarzdorlik orqasida asoratga tushish va urushlar natijasida mamlakatda qullar soni ko'payib borgan. O'sha zamonga oid konunlar va rasmiy hujjatlarga qaraganda, Bobilda qullar mexnatidan keng foydalanilgan. Ma'lumki, qulning narxi arzon bo'lgan. Qulning narxi yollab olingan xo'qiz narxiga, ya'nn 168,3 *gr* kumushga teng bo'lgan. Qullarga buyum deb qaraganlar, ularni sotish, ayirbosh qilish, tortik qilish, meros qilib koldirish mumkin bo'lgan. Bordi-yu, qul mayib qilib ko'yilsa, yoki o'ldirilsa, aybdor buning uchun qul egasiga qulning baxosini to'lashi lozim bo'lgan. Hammurapi kodeksining bir qancha moddalari faqat bir maqsadni—quldorlarning manfaatini himoya qilishni nazarda tutgan. «O'ziga tegishli bo'lmagan qulni darvozadan chiqarib yuborgan» yoki «qochqin qulni uyida yashirgan» kishini qonun va hokimiyat o'lim jazosiga hukm qilgan. Agar qul qochib ketsa, quldor davlat hokimiyatiga qochgan qulni tutish va qaytarib berishni so'rab, hamma vaqt murojaat qila olgan. Birovning qulini yollab ishlatgan odam qulidan qul qochib ketgan taqdirda u zararni qul egasiga to'lashga majbur bo'lgan. Qulni garovga qo'ygan vaqtda ham garovga olgan odam xuddi shunday javobgar bo'lgan. Qullar mexnatining shafqatsiz ekspluatasiya qilinishi tufayli qullarning o'z xo'jayinlaridan qochib ketish hollari ko'p bo'lgan. Bobil qonunlarining bir qancha moddalari va o'sha davrdagi ayrim rasm-odatlar bu holni tasdiklaydi, Qul sotiladigan bo'lsa, uning sotqin emasligini aniqlash uchun uch kunlik muddat belilangan. O'z xo'jayiniga bo'ysunmagan qulga beriladigan jazoni belgilovchi 282-modda ayniqsa xarakterlidir. Bu moddaga ko'ra, o'jar qulning qulog'i kesilgan. Hammurapi kodeksida ko'rsatilishicha, Bobilda qullarga tamg'a bosish rasm bo'lgan, lekin tamg'ani o'zgartirgan odam qonunga ko'ra qattiq jazolangan.

Biroq Bobilda quldorlik ishlab chiqarish usuli to'la ravishda rivojlana olmagan. Jamoa formalarining qoldiklari, shuningdek urug'chilik tuzumining sarqitlari uzoq vaqt davomida saqlanib kelgan, bu hol kadingi Mesopotamiyadagi ijtimoiy munosabatlarning hamda davlatning nisbatan turg'unligiga va sekin rivojlanishiga ko'p jihatdan sabab bo'lgan. Hammurapi kodeksinnng ayrim moddalari bu qadimgi qoldiklarning Bobilda saqlanib kelganligini ko'rsatadi. Masalan, 23-moddaga ko'ra, bordi-yu boskinchi-o'g'ri qo'lga tushmasa, yetkazilgan zararning hammasini shu bosqinchi-o'g'ri yashaydigan «joy» to'lashi lozim bo'lgan. Demak «joy»da yoki,

jamoada uning barcha a'zolari uchun umumiy kafillik joriy bo'lgan. O'sha davrga oid rasmiy hujjatlarda ayrim yerlar oila ixtiyorida bo'lganligi, bundan oldin esa, bu yerlar jamoa yer fondidan ajratib berilganligi ko'rsatilgan.

2.3 Yer egaligi

Bobilda sekin-asta bo'linib ketayotgan jamoa yer egaligi bilan bir qatorda yirik podsho yer egaligi ham bo'lgan. Podsho mamlakatdagi yerning hammasini o'ziga karashli mulk deb bilgan va jamoalarning yeridan qirqib, istagan amaldoriga tortiq qilib berishga o'zini hakli deb hisoblagan. Urushlar natijasida davlat qo'l ostidagi yer fondi ko'paygan. Masalan, Hammurabi Larsa ustidan g'alaba ko'zonganidan keyin, butun Larsa oblastini Bobil podsholigiga qo'shib olgan. Larsa xokimining yerlarini esa, podsho o'z yer fondiga qo'shib olib bu yerlarni idora qilish uchun maxsus amaldor belgilagan. Podshoning vorissiz qolgan yerlarga egalik qilish hukuqi ham uning yer fondining ko'payishiga imkon bergan. O'sha zamonga oid hujjatlardan birida bu hakda juda aniq kilib bunday deyilgan: «Bu odam vafot etdi. Uning yerlarini Shamashxasirga (Larsada podsho yerlariga boshchilik qiluvchi kishiga — V. A.) topshiring. Podshoga qarashli juda katta yer-mulklardan unda asosan qullarning ishlatuvchi podsho saroy boshqarmasi bilan birga, bu yerlarning bir qismini ijaraga olib. Ijaradorlar ham foydalangan.¹ Ijarador, ijara hujjati, ijaraga olingan yer, ijara xaqi kabi tushunchalarni bildiruvchi maxsus terminlarning mavjudligi yerni ijaraga berish tartibining keng tarqalganligini ko'rsatadi. Ijaraga berish va olish ishi ma'lum bir formada tuziladigan ijara shartnomasida qayd etilgan. Bu shartnomada ijara obyekti, ijara haqining miqdori yoki hosil ulushi, hak to'lash joyi va muddati, guvohlarning nomlari va shartnoma tuzilgan vaqt ko'rsatilgan. Yer ijaraga berilganda aloxida marosimlar o'tkazilgan, bu marosimlar ijaraga berilgan yer uchastkasi ijaraga olgan kishining yeriga aylanganligi va uning qo'lga o'tgan bo'lsa ham, lekin tagi bilan uning mulki hisoblanmasligini ko'rsatgan. Shunday qilib, davlat hokimiyati ijaraga olingan yerni ijaraga olgan kishi o'zining qilib olmasligi uchun zarur choralar ko'rgan. Ijara haqi yoki o'sha zamonning natural harakterdagi xo'jaligiga mos keladigan til bilan aytganda, «ijara g'allasi»

¹ Дяконов И.М Государственный строй древнейшего Шумера. —«Вестник древней истории» 1952 N 2 с17

odatda natura bilan olingan, shu bilan birga, ijaraga olgan kishining ijara haqi sifatida to'lashi lozim bo'lgan mahsulotlar miqdori ayrim hollarda aniq ko'rsatilgan. Ba'zan shartnomada ijara haqi tarzida to'lanishi lozim bo'lgan donning umumiy miqdori ko'rsatilgan, ba'zan ma'lum miqdor yer maydoni hisobidan, ba'zan esa «qo'shni yerlarga qarab», yoki «o'ng va so'l tarafdagi yerlarga qarab», ya'ni ijara uchun shu joyda ramm bo'lgan haq miqdoriga qarab ijara haqi olingan. Ayrim hollarda ijara haqi hosil ulushidan olingan va shunga ko'ra yig'im-terim vaqtida to'langan. Don ekiladigan yer uchastkasi ijaraga olinsa, ijara haqi hosilning uchdan bir qismi hisobidan to'langan, bog' ijaraga olinsa, hosilning uchdan ikki qismi hisobidan ijara haqi to'langan. Ijaraga olingan yerdan qancha ko'p hosil olinsa, shunga qarab ijara haqi ham oshib borgan, deb o'ylash mumkin. Lekin ijaraga olingan bog'dan kam hosil olinsa ham, bari bir, ijara haqi pasaytirilmagan. Bu hol Hammurapi kodekesining 65-moddasidan ko'rinib turibdi. u moddaga muvofiq, olinadigan daromad yerni yomon ishlash natijasida kamayib ketsa, ijara haqi qo'shni bog'ning daromadiga qarab hisoblangan,¹ ya'ni bog'ning daromadi kamayib ketsa ham, ijara haqi shu joydagi xuddi shunday uchastkaning o'rtacha daromadi hisobidan olingan. Shunday qilib, bog' egasi qat'iy ijara haqi bilan ta'min etilgan, uning bog'ni ijaraga berishdan keladigan daromadi ko'paysa ko'paygan-u, ammo hech bir vaqt kamaymagan. Quriq yer ijaraga olinsa, bunda ijara haki juda oz tulan, shunda ham ikkinchi yili tulan. Ba'zan bir necha kishi sherik bo'lishib ijaraga yer olgan. bu yerni birlikda ishlab, ijara haki va boshqa harajatlarni to'lagandan keyin qolgan xosilni bab-baravar bo'lishib olgan. Ana shunday kollektiv bo'lib ijaraga yer olishning mavjudligi jamoachilarning xonavayron bo'lib borayotganligini, kambaliar soni ortib borayotganligini va keskin ijtimoiy tabaqalanishni ko'rsatadi. Shu munosabat bilan subarenda, ya'ni ijaraxo'rlik ham paydo bo'lgan, bunda yirik ijarador katta-katta yerlarni ijaraga olib, ularni mayda qismlarga bo'lgan va keyin bu yerlarni boshqa kishilarga ijaraga bergan.¹

Bularning hammasi katta-katta boyliklarning asta-sekin bir to'da boylar qo'lida to'planishiga olib kelgan. Bu boylar faqat podalar va qullargagina egalik qilib qolmay, balki katta-katta yerlarga ham egalik qilgan; ular bu yerlarni podshodan in'om

¹ Авдиев В.И. Қадимги шарқ тарихи. Т -1964 104 бет

tariqasida olgan va, ba'zi huj-jatlarda ko'rsatilishicha, sotib olib to'plaganlar. Masalan, Larsadan topilgan 26 hujjatning hammasida ham bush yotgan yerlarni sotib oluvchi sifatida bir xil kishilarning nomi tilga olingan. Muomalada yangi termin, xususiy yer egaligini bildiruvchi «ota uyi» («bit abia») termini paydo bo'lgan, «ota uyi» otadan meros bo'lib qolgan yer demakdir.

Davlat hukmron quldorlar sinfi manfaatlarini himoya qilib, yerga bo'lgan xususiy mulkchilikni turli yo'llar bilan qo'riqlashga intilgan. Podsho amaldori biron yer egasining yerini qonunga xilof ravishda tortib olsa, yer egasi amaldorning bunday haddan oshganligi haqida podshoga shikoyat qila olgan. O'sha zamonga oid ayrim hujjatlarda ko'rsatilishicha, podsho bunday hollarda o'z amaldoriga quyidagicha ko'rsatma bergan: «Axir, birovning abadiy mulki bo'lgan yerni kim bosib ola oladi? Bu ishni tekshirib ko'r. So'ngra, agar bu yer uning ota uyiga qarashli bo'lsa, yerni egasiga qaytarib ber». Shunday Qilib, «ota uyi»ni qonunga xilof ravishda tortib olish u zamonda jinoyat hisoblangan. Davlat hokimiyati katta yer egalalarining mulkiy manfaatlarini ayniqsa zo'r berib himoya qilgan.

Hammurapi kodekesining ayrim moddalarida maxsus jangchi-kolonistlar bo'lganligi tilga olinadi. Ular podshodan chek yerlar olganlar va buning evaziga harbiy xizmat o'tashlari lozim bo'lgan. Bunday jangchilar podshoning birinchi chaqirig'i bilanoq urushga o'tlanishga majbur bo'lgan. Agar jangchilar o'zlarining shu burchlarini bajarmasalar, o'lim jazosiga hukm qilinib, qo'llaridagi chek yerlar tortib olingan. Lekin, ikkinchi tomondan, bunday jangchilarning alohida hukuqlari ham bo'lgan. Asirga tushib qolgan jangchi to'lov berib qaytarib olingan. asirlikda yotgan jangchining chek yeri va mol-mulki esa uning o'g'liga berilgan. Asirda yotgan jangchining mol-mulkini bosib olish jinoyat hisoblangan va bosib olgan kishi kattiq jazolangan. Jangchining mulki tortib olinsa, jangchiga zarar yetkazilma, uni yollab ishga berilsa, sudda u «kuchli» odamga qul kilib berilsa, podsho taqdim etgan yer uning qo'lidan tortib olinsa, buning uchun o'lim jazosi berilgan. Jangchi-kolonistga podsho tortiq qilgan qoramol, yer, bog' va uyni sotish mumkin bo'lmagan. Davlat hokimiyati jangchi-kolonistlarning mulkiy manfaatlarini shu tariqa himoya qilib, harbiy xizmat o'tashga majbur bo'lgan bu jangchi-kolonistlardan iborat ko'pgina mayda dexqon-yer egalarniing gruppasini vujudga keltirgan. To'xtovsiz urushlar olib

borilishi va bu urushlar natijasida odamlar rezervining ancha kamayib borishi ana shunday gruppaga vujudga keltirishni zarur qilib qo'ygan.

Bobilning kassitlar tomonidan istilo qilinishi

Hammurapi vafot qilgandan keyin Bobil podsholigi asta-sekin tushkunlikka tusha boshlagan. Hammurapi vorislari dastlabki vaqtlarda uning ishlarini davom ettirishga uringanlar. Chunonchi, Hammurapining o'g'li Samsunluna (er. av. 1749—1712 yillar) ikki yangi kanal qazishni buyurgan va ibodatxonalarga katta-katta hadyalar berib turgan. Ammo tez orada siyosat maydonida yangi xavflar paydo bo'la boshlagan. Rimsin Bobilning zaiflashib qolganligidan foydalanib, Mesopotamiyaga bostirib kirgan va Shumerning bir qismini bosib olgan. Rimsinning bu istilo yili «Opis ibodatxonasida ma'buda Ninmax podsho Rimsinni butun mamlakatga podsho qilib qo'ygan yil» deb nom olgan. Lekin Bobil podshosi hali ancha qudratli bo'lgan. Samsunluna Rimsinni mag'lub qilgan va Rimsin o'z saroyida yong'in vaqtida halok bo'lgan. Samsunluna Ur va Uruk devorlarini buzib tashlagan hamda Shumeri yana qayta o'z hokimiyatiga bo'ysundirgan. Lekin bu vaqtlarda Bobilga qarshi yangi dushmanlar bosh ko'tarib chiqqan. Isin podshosi Ylumanlu Shumerning janubiy bir chekkasida mustaqil yangi podsholik tuzgan va Bobilga qarshi qattiq kurash olib borib. Shumer podsholarining dengiz bo'yi yangi dinastiyasiga asos solgan. Sharq tomondan Bobilga karshi tog' qabilalari bo'lgan kassitlar bostirib kela boshlagan.¹

Dajla daryosining Sharq tomonidagi tog'larda yashovchi kassitlar ilgari ham Mesopotamiyaga kirganlar, lekin u vaqtda kelgindilar, ijaradorlar va yollanuvchilar sifatida kirganlar. Taxminan 1750 yilda kassitlarning qo'shinlari o'z yo'lboshchisi Gandash rahbarligi ostida Mesopotamiyaga bostirib kirgan va ular bu yerda Kassnt davlatini tuzganlar. Hammurapi vorislari, I Bobil dinastiyasi podsholari Mesopotamiya ustidan o'z hokimiyatini o'rnatish uchun 155 yil davomida kassitlarga qarshi kurash olib borganlar. Mesopotamiya o'sha vaqtda bir qancha mayda knyazliklarga bo'linib ketgan. Kassitlar bostirib kirgandan keyin zaiflashib qolgan va ayrim qismlarga bo'linib ketgan bu mamlakat chet el istilochilarining diqqatini torta boshlagan. I Bobil dinastiyasining so'nggi podshosi Samsuditana

¹ Авдиев В.И. Қадимги шарқ тарихи. Т -1964 110 бет

podsholigi davrida (er. av. 1625—1595 yillar) Bobilga xetlar bostirib kirgan. Lekin kassitlar tobora ko'proq muvaffaqiyat qzonib borgan. Ular Bobilni olishga, goh u tomonning, goh bu tomonning qo'li baland kelib, qattiq kurash olib borilgandan keyin, hatto dengiz bo'yi dinastiyasi podsholarini yengib, Dengiz bo'yi mamlakatini ham o'zlariga bo'ysundirishga muvaffaq bo'lgan. Kassitlar podshosi Agum II (er. av. 1593—1574 yillar) o'zini kassitlar va Akkad podshosi va hatto «dunyodagi to'rt iqlim podshosi» deb atagan. Madaniyatda bobilliklardan ancha past turgan kassitlar Bobil madaniyatini qabul qilganlar va kassit podsholari Bobil podsholarining istilochilik siyosatini tiklashga ham urinib ko'rganlar. Kassit podsholari butun Shumerni tamomila o'zlariga bo'ysundirib, dengiz bo'yi dinastiyasining hukmronligini tugatganlar. Kassitlar Bobil podsholigining qudratini bir oz bo'lsa ham, tiklay olmagan bo'lsalar ham, har holda kassit podshosi Agum II davrida Bobil birmuncha kuchaygan. Chunonchi, Agum II Yuqori Frot mamlakatlariga kushin tortib borgan va Mesopotamiya dashtining bir qismini o'ziga bo'ysundirgan. Agum II o'z yozuvlarida Xana mamlakatidan Marduk va Sarpanit haykallarini keltirganligini, bu haykallarni zarbob kiyimlar, qimmatbaho narsalar va dabdabali tojlar bilan bezatganligini hamda bu haykallarni Bobildagi Esagil ibodatxonasida qaytadan o'rnatganligini faxr bilan gapirgan. Agum II o'zini «Kashshu va Akkad podshosi, keng Bobil mamlakatining podshosi, ko'p odamlarni Ashnunnakka ko'chirgan (podsho). Padan va Alman podshosi, Guti mamlakatining podshosi» deb atagan. Bu, kassitlar podshosining hokimiyati Dajla daryosining sharq tomonidagi oblastlarga ham yoyilganligini ko'rsatadi.

Kassitlar davrida Bobilning ijtimoiy tuzumi qanday bo'lganligini saqlanib qolgan rasmiy hujjatlar va ayniqsa qudurular, ya'ni marza toshlaridagi yozuvlarga qarab bir qadar tiklash mumkin. Bu toshlarda podshoning ma'lum shaxslarga yer uchastkalari tortiq qilib berganligi haqidagi farmonlarining teksti uyib yozilgan. Bu yozuvlarga qaraganda, o'sha vaqtlarda qishlok jamoasi va jamoa yer egaligi hali mustahkam bo'lgan. «Bitu» deb atalgan jamoa tepasida Jamoa boshlig'i «bel biti» turgan, uning maslahatchisi, nazoratchisi va afsunkor kohini bo'lgan. «Qo'shnilar» deb atalgan qishloq jamoa a'zolari, shuningdek bu jamoa sostaviga kirgan yotkelgindilar podsho hamda jamoa mansabdorlari foydasiga turli xil majburiyatlar

o'tashlari lozim bo'lgan. Lekin bu davrda qadimgi. jamoa yer egaligi asta-sekin buzila borgan, bu jamoa yer egaligini xususiy, asosan aristokratik yer egaligi siqib chiqara boshlagan. Chunonchi, kassitlar dinastiyasining podsholari amaldorlariga, katta mansabdorlariga va yaqin kishilariga ko'p yerlarni in'om qilganlar. Podshoning marza toshlar — «qudurru»ga o'yib yozilgan farmonlarining tekstlarida ko'rsatilishicha, podsho tomonidan in'om qilingan bu yerlar ko'pincha qishloq jamoasining kollektiv yerlaridan kesib berilgan. Odatda podshoning bu farmonlarida, ma'lum bir yer uchastkasi ma'lum bir shaxsga abadiy mulk qilib berilishi, shu bilan birga, qishloq jamoasi boshliqlarining va azolarining hozir ham, kelgusida ham bu yerlarni sud orqali da'vo qilishi va hadya olgan yer egasidan jamoa foydasiga biron majburiyat o'tashni talab qilishi man etilishi yozilgan. Podsho farmonida, «qudurru»ni buzganlar xudolarning la'nati va qattiq g'azabiga duchor bo'ladi. deb ko'rqitilgan. Bundan tashqari, kassit podsholari qishloq jamoalarinnng qanchadan-qancha yerlarini bosib olib va bu yerlarni o'z mansabdorlariga, amaldorlariga va harbiy boshliqlarga bo'lib berib, bu aristokratik yer egaligini kuchaytirish va mustahkamlash uchun bir qancha choralar ham ko'rganlar. Qudurruga bitilgan yozuvlarda ba'zan podsho in'om qilgan yer egasi podsho foydasiga qilinadigan barcha majburiyatlardan. natural soliqlar hamda majburiy ishlardan ozod qilinganligi ko'rsatilgan. Podshoning farmoyishlariga binoan yangi yer egalari oladigan maxsus imtiyozlar ana shunday qilib rasmiylashtirilgan. Ibodatxona yerlari ham podsholik soliqlari va majburiyatlaridan ozod qilingan. Masalan, Agum II zamoniga oid hujjatlardan birida ko'rsatilishicha, Marduk ibodatxonasining yerlari har qanday majburiyatlardan ozod bo'lgan. Quldorlikning yanada rivojlanishi ham aristokratiyaning kuchayishiga yordam bergan. Qullar va cho'rilar sotilganligini ko'rsatadigan hujjatlar ham saqlanib qolgan, bu hujatlarga ko'ra, qullarning, jumladan elamlklarning bahosi 10 shekel oltin, cho'rilarining bahosi esa 7 shekel oltin bo'lgan. Hujjatlardan birida «Karduniash mamlakatidan bo'lgan bolaning» sotilganlignhi aytilgan (kassitlar Bobilni Karduiiash deb ataganlar). Bu esa kassitlarning o'zlari orasida ham qulchilik tarqalganliginn ko'rsatadi.

Bobilda 500 yildan ortik xukm surgan kassitlar qadimgi Shumer-Bobil madaniyatini, dinini, yozuvini va, hatto bo'ysundirilgan xalqning tilini ham ko'p

jihatdan o'zlashtirib olganlar. Chunonchi, kassit podsholari o'zlarinn "Mardukning arzandasi" deb ataganlar. Ular Bobil va Shumer kohinlarini kuchaytirish uchun bir qancha choralar ko'rganlar, xudo Marduk — «mamlakatlar hukmdori»ga bo'lgan e'tiqodni mustahkamlab, Nippur ibodatxonasiga g'alla, moy, xurmo, un va qoramollardan o'lpon to'plashnn topshirganlar. Zamonlar o'tishi bilan kassit podsholari borgan sari ko'proq bobil madaniyati ta'siriga kirib borganlar. Masalan, podsho Karaindash o'zini «qudratli podsho, Bobil podshosi, Shumer va Akkad podshosi, Kashshu (kassitdar — V L.) podshosi, Karduniash (Bobil polsholigi— V. L.) podshosi» deb atagan. Lekin Karaindashning vorislari qadimgi Bobil madaniyati ta'siriga tamomila berilib ketib, «Kashshu» nomini o'z unvonlaridan tushirib qoldirganlar.

Kassitlarning Bobilda hokimlik qilishi natijasida Bobil siyosiy jihatdangina emas, balki madaniy jihatdan ham tushkunlikka uchragan. San'at ayniqsa pasayib ketgan, unda qadimgi namunalarga taqlid qilish va jonsiz sxematizm hukm surgan. Madaniyat sohasida erishilgan bir ozgina muvaffaqiyatlar, asosan, harbiy ishlarda otdan foydalanishdan, yangi va osonroq vaqt hisobi joriy qilishdan, ya'ni mamlakatni idora qilib turgan podshoning hukmronlik yiliga qarab hisob qilinadigan yil xisobini joriy qilishdan iborat bo'lgan. Bobilning bu tushkunligi eramizdan avvalgi VII asrgacha, ya'ni qudratli Yangi Bobil podsholigi tashkil topgungacha davom etgan.

III Bob. QADIMGI SHUMERNING IJTIMOIIY VA DAVLAT TUZUMINI O`RGANISHDA HAMMURAPI QONUNLARINING AHAMIYATI

3.1 Bobil davlatining ijtimoiy tuzumi

Mesopatamiyaning janubiy qismi (Ikkidaryo oralig'i)da, ya'ni Fors qo'ltig'ining Dajla va Frot daryolari oralig'ida qadimgi tosh asri (paleolit) zamonlarida hamma yerlar botqoqlikdan iborat bo'lib, bu yerda odamlarning hayot kechirishi mumkin bo'lmagan. Lekin yangi tosh (neolit) davrining oxiriga kelib, tevarak-atrofdagi qirlarning aholisi, ehtimol, zo'r ehtiyoj (oziq-ovqat zahiralarning tugab qotishi va dushmanlarning siquvi) sababli asta-sekin Ikkidaryo oralig'iga ko'chib kelib joylasha boshlagan. Bular Shafqdan ko'chib kelgan shumeriylar hamda g'arbdan va shimoli-g'arbdan kirib kelgan semit (somiylar) qabilalari edi (ko'chib keluvchi semitlarning birinchi to'ldiruvchisi bundan keyin Akkad shahriga ko'ra akkadliklar nomini olgan).

Eng qadimgi odamlarning asosiy mashg'uloti ovchilik va ayniqsa baliq ovlash edi. Shuningdek, motigadan foydalanib qilinadigan dehqonchilik ham kichik ko'lamlarda rivojlana borgan. Ayni zamonda chorvachilik rivojlangan. Eshaklarni, keyinchalik ho'kizlarni so'qa (plug)ga qo'shishni o'rganishgan, shuningdek, ulardan yanchish uchun foydalanishgan. Motiga bilan dehqonchilik qilishdan so'qa bilan dehqonchilik qilishga o'tilishi ishlab chiqaruvchi kuchlarning rivojlanishida ancha katta siljishga olib kelgan. Ko'proq ekin maydonlarini o'zlashtirishga imkoniyat tug'ilgan. Ammo buning uchun botqoqliklarni quritish, dalalarni Dajla va Frot toshqinlaridan himoya qilish, sun'iy hovuzlarda suv zahiralarni (qurg'oqchilik vaqti uchun) saqlash kabi ishlarni amalga oshirish talab qilingan. Bunda o'z navbatida kanallar qazish, to'g'onlar qurish, quyosh harorati quritgan baland uchastkalarda esa quduqlar kovlash zarur bo'lgan. Keyinchalik dalalarni sug'orish usullari tobora takomillashgan.¹

Dajla va Frot daryolari vodiysi ko'pgina avlodlarning mehnati tufayli misli ko'rilmagan ko'p hosil beradigan serhosil mamlakatga aylangan. Bu yerda qishloq xo'jaligi va u bilan bog'liq holda hunarmandchilikning rivojlana borishi aholining tez o'sishiga olib kelgan. Katta qishloqlar paydo bo'lgan, ulardan ba'zilari kattalashib, devorlar bilan o'ralgan shaharlarga aylangan. Shu tariqa, miloddan avvalgi IV ming yillikning oxiri - P ming yillikning boshlarida birinchi shahar-davlatlar vujudga kela

¹ Мухаммедов Х. Хорижий мамлакатлар давлати ва ҳуқуқи тарихи Т -2005 62 бет

boshlagan. Bu yerlar dehqonlarning doimiy yashash joylariga, qishloq xo'jalik mahsulotlari bilan chorva mahsulotlari ayirboshlanadigan markazlarga aylanib qolgan edi. Qishloq xo'jaligi va hunarmandchilik ishlab chiqarishining o'sishi Ikkidaryo oralig'i shaharlarining tobora mustahkamlanishiga, aholisining ko'payib borishiga yordamlashgan. Miloddan avvalgi III ming yillikning ikkinchi choragida Uruq, Kish, Ur, Lagash kabi shahar-davlatlarning aholisi bir necha ming kishiga yetgan edi. Bu yerda ijtimoiy farqlar aniq sezilib qolgan, katta-katta yer uchastkalariga egalik qiluvchi urug' aristokratiyasi ajralib chiqqan, patriarxal oila jamiyatning asosiy yacheykasiga aylangan va bunda ota xotini va bplalari ustidan hokimlikni egallagan hamda oilaviy mulkni boshqaruvchi bo'lib qolgan. Ayrim katta oilalar sug'orish ishlari tobora rivojlanib, dehqonchilik texnikasi murakkablashgan sari yerlarni o'zlashtirish va daryo suvlarini jilovlash uchun zarar bo'lgan murakkab ishlarni endi uddalay olmay qolishgan. Oilalar qarindoshlik aloqalariga qaramay birlashadilar. Yer cheklarga taqsimlanadi va umumiy majburiy ishlar (to'g'onlar qurish, kanallar qazish kabi ishlar) birgalikda olib boriladi.¹

Ibtidoiy jamoadan qishloq jamoasiga o'tmishning ana shu bosqichida endi odamning odam tomonidan ekspluatatsiya qilishi paydo bo'ladi. Qabilalar o'rtasidagi to'qnashuvlar vaqtida qo'lga tushirilgan asirlar qullarga aylantirila boshlangan. Eng og'ir ishlarda qullar mehnatidan foydalanilgan. Qullarni kanallar qazishga, g'ishtdan imoratlar qurishga majbur etilgan, cho'rilar esa qo'l tegirmon toshlari bilan don yanchishlari kerak bo'lgan.

Miloddan avvalgi III ming yillikda ibodatxonalarning yerlarini jamoa yerlaridan ajralib chiqishi hisobiga podsho-cherkov xo'jaligi ham tashkil topgan. Jamoachi-dehqonlar ehdilikda ilgarigidek ibodatxonalarning yerlarini ishlashda ishtirok etmaganlar, balki ibodatxona xazinasiga renta solig'i to'laganlar. Ibodatxonalarning yerlari turli toifadagi qaram kishilar, qullar tomonidan ishlangan. Biroq, bu jamoachilarni jamoat ishlaridan, yo'llar, sug'orish inshootlari va boshqalar qurishdan ozod qilmagan. Shaharlarda boshqaruvchilik vazifalarining murakkablashuvi bilan bir qatorda yerlarni, ibodatxona xo'jaligini, marosimlarni, jamoat ishlarini hisobga olish bilan shug'ullanuvchi shaxslardan tashkil topgan ma'muriy apparat o'sgan. Jamoa

¹ Ko'rsatilgan asar 63 bet

boshqaruvi organlaridan o'sib chiqqan bu apparat endi yangi ijtimoiy vazifalarni bajara boshlagan. U boshqa qishloq jamoalariga nisbatan xilma-xil boshqaruvchilik vazifalarini amalga oshiruvchi shahar-davlatlar apparati bo'lib qolgan.

Ikkidaryo oralig'iga kelib joylashgan turli qabilalar guruhlarini batamom qo'shib ketgan, lekin ularning asosiy qismlarining nomlari saqlanib qolgan. Bular janubda Shumer, shimolda Akkad edi. Shumer sivilizatsiyasining birinchi markazi Uruq bo'lgan. Akkad-semitlarning shaharlari ichida eng qadimiysi Akkad bo'lgan. Uruq aholisi, masalan, osmon xudosi An (akkadcha Anu)ga itoat etganlar. Ushbu xudoga bag'ishlangan ibodatxona esa faqat ma'muriy markaz bo'lib qolmay, hunarmandchilik, savdo markazi, xavfsizlik uchun zarur bo'lgan qo'rg'on ham edi.

Ikkidaryo oralig'ining ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy rivojlanishiga uning atrofidagi yarim ko'chmanchi va ko'chmanchi kishilarning, boshqa madaniyatli qabilalarning yaqin bo'lishi ham ta'sir etgan. Qo'shni qabilalarning doimiy bostirib kirishi va qochib o'tishi Ikkidaryo oralig'i shahar-davlatlarining siyosiy ahamiyatini oshirgan, shuningdek, ularning yashashini ta'minlagan.

Ikkidaryo oralig'ining eng kuchli shahar-davlatlari o'rtasida butun mamlakat (yoki loqal uning katta qismi) ustidan siyosiy hukmronlik qilish uchun qayta-qayta urushlar boshlanib ketgan.

Miloddan avvalgi XXVIII-XXVII asrlarda Kish shahar-davlati yuksalib, uning hukmdori birinchi bo'lib lugal ("katta odam", "xo'jayin") degan unvonni olgan. Biroq Uruq hokimi Gilgamish (keyin afsonaviy qahramonga aylangan) miloddan avvalgi XXVII asrda Kish armiyasini yengib, Lagash, Nippur va boshqa shahar-davlatlarni bo'ysundirgan.¹

Miloddan avvalgi XXV asrda siyosiy hukmronlik Uruq, XXV-XIV asrlar oralig'ida esa Lagashga o'tgan. Mamlakatning Lagash qo'li ostida birlashtirilishi, bir tomondan xo'jalikning rivojlanishiga yordam bergan, davlatning markazlashuviga sabab bo'lgan bo'lsa, ikkinchi tomondan tinimsiz urushlar va og'ir soliqlar aholining noroziligini kuchaytirgan. Natijada Lagashda davlat to'ntarishi bo'lib, hokimiyat tepasiga Uruqning keladi (2318-2312 yillar). U Lagashda olti yil podsholik qilib, ba'zi

¹ Мухаммедов Х. Хорижий мамлакатлар давлати ва ҳукуки тарихи Т -2005 64 бет

islohotlar o'tkazib, kambag'allar ahvolini yaxshilashga, ularga ba'zi yengilliklar berishga, soliq va yig' imlar miqdorini kamaytirishga harakat qilgan.

Miloddan avvalgi XXIV asr oxirida Lagash zaiflashib, Umma shahar-davlati kuchaygan va butun Shumer ustidan hukmronlik qila boshlagan. Uning hokimi Lugal-zaggisi Lagash, Ur, Uruq, Larsa, Adab, Nippur shahar-davlatlarni o'ziga itoat ettirib, Shumer podsholigini tashkil etgan. Ammo Shumer podsholigining mustaqilligi uzoqqa cho'zilmagan va tez orada semitlarning Akkad davlati tomonidan mag'lubiyatga uchragan. Akkad davlatining asoschisi o'z davrining yirik siyosiy arbobi Sargon I (2316-2261 yillar) edi. Sargon (haqiqiy podsho degani) dastlab Akkadda o'z hokimiyatini mustahkamlab olgach, yanada kuchli qo'shin tuzib, Kishni bosib olgan. O'zini "Kish podshosi" va "Akkad podshosi" deb e'lon qilgan. Sargon I tez orada butun Shumemi o'ziga qaratib, Elamga qo'shin tortib, uning bir qancha shaharlarini bosib olgan. Fors qo'ltig'ida ham o'z hokimiyatini mustahkamlagan. Sargon I Elam, butun Mesopatamiya va Old Osiyoni o'z ichiga olgan g'oyat katta harbiy davlat barpo etib, o'zini "tort iqlim podshosi" deb e'lon qilgan. Bu janubi-g'arbiy Osiyodagi eng yirik dastlabki markazlashgan akkad-shumer "quldorlik davlati" edi. Shimoliy va Janubiy Ikkidaryo oralig'ining Sargon hokimiyati ostida birlashtirilishi mamlakatning har ikkala qismidagi quldor a'yonlarga foydali bo'lgan. Katta harbiy kuchga ega bo'lgan markazlashtirilgan istibdodning xalq ommasini tiyib turishni tashkil etishi osonroq bo'lgan. Ikkinchi tomondan, bepoyon davlat doirasida iqtisodiyotda katta siljishlar ro'y bergan, vaholanki, kichik davlatlarda bunday siljishlar bo'lishi qiyin edi. Azim daryolarning toshqinlarini tartibga soluvchi sug'orish ishlari butun mamlakat ko'lamida olib boriladigan bo'lib qolgan, bu tadbir hosilning osha borishiga imkon bergan. Yagona o'lchovlar va tosh-tarozi tizimi yaratilgan, buning natijasida davlat ichida savdo-sotiq aloqalari kuchaygan.

Akkad davlati qariyb 120 yil yashagan va miloddan avvalgi taxminan 2200 yilda Sharq tomondan kelgan urushqoq tog'liq gutiylar hujumi natijasida tor-mor qilingan. Lekin tez orada bosqinchi gutiylarga qarshi kurash boshlanib, bu kurashga Ur va Uruq shaharlari boshchilik qilgan. Miloddan avvalgi 2108 yilda gutiylar haydab chiqarilgan. Ikkidaryo oralig'i yana, bu safar Urning III sulolasi hokimiyati qo'l ostida birlashtirilgan, mazkur sulola miloddan avvalgi III ming yillik oxiriga qadar

mamlakatni idora qilgan. Uning vakillari o'zlarini Shumer va Akkad podsholari deb - hatto "dunyoning tort iqlim podsholari" deb atashganki, bu narsa butun dunyoda hukmronlik qilishga da'vogar bo'lishidan dalolat beradi. Ba'zida ular hatto xudolar deb ataladilar. Uning III sulolasi hukmdorlari o'z davlatini yaxshi tashkil etilgan muntazam armiya yordamida idora qilganlar, podsholik sudlari tashkil etilgan, dastlabki qonunnomalar (Ur-Nammu Qonun-npmasi)ni qabul qilganlar va hokazo. Lekin bu nisbatan markazlashgan davlat ham shahar-davlatlarni asosan harbiy kuch bilan birlashtirib turganligi va uning ichida o'zaro urushlar bo'lib turganligi sababli, xuddi Akkad davlati singari, uzoq yashamagan. Miloddan avvalgi XXI asrning eng oxirida, deyarli ayni bir vaqtda bostirib kirgan dushmanlar - g'arbdan amoriy qabilalari va Sharqdan elam qabilalari hujumi natijasida Shumer-Akkad podsholigi parchalanib ketgan.

Ikkidaryo oralag'ida Urning III sulolasi qulagandan keyin ikki yuz yildan ortiq siyosiy tarqoqlik va o'zaro urushlar bo'lib turgan. Bu vaqtda amoriylar Larsa, bin, Mari, Ashshur, Eshkunna va Bobil kabi mustaqil davlatlarning hokimlari bo'lib olganlar. Mesopatamiyada hukmron bo'lish uchun ular bir-birlari bilan qonli urushlar olib borganlar. Bu urushlarda Bobil g'olib chiqib, amoriylar sulolasiga asos solingan. Qadimgi Bobil podsholigi 300 yil (miloddan avvalgi 1894-1595 yillar) hukm surib, Ikki-daryo oralig' i tarixida chuqur iz qoldirgan. Bobil podsholigining ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy ravnaq topgan vaqti podsho Xammurapi davriga (miloddan avvalgi 1792-1750 yillar) to'g'ri keladi. Xammurapi tomonidan asos solingan va Ikki-daryo oralig'ining katta qismini o'z tarkibiga olgan Bobil davlati juda katta bo'lgan, lekin mustahkam bo'lmagan. Xammurapi o'lganidan song Bobil qo'shnilari qator mag'lubiyatlarga uchragan. Miloddan avvalgi 1595 yilda Qadimgi Bobil podsholigi xettlar va kassitlar tomonidan tugatilgan. Miloddan avvalgi II ming yillik o'rtalarida Bobilda kassitlar sulolasi qaror topgan (miloddan avvalgi 1518-1204 yillar).

Bobilning yangidan yuksalishi miloddan avvalgi VII-VI asrlarga to'g'ri keladi. Miloddan avvalgi 626 yildan 539 yilgacha Yangi Bobil podsholigi hukm surib, bu vaqtda, ayniqsa, Navuxodonosor II (miloddan avvalgi 605-562 yillar) podsholigi davrida juda qudratli davlatga aylangan edi. Bu davrda yirik yer egaligi va quldorlik

munosabatlari ravnaq topgan. Hunarmandchilik va savdo tez rivojlangan, ulkan ibodatxonalar, mudofaa va sug'orish inshootlari qurilgan. Podsho hokimiyatining tayanchi kohinlar bo'lgan.

Yangi Bobilning ravnaqi uzoqqa cho'zilmagan. Podsho Navuxodonosor II vafotidan keyin ruhoniylar bilan harbiylar o'rtasida kuchli to'qnashuvlardan so'ng taxtga o'tirgan ruhoniylar vakili Nabonid (miloddan avvalgi 556-539 yillar) podsholigi davrida mamlakatda fitna va qo'zg'olonlar ayj olib, Yangi Bobil podsholigi ancha kuchsizlangan. Natijada eroniylar shohi Kayxusrav Bobilni bosib olgan va butun Mesopatamiyani o'ziga qaratgan. Shu bilan Mesopatamiyadagi Yangi Bobil podsholigi tugab, butun janubi-g'arbiy Osiyoda Eron podsholarining hukmronligi boshlangan. Bobil miloddan avvalgi VI-IV asrlarda eroniylarga, IV asrning 30-yillaridan boshlab yunon-makedoniyaliklarga, so'ng salavkiylarga tobe bo'lib qolgan.¹

Qadimgi Shumerning ijtimoiy va davlat tuzumi ibtidoiy jamoa tuzumining qoldiqlari saqlanib qolganligi bilan xarakterlanadi. Sun'iy sug'orish inshootlari barpo etish bilan bog'liq bo'lgan qishloq xo'jaligi yuritishning xususiyatlari bu yerda hududiy jamoalarning uzoq yashashiga sharoit yaratgan.

Shumerning ijtimoiy hayotida kohinlar juda katta rol o'ynaganlar. Ular jamiyatning oliy tabaqasi hisoblangan. Ibodatxonalar qishloq xo'jaligini boshqarish markazlari bo'lgan. Dasdab ibodatxonalarning o'z yeri bo'lmagan, har bir qishloq ularga yer uchastkalari ajratgan. Bunday yerlarda jamoachi-dehqonlar ishlab, yig'ilgan hosilni ibodatxonaga berganlar. Asta-sekin ibodatxonalar bu yerlarai o'zlariniki qilib olib, ularda mustaqil xo'jalik yurita boshlaganlar.

Shumerda yerni olish-sotishga juda barvaqt ruxsat etilgan, bu esa ibodatxonalar yerlari ko'payishining asosi bo'lib qolgan. Yerlarning bir qismi arenda (ijara)ga berilgan. Ibodatxonalarning yerlarida yersiz dehqonlarning yollanma mehnatidan keng foydalanilgan. Ibodatxonalar kanallar qazishni tashkil etganlar, soliqlar yig'ganlar, qo'shni shahar va qishloqlar hayotini idora etganlar.

Shumer aholisining yarmidan ko'pini urug' jamoachilari tashkil etgan. Jamoa yerlari tobora talanib, sotilib va ayrim kishilar qo'lidagi xususiy mulkka aylanib borgan.

¹ Мухаммедов Х. Хорижий мамлакатлар давлати ва ҳуқуқи тарихи Т -2005 66 бет

Shumerda qullar ham bo'lgan. Masalan, eng qadimgi Shumer hujjatlarida (miloddan avvalgi qariyb uch ming yil oldin) qullar tilga olinadi. Ammo ular hali juda oz bo'lgan, erkin odamlar esa ishlab chiqaruvchilarning asosiy ko'pchiligini tashkil etgan. Qullarining ko'pincha xudolarga atab qurbon qilinganligi ularning mehnatiga qanday kam ahamiyat berilganligini ko'rsatadi. Albatta, keyinchalik bu odatga amal qilinmagan, chunki endi ish kuchini bunday o'rinsiz yo'qotishga yo'l qo'yilmaydigan bo'lgan.

Qullar asosan yo urushlarda asir olinganlardan, yo chet ellardan sotib olinganlardan iborat edi. Ibodatxonalarga (ya'ni jamoalarga) va xususiy shaxslarga qarashli Qullar bo'lib, ular bir-biridan farq qilgan. Lekin jamoaga yoki xususiy xo'jayinlarga ishlab beradigan qullar eng boshdayoq huquqsiz bo'lishgan. Shumeriylar ularni xo'jayinlar oldida bosh eguvchilar deb atashgan.

Lekin qishloq jamoalarining erkin a'zolari orasida ham (ilgarigi urug' jamoalaridan farq qilib) tenglik bo'lmagan. Jamoa bilan aloqasini yo'qotgan jamoachilar kliyent (mijoz) huquqiy layoqatiga ega bo'lganlar va shaxsan erkin bo'lib, ibodatxonalarga va xususiy shaxslarga iqtisodiy qaramlikka tushganlar.

Shumer yagona davlat emas edi. Uning hududida bir necha o'nlab mustaqil shaharlar va viloyatlar bo'lgan. Ularning ichida eng taniqlilari Eridu, Ur, Lagash, Umma, Uraq, Kish shaharlari hisoblangan.

Shaharlar va viloyatlar tepasida "ensi" ("patesi") degan unvonga ega bo'lgan hukmdorlar turgan. Hukmdorning hokimiyati ayni bir shahar doirasidan tashqari chiqqan hollarda, hukmdorga lugal (podsho) unvoni berilgan. Hukmdorlarning (patesilarning) funksiyalari bir xil bo'lgan. Ular asosan jamoat qurilishi va sug'orish inshootlarini, ibodatxona xo'jaligini boshqarganlar, jamoa marosimlariga boshchilik qilganlar, qo'shinga yo'l boshchilik qilganlar, oqsoqollar kengashi va xalq majlisiga raislik qilganlar.

Oqsoqollar kengashi va xalq majlisi hukmdorni saylaganlar, unga muhim ishlar bo'yicha tavsiyalar berganlar, uning faoliyati ustidan umumiy nazorat qilib turganlar, sud ishlarini amalga oshirganlar va jamoa mulkini boshqarib turganlar. Shunday qilib, bular hukmdor hokimiyatini cheklab turadigan organlar bo'lgan.

Mesopatamiya jamiyatida iqtisodning ko'p ukkladli xarakteri, sinflarning tashkil topish jarayoni nihoyasiga yetmay qolganligi, asosan podsho-cherkov xo'jaligida rivojlangan va jamoa ishlab chiqarishiga jiddiy ta'sir etmagan tovar-pul munosabatlarining ancha barvaqt va nisbatan yuqori darajada rivojlanganligi - bularning hammasi ushbu jamiyatning ijtimoiy tuzumini ajratib turadigan belgilari bo'lgan.

Bobilning butun aholisi, avvalo, boshqa Mesopatamiya davlatlariniki singari qonun bilan muhofaza qilinadigan erkin kishilarga hamda moldek va mulk deb hisoblangan, tamomila xo'jayin ihtiyoorida bo'lgan qullarga bo'lingan.

Qullar va quldorlar o'rtasidagi farqlar Mesopatamiya davlatlarining qonunlarida ham o'zining aniq ifodasini topgan. Eng birinchi qonunchilik manbalari (masalan, Ur-Nammu qonunlari) egasidan qochib ketgan qulni "xo'jayini"ga qaytarganlik uchun mukofot belgilagan. Ayniqsa, Bobilda (XQ) qullar to'g'risida juda ko'p gapiriladi. Lekin shuni alohida ta'kidlash joizki, qonunlarda qullar to'g'risida qanchalik ko'p gapirilmasin, ular jamiyat moddiy boyliklarining asosiy ishlab chiqaruvchilari bo'lmagan. Qullar bevosita ishlab chiqaruvchilarning faqat bir qismini tashkil etgan, xolos. Qullar bilan bir qatorda aholining ekspluatatsiya qilinadigan boshqa ishlab chiqarish vositalaridan mahrum etilgan va to'la erkin bo'lmagan shaxslar ham bo'lgan.

Qullar ("vardum") ijtimoiy qatlamning eng quyi qismini tashkil etgan. Bobilda asosan harbiy asirlar, shuningdek, qulga aylantirilganlar va erkinligini yo'qotgan huquqsiz ozod kishilar (masalan, jinoyatchilar va qarzini to'lay olmaganlar) qullar bo'lib qolgan. Qullar qonun bo'yicha xo'jayinning barcha mulkining bir qismi-ashyolar sifatida ko'rilgan. Qullarga nisbatan mulk huquqi oilada avloddan-avlodga meros bo'lib o'tgan. Qullarni sotganlar, qarzga berganlar.¹

Xammurapi qonunlarida qullar quldorlarning xususiy mulki sifatida qattiq himoya qilingan. Unga nisbatan har qanday tajovuz uchun og'ir jazo o'rnatilgan. Shu o'rinda XQdan ba'zi misollarai keltirib o'tamiz. "Agar birov saroyning shahar darvozasidan saroy qulini yoki cho'risini, shuningdek, mushkenuning quli yoki cho'risini olib chiqsa o'linga mahkum etiladi" (15-modda); "Agar birov o'z uyida

¹ Кадимги шарқ тарихи. Т-1964 99 бет
Sikl ¹ -8,4 gram

saroyga yoki mushkenuga tegishli qochoq qul yoki cho'rini yashirsa, uyga qamab qo'ysa, uy egasi o'limga mahkum etiladi" (16-modda); "Agar birov qochoq qulni yoki cho'rini tutib olsa va uni xo'jayiniga qaytarsa, qulning xo'jayini unga 2 siql kumush bergan" (17-modda); "Agar tutib olingan qul o'z xo'jayini kimligini aytmasa, u saroyga keltirilib, tanasi tekshirilgan va so'ngra xo'jayiniga qaytarilishi lozim bo'lgan" (18-modda); "Agar qochoq qulni ushlab olgan shaxs uni uyida saqlab tursayu, buni shu paytda qul egasi topib olsa, bunday holda qulni uyida ushlab turgan shaxs o'limga mahkum etilgan" (19-modda); "Agar qul uni ushlab olgan odamning qo'lidan qochib ketsa, bu odam qutaing xo'jayini oldida xudoni o'rta qo'yib qasam ichishi lozim bo'lgan va javobgarlikdan ozod etilgan" (20-modda); "Agar sartarosh xo'jayinning ruxsatisiz qulning qulchilik belgisini qirib tashlasa, sartaroshning barmoqlari kesilgan" (226-modda); "Agar birov boshqa odamga tegishli qulni sartaroshga olib kelib o'z qulim deb, aldab quldagi belgini qirdirib tashlatsa, bunday odam o'limga mahkum etilgan; sartarosh esa "men buni qasddan qilmadim" deb qasam ichib, javobgarlikdan ozod bo'lishi murnkin bo'lgan" (227-modda).

Xammurapi qonunlari bo'yicha qulning sog'lig'iga zarar yetkazish yoki hayotidan mahrum qilish xo'jayinning mulkiga zarar yetkazish sifatida ko'rilgan va buning uchun aybdor xo'jayinga yetkazgan zararni to'lashi lozim bo'lgan. "Agar quruvchi ma'lum haq evaziga biror odamga uy qurib bersa-yu, qurilgan uy mustahkam bo'lmay buzilib ketsa, natijada uy egasining quli o'lsa, bunda quravchi qul uchun qul bergan" (229; 231-moddalar); "Agar vrach birovning qulini bronza pichoq bilan kesib og'ir operatsiya qilayotganda qul o'lib qolsa, qul uchun qul berishi lozim bo'lgan" (219-modda); "Agar bunday holda qulning ko'zini ko'r qilib qo'ysa, qiymatining yarmini to'lagan (220-modda); "Agar birovning ho'kizi suzong'ich bo'lsa, unga bu haqda qo'shnilar ogohlantirgan bo'lsalar ham uning egasi buning chorasini ko'rmagan yoki ho'kizini bog'lab qo'ymagan bo'lsa va ho'kiz birovning qulini suzib o'ldirsa, ho'kiz egasi qul egasiga 1/3 mina kumush to'lashi lozim bo'lgan" (251-252-moddalar).

Qul xo'jayinning hatto juda katta ishonchini qozongan bo'lsa ham, ammo uning mulkini o'z xohishicha boshqara olmagan. Qul bilan kimda-kim oldi-sotdi shartnomasi tuzib, undan biror narsa xarid qilsa, o'lim jazosiga mahkum qilingan (7-modda). Qulning qochishiga yordam bergan, uni yashirgan yoki egasiga qaytarishdan bosh

tortgan shaxslarga ham o'lim jazosi berilgan. Aksincha, qulni tutib olib, egasiga qaytarib berganlar xizmatlari evaziga mukofot olganlar. Qullaraing qul ekanligini ajratib turish uchun uning tanasiga o'yib yoki kuydirib tamg'a bosib qo'yilgan. Lekin bunday tamg'a bosilgan qulni xo'jayin sotishi yoki boshqasiga almashtirishi mumkin bo'lmagan. Demak, bu holat xo'jayinning o'z quliga nisbatan huquqini ma'lum darajada cheklagan.

Qullar quyidagi toifalarga bo'lingan: **podsho qullari, ibodatxonalarning qullari va xususiy egalikdagi qullar**. Qullar o'z mulkiga egalik qilishi mumkin bo'lgan. Albatta, bunday mulk xo'jayinning ruxsati bilan orttirilgan, oqibatda uning mulkining bir qismi deb hisoblangan va qul o'lsa, mulk xo'jayinga o'tgan. XQ xo'jayinning qul ustidan hukmronligini cheklamagan. Faqat ayrim hollarda ba'zi toifadagi ozchilik qullar qonun himoyasidan foydalangan. Bularga, masalan, o'z xo'jayinlaridan bolasi bo'lgan cho'rilar (qul ayollar) kirgan. Ulardan tug'ilgan bolalar ham erkin hisoblangan. Podsholikka qarashli qul yoki mushkenuning quli erkin ayolni xotinlikka olishi mumkin bo'lgan, ulardan tug'ilgan bolalar ham erkin deb tan olingan (175-modda). Erkin kishi va qul ayoldan tug'ilgan bolalar ham, agar ularning otasi tomonidan tan olinsa, erkin bo'lgan. Erkin kishidan bola tug'gan qul ayol "kumush uchun" sotilishi mumkin emas (171-modda). Qulning erkin bolalari uning mulki bo'lsa, uni yarmini meros tariqasida olganlar, qolgan yarmi xo'jayinga o'tgan (176-modda).

Qarzi uchun qulga aylantirilganlar qullik holatida uch yildan ortiq bo'lmasliklari lozim edi. Qarzdorlik asorati jamoachi-dehqonlarni qulga aylantirishning asosiy usuli bo'lgan, shu sababdan XQ xuddi shu qarzdorlik asoratini cheklashga intiladi. Bunga ajablanmasa ham bo'ladi. Sudxo'rlarning shafqatsiz xatti-harakatlaridan faqat kambag'allargina emas, balki ko'pgina mulkdorlar ham azob chekkan, bu hoi yalpi norozilikka sabab bo'lib, podshoga ziyon yetkazgan, chunki podsho fuqarolardan tobora mahrum bo'la borgan (negaki qul butunlay xo'jayinga tegishli bo'lgan). Qonun xususiy mulkni himoya qilib, qarzini va uning foizlarini undirishga yo'l qo'ygan, lekin bu undirishni muayyan doiraga solib, ochko'z qarz beruvchilarning haddan tashqari ishtahasini tiyib qo'ygan. Qarzdoming o'zi emas, balki uning xotini yoki bolalari faqat uch yil davomida qarz badaliga ishlab berishi, buning ustiga, mazkur qaram kishilar

qullardan farq qilib, qonun yo'li bilan qo'riqlangan va qarzdor otasining qarzi badaliga ishlab berayotgan o'g'li sudxo'rning kaltagidan o'lib qolguday bo'lsa, u holda qarz berganning o'g'li ham o'ldirilishi lozim edi.

Yangi Bobil podsholigida tovar-pul munosabatlari rivojlanishi munosabati bilan qulchilikning o'ziga xos shakllari namoyon bo'lgan. Qul bu vaqtda ko'proq yerni ijaraga oluvchi va ma'lum darajada mustaqil xo'jalik yurituvchi sifatida maydonga chiqqan. Ba'zi qullar o'z xo'jaligini faqat erkin yurituvchilar sifatida emas, balki o'z oilalariga, yerlariga, uy-joylariga, ayrim harakatdagi mulklariga egalik qiluvchilar sifatida maydonga chiqqanlar. Ular boshqa qullardan va erkin kishilardan qarz olib, qarz berganlar, qullar sotib olganlar va sotganlar, qullarni va erkin kishilarni yollab ishlatganlar va hokazo. Yangi Bobil podsholigi qullari Qo'hna Bobil podsholigi qullaridan farq qilib, sudda da'vogar, javobgar, guvoh sifatida qatnashish huquqini qo'lga kiritganlar, Biroq, shularga qaramay, qul o'z xo'jayiniga qattiq qaramligicha qolgan va unga o'ziga xos oylik obrok to'lab turishi lozim edi.¹

Mesopatamiya jamiyatida har bir kishining aniq o'rni belgilab qo'yilganligi erkin aholi o'rtasidagi notenglikda ham ko'zga tashlanadi. Yuqorida ko'rib o'tganimizdek, XQda qullaraing mavqei to'g'risida juda ko'p me'yorlar belgilangan, qullar Bobil jamiyatining muhim tarkibiy qismini tashkil etgan bo'lsada, ular bilan bir qatorda erkin kishilarning turli toifalari ekspluatatsiya qilingan. Hosilning 1/3 qismidan 2/3 qismigacha xo'jayinga topshiradigan mazkur ijarachilardan va oila boshlig'ining qarzi badaliga ishlab beravchi qaram odamlardan tashqari, yana o'z xususiy xo'jaligi bo'lmagan va o'z mehnati badaliga natura yoki pul bilan ish haqi oluvchi ko'p sonli batraklar tilga olinadi.

Bobilning **erkin** axolisi o'z navbatida **to'la huquqli** va **to'la huquqli bo'lmagan fuqaroiarga** ajratiladi. To'la huquqli fuqarolar "**avilum**" (odam, er kishi) aholining asosiy ommasini tashkil etgan. Ularaing ko'pchiligi o'z yeriga ega bo'lib, davlat foydasiga turli mulkiy va shaxsiy majburiyatlar o'taganlar, soliqlar to'laganlar. Tola huquqli fuqarolar ham o'z navbatida bir xil tabaqa bo'lmagan. Xammurapi podsholigi vaqtida qishloq jamoasining tabaqalashish jarayoni juda chuqurlashib ketgan edi. Alohida boyib ketgan jamoachilar borgan sari mustaqil bo'lib qolganlar.

¹ Мухаммедов Х. Хорижий мамлакатлар давлати ва ҳукуки тарихи Т -2005 72 бет

Ular bilan bir qatorda kambag'allashgan, qarzdorlik asoratiga tushgan jamoachilar paydo bo'lgan. XQda ana shu toifadagi shaxslarning ahvolini birmuncha yaxshilashga harakat qilib, belgilangan qator me'yorlar mav-jud. Masalan, unda qarzdor o'zining butun mulkining tola huquqli egasi deb e'lon qilingan, uning roziligisiz va sudning ruxsatisiz qarz beruvchi bu mulkni tortib olish huquqiga ega emas. "Agar bir odam birovga non yoki kumush qarzga bergan bo'lsa, u qarz olgan kishining g'alla omboridan yoki xirmonidan so'ramay donini olsa, bu noqonuniy hisoblangan va olgan donni uning egasiga qaytarishi lozim bo'lgan, shuningdek, unga bergan qarzni ham yo'qotgan" (113-modda). "Er" qarzdor - qul bo'lib qolishi mumkin emas. Qonunda belgilanishicha, qarzdorning xotini yoki bolalari qul sifatida emas, balki garovga olinganlar sifatida ishlab bergan. Garovga olinganlar uch yil o'tgandan song qarz summasi qancha bo'lishidan qat'i nazar ozod qilingan va qarz to'landi deb hisoblangan. Podsho hokimiyati erkin aholining qarzdorlik asoratiga tushgan eng kambag'al tabaqalarini kreditorlarning o'zboshimchaliklaridan himoya qilishga intilib, bunda, avvalo, armiyaning qudratini saqlab qolishni ko'zlagan. Chunki qo'shinlarning asosiy qismi erkin kishilardan tashkil topgan edi.

XQning ko'pdan-ko'p moddalari davlat hokimiyatining asosiy tayanchi hisoblangan harbiylarning huquq va majburiyatlariga bag'ishlangan. Harbiylarga (jangchilarga) in'om etilgan chek yerlar va chorvalar ularning qarzi badaliga tortib olinishi mumkin emas edi. Kreditor faqat harbiylar tomonidan sotib olingan maydonni, bog'ni, uy-joyni tortib olishi mumkin bo'lgan. Jangchining voyaga yetgan o'g'li uning chek yeriga qonuniy merosxo'r bo'lib qolgan. Agar jangchining o'limidan so'ng uning kichik yoshdagi o'g'li qolgan bo'lsa, unda beva qolgan xotinga bo'lajak jangchini o'stirishi uchun meros qolgan chek yerdan 1/3 qismi ajratilgan. Agar jangchi asirga tushib qolsa, uni sotib olish mumkin bo'lgan va u chek yerga nisbatan o'z huquqini saqlab qolgan. Chek yerlar bilan ta'minlangan jangchilar podshoning buyrug'i bo'yicha xohlagan vaqtda yurishlarda qatnashish uchun chaqirib olinishi mumkin edi. Jangchi bunday holda so'zsiz darhol yetib kelishi lozim edi. Agar bundan bosh tortsa o'limga mahkum etilgan. Uning o'rniga jangga kirgan jangchi qatl etilgan jangchining chek yerini olgan.

Bobil jamiyatida to'la huquqli fuqarolarga "**mushkenu**"¹ qarama-qarshi turgan. Bobilning ijtimoiy tuzumidagi "mushkenu" masalasi xususida olimlar o'rtasida turli fikrlar mavjud. Masalan, I.M.Volkov mushkenularni erkinlikka qo'yib yuborilganlar deb hisoblaydi. Sharq tarixi bo'yicha ko'zga ko'ringan olimlardan V.V.Struve, S.F.Kechekyanlar esa mushkenu deganda urashlar natijasida Bobilga qo'shib olingan davlatlar va shaharlaraing aholisini nazarda tutadilar.

Bizga hech shubhasiz shu narsa ma'lumki, mushkenu o'zining huquqiy holatiga ko'ra avilunga nisbatan Bobil jamiyatida quyi mavqeni egallagan. Bizgacha yetib kelgan qonunlarda ham avilumning mulki, hayoti, sog'lig'i, obro'-e'tibori mushkenunikiga qaraganda kuchliroq himoya qilinganligini ko'ramiz. Mushkenuga qarshi jinoyatlar uchun belgilangan jazolar ham qonunda uning avilum bilan teng huquqlarga ega emasligini tasdiqlaydi. Masalan, XQda avilunga tegishli molni o'g'irlagani uchun beriladigan jazo mushkenuning molini o'g'irlaganga qaraganda uch barobar ortiq bo'lgan. Shuningdek, agar jabrlanuvchi avilum bo'lsa, aybdorga og'irroq jazo tayinlangan va hokazo. "Agar bir kishi boshqa kishini (bu yerda avilum nazarda tutilmokda *H.M.*) ko'zini urib chiqarsa, uning ham ko'zi chiqarilgan" (196-modda); "Agar bir kishi boshqa kishini urib suyagini sindirsa, uningham suyagini sindirish lozim bo'lgan" (197-modda); "Agar u mushkenuning ko'zini chiqarsa yoki suyagini sindirsa, u holda 1 mina kumush to'lashi lozim" bo'lgan (198-modda). "Agar odam boshqa odamning tishini sindirsa, uning bam tishi sindirilishi lozim" bo'lgan (200-modda); "Agar u mushkenuni tishini sindirsa 1/3 mina kumush to'lashi lozim" bo'lgan (201-modda).

Yuqoridagilardan yaqqol ko'rinib turganidek, mushkenu avilunga qaraganda jamiyatda ancha quyi mavqeni egallagan.

Lekin shunga qaramay, ba'zi hollarda mushkenular alohida huquqiy himoyadan foydalanganlar. Masalan, mushkenuning mulkini o'g'irlash XQ bo'yicha saroydan mulk o'g'irlash sifatida qaralgan, ularning qullari esa, yuqorida ta'kidlab o'tilganidek, xususiy shaxslarning qullari oldida ba'zi imtiyozlarga ega bo'lgan.

XQda yuqoridagi tabaqalar bilan bir qatorda, shuningdek, aholining ixtisoslashgan kasblar bilan shug'ullanuvchi guruhlar ham ko'rsatiladi. Ularning

¹ "mushkenu" –mayda kishilar

ichida birinchi o'rinda saroy xizmatchilari, ya'ni podshoga bevosita yaqin turuvchi podshoning shaxsiy qo'riqchilari va **kohinlari** turgan. Boshqa davlat xizmatchilaridan qonunlarda "redum", "bairum", "dekum", "lubuttum" deb nomlangan kishilar eslab o'tiladi. Lekin ularning vazifalari aniq belgilab qo'yilmagan edi. Ehtimol, bular turli toifadagi harbiy xizmatchilar bo'lgan bo'lishi mumkin. Bobilda din va ibodatxonalar juda katta davlat ahamiyatiga ega bo'lganligi sababli boshqa kasb vakillari orasida ibodatxonalarning xizmatchilari faxriy mavqega ega bo'lgan. Lekin kohinlar Bobilda tabaqa sifatida rasmiylashmagan.

Jamiyatda chinovniklar juda yuqori mavqega ega bo'lgan, ularga katta talablar qo'yilgan, shuningdek ular yer bilan ta'minlab, uni meros qilib qoldirishi mumkin bo'lgan.

Ikkidaryo oralig'ida don bilan savdo qilish uchun, bu yerda yetishmaydigan foydali qazilmalarga, masalan, metallga, shuningdek tosh, yog' och va boshqalarga ega bo'lish uchun ham Shumer va Akkad jamoalariyoq o'zlarining savdo agentlarini uzoq safarlarga jo'nata boshlagan edilar.

Ossuriya orqali o'tgan savdo yo'Uari Bobilni Siriya, Kichik Osiyo, Annaniston va boshqa mamlakatlar bilan bog'lagan. Shu munosabat bilan Mesopatamiyada **tamkar** - sudxo'r, kreditor, savdogar, saroyning savdo faoliyati bilan shug'ullanuvchi kishisi degan tushuncha juda barvaqt shakllangan. XQda tamkarlar zimmasiga faqat o'z daromadlaridan podsho xazinasiga o'tkazib turish majburiyati emas, balki boshqa majburiyatlar ham yuklatilgan edi. Masalan, tamkarlar asirga tushgan jangchini sotib olishlari lozim edi. Albatta, bunga ketgan xarajatlar keyinchalik ozod qilingan jangchidan, uning jamoasidan yoki ibodatxonasidan undirib olinishi nazarda tutilgan.

Tamkarlar qaram kishilar bo'lsalarda, juda katta moliyaviy-savdo faoliyati erkinligidan foydalanganlar, yirik savdo bitimlari tuzganlar, kapitallarini birlashtirganlar, savdo tashkilotlari tuzganlar, yirik pul operatsiyalarini amalga oshirganlar, yerlar olganlar va sotganlar va hokazo.

Hunarmandchilik ishlab chiqarishi asosan podsho xo'jaligida rivojlanib, unga qaram bo'lgan. Podshoning maxsus kuzatuvchilari nafaqat hunarmandchilik ishlab chiqarishini, balki mahsulotlarining sotilishi ustidan ham nazorat qilib turganlar. Yangi Bobil podsholigida qullarni ixtisosli hunarlarga o'rgatish amaliyoti qo'llangan.

Biroq, temirchilar, duradgorlar, pivo pishiruvchilar kabi juda muhim hunarmandlar u yoki bu darajada mustaqil bo'lganlar, ixtisoslashgan birlashmalar tuzganlar. XQ bo'yicha, masalan, o'z hunarini o'rgatish uchun birovlarining bolasini o'g'il qilib oluvchilar alohida mavqega ega bo'lishgan (188-modda).

Bobilda "olimlar"dan iborat ba'zi mutaxassislar, masalan, "ruxlarni haydash" bo'yicha mutaxassislar, kelajakni oldindan aytib beruvchi folbinlar, shifokorlar, mirzalar ancha-muncha mustaqillikdan foydalanganlar. Lekin shifokorlar, veterinarlarning mehnati arxitektorlar va kemasozlar mehnatidan past qadrlangan. Arxitektorlar, kemasozlar o'z mehnati evaziga gonorar (mukofot) olsalar, shifokorlar haq olishgan.

3.2 Bobilning davlat tuzumi

Qadimgi Bobil podsholigi **markazlashgan davlat** bo'lgan. **Podsho** Xammurapi rasman cheklanmagan vakolatlardan foydalangan. Uning qo'lida qonun chiqarish, ijro etish va sud hokimiyati to'plangan. Shu bilan birga podsho hokimiyati uncha kuchli bo'lmagan. Podshoga xudoning yerdagi noibi va xizmatchisi sifatida qaralgan. Shu tariqa, davlat boshlig'i mustaqil bo'lmagan, uning faoliyati yuqoridan, xudo tomonidan yo'naltirib turilgan. Quyidan podsho hokimiyati kuchli ruhoniylar va boy shaharlar tomonidan cheklab turilgan. Bobilning uchta muqaddas shaharlari - Nippur, Sippar va Bobil - imtiyozli yorliqlarga ega bo'lib, bu ularga alohida imkoniyatlar va imtiyozlar bergan. Podsho bu shaharlarning fuqarolarini turmaga qamay olmagan, ulardan askarlar talab qilish, ularni ibodatxonalar xo'jaliklarida ishlashga majbur etish huquqlariga ega bo'lmagan. Kohinlar shaharlarning daxlsizlik huquqlarini saqlovchilari sifatida chiqqanlar.¹

Yuqoridagilarga qaramay, Xammurapi zamonida podsho hokimiyati istibdod (despotiya) xususiyatiga ega bo'lgan va fuqarolar o'rtasidagi hamma o'zaro munosabatlarga aralashavergan. Qonunlar to'plamiga doir muqaddimada xudolarning o'zlari podsholarga cheklanmagan vakolatlar berganliklari haqida gapiriladi. XQda podshoning ishharakatlarida hech qanday cheklashlar ko'zda tutilmagan.

Podsho katta boshqaruv apparatining tepasida turgan. Bu haqda hozirgi kungacha saqlanib qolgan podsho Xammurapi tomonidan shaharlardagi va alohida

¹ Мухаммедов Х. Хорижий мамлакатлар давлати ва ҳукуки тарихи Т -2005 76 бет

viloyatlardagi yudsho noiblariga, shuningdek, elchilarga berilgan 60 ga yaqin buyraqlar ham dalolat beradi. Ularda chinovniklarni almashtirish va tayinlash, aholini ro'yxatga olish, kanalar qurish, soliqlar undirish haqida buyruq-farmoyishlar berilgan edi.

Boshqa qadimgi Sharq davlatlari singari Bobilda ham podsho qo'lida keng xo'jalik funksiyalari: sug'orish inshootlariga, ibodatxonalar qurilishiga, tovarlarga narx qo'yishni tartibga solishga, hunarmandlar, shifokorlar, quruvchilarga haq belgilashga rahbarlik qilish kabilar to'plangan. Xammurapi davrida savdogarlar (tamkarlar) podsho agentlariga (ayg'oqchilariga) aylantirilgan.

Qadimgi Babil hukmdorlari o'zlari uchun maqbul va qulay boshqaruv mexanizmini tashkil etganlar. Bunga davlatdagi barcha, hatto, eng kichik ishlarga shaxsan e'tibor berish yo'li bilan erishganlar. Shu sababli davlatda oqil va tajribali chinovniklar qadrlangan. Xizmatehi zodagonlar urug' zodagonlarini davlat apparatidan siqib chiqargan. Barcha boshqarav ishlari podsho saroyida to'plangan. Saroy boshqarav tizimi shunisi bilan ajralib turganki, davlatda podsho xo'jaligini boshqaravchilar oliy mansablarni egallaganlar; ularning vazifalari o'rtasida aniq chegara bo'lmagan.

Davlatda podshodan keyin **nubanda (vazir)** turgan. **Nubanda** podsho Xammurapi davriga kelib juda katta vakolatlarga ega bo'¹ lib olgan. U endi aholining majburiyatlari bilan bog'liq deyarli barcha tashkiliy ishlarni yurita boshlagan. Nubanda kanallar, istehkomlar, saroylar, ibodatxonalar qurishga, urushlar olib borishga, dehqonchilik ishlarini tashkil etishga rahbarlik qilgan.

Podsho huzurida yana bir boshqa hukmdor - noib - isakku, ya'ni ko'p shaharlar hokimi paydo bo'lgan. Shu bilan birga oliy mansabdor shaxslardan yana **saroybon, xazinabon. saroy dasturxonchisi, bosh harbiy boshliq.** kabilar ham mavjud edi. **Mirzalar** davlatda juda yuqori baholangan. Bulardan tashqari manbalarda askarlar va kuryerlar kuzatuv ostida mamlakat bo'ylab hukumat topshiriqlarini bajarish yuzasidan aylanib yuradigan boshqa mansabdor shaxslar ham eslab o'tiladi. Shuningdek, ma'lum darajada davlat boshqaruvida ishtirok etadigan **turli darajadagi kohinlar, agentlar, sudyatar, omborxona qo'riqchilari, kuzatuvchi va boshqalar** ham mavjud edi.

Davlat boshqarav organlari tizimida markaziy va mahalliy boshqarav organlari ajratilgan.

Mamlakat hududi viloyatlarga bo'lingan. Ma'lumki, ilgari viloyatlar shahar-davlatlar tepasida **patesilar** turardi. Podsholar markaziy hokimiyatni kuchaytirib, patesining dunyoviy hokimiyatdan mahrum etganlar va ularda faqat koinlik mavqeini saqlab qolganlar yoki ularni o'z noiblariga, o'zlariga bo'ysunadigan viloyatlarning hokimlariga - **shaqkanaqularga** aylantirganlar. Shaqkanaqular viloyatlarda soliqlar yig'ishga, tartib saqlashga va xalq lashkarlarini chaqirishga mas'ul edilar.

Mazkur viloyatlar hukmdorlari bilan bir qatorda kichikroq hududiy birliklarga boshchilik qiluvchi mansabdor shaxslar ham mayjud bo'lgan. Bular - **rabianumlar** bo'lib, ular alohida shaharlarning hokimlari bo'lishgan. Ba'zi olimlar ularni hududiy jamoalar boshliqlari bo'lgan deb ko'rsatishadi. Joylarda, garchi, ancha cheklartgan vazifalar bilan bo'lsada, **jamoal o'zini-o'zi boshqarish organlari** saqlanib qolgan edi. Bunday organlar mahalliy joylarda ba'zi ma'muriy, moliyaviy va sud hokimiyatini amalga oshirganlar.

Qadimgi Bobil jamiyatida Xammurappiga qadar sud ishlarini yuritishda ibodatxonalar va jamoalar sudlari asosiy o'rin tutgan. Sud organlari sifatida **ibodatxonalarning** kengashlari, **jamoal majlislari** yoki ular tomonidan maxsus (ajratilgan **jamoal sudlari hay'atlari** maydonga chiqqan. Manbalarda **podsholik sudlari** haqida ancha barvaqt eslatib o'tiladi. Masalan, Lagash shahar -davlatida maxsus oliy sudya - hukmdorning yirik amaldorlaridan biri mavjud bo'lganligi ma'lum.¹

Podsho hokimiyatining kuchayishi jamoalar va ibodatxonalarning sud vakolatlarining cheklanishiga olib kelgan. Jamoalardagi kollegial sudlar ilgarigidek oqsoqollar kengashi a'zolaridan iborat bo'lgan, lekin ularga endi rabianumlar rahbarlik qila boshlaganlar. Bu sudlarga podsho odamlarning ishi taalluqli bolmagan, ular podsho mulkiga tegishli ishlarni ko'rib, hal qila olmaganlar. podsholik sudlari Xammurapi davrida barcha katta shaharlarda joriy etilgan, ular asosan podsho odamlari ishlarini ko'rib hal qilgan. Biroq podsho oliy kassatsion instansiya sifatida ham, appelyatsion instansiya sifatida ham maydonga chiqmagan. Podsho ohm

¹ Ko'rsatilgan asar 77 bet

jazosiga hukm qilinganlarai avf etish huquqiga ega bo'lgan. Unga suddagi sansalorliklar, sudyalarning o'zboshimchaliklari, sudni bekor qilish haqidagi shikoyatlar kelib tushgan. Bunday shikoyatlarni podsho tegishli ma'muriy yoki sud organlari: jamoa sudlariga yoki podsholik sudlariga ko'rib hal qilish uchun bergan. Bu yerda umuman sud instansiyasi bolmagan, har qanday sud qarori amalda qat'iy bo'lgan. Podsho noiblari deyarli hamma yerda jinoyatchilarni sudga chaqirish, qamoqqa olish va qidirish kabi ishlarni amalga oshirishlari mumkin bo'lgan.

Sud hokimiyati boshqa qadimgi Sharq davlatlarida bo'lganidek ma'muriy hokimiyatdan ajratilmagan. Podsho va podsho chinovniklari bir vaqtda ham ma'muriy, ham sud ishlarini yuritganlar.

Podsho amalda oliy sudya bo'lgan. U xohlasa har qanday fuqarolik yoki jinoyat ishlarini shaxsan o'zi ko'rishi yoki ularni ko'rishni quyi sud organlariga jo'natishi mumkin bo'lgan. Podsho jinoyatchilarni avf etish huquqiga ega bo'lgan.

Sud funksiyalari shuningdek "noiblar" (shaqkanaqular) va "rabianumlar" qulida ham bo'lgan. Ular sud hay'atlariga raislik qilganlar. Viloyatlarga tenglashtirilgan hududlarda shaqkanaqular 6-12 kishi tarkibidagi sud hay'atlariga raislik qilsalar, shaharlarda rabianumlar 4-8 shahar oqsoqollari tarkibidagi sud hay'atiga raislik qilganlar. Katta shaharlarda maxsus "podsho sudyalari" sud vazifalarini amalga oshirganlar; bular bevosita podshoga bo'ysunib, uning ko'rsatmalari bo'yicha harakat qilganlar.

Xammurapi ibodatxonalar sudlarini saqlab qolgan bo'lsa ham, ammo ularaing vazifalarini cheklab qo'ygan: ular tomonlarni qasam ichishga olib keltirganlar va buni tasdiqlaganlar. Ehtimol ular kohinlar o'rtasidagi ishlarni bevosita ko'rib hal qilgan bo'lishlari ham mumkin.

Ikkidaryo oralig'ida siyosiy tarqoqlik davrida qurolli kuchlarning asosiy turi erkin jamoachi dehqonlardan iborat lashkarlar bo'lgan. Ular o'z hukmdorlarining chaqiruvi bo'yicha urushlarga o'zlarining qurol-yarog'lari va asbob-anjomlari bilan kelish lozim bo'lgan. Harbiy yurishlar tugagach, lashkarlar uy-uylariga tarqab ketganlar. Quldorlik munosabatlarining rivojlanishi, soliqlar va majburiyatlarning o'sishi va erkin jamoachi dehqonlarning mulkiy tabaqalashuvi borgan sari kuchayib borishi munosabati bilan xalq lashkarlarini to'plash qiyinlashib borgan. Bundan

tashqari, xonavayron bo'lgan jamoachilarning qarshiligini bostirib turish, tashqi dushmanlar tomonidan doimiy bo'lib turadigan urushlarni bartaraf etish va umuman davlatning yagonaligini saqlab qolish zarariyati mustahkam, doimiy va kuchli armiya tuzishni taqozo etardi. Jahon tarixida birinchi marta akkad **podshosi** Sargon¹ (miloddan avvalgi 2316-2261 yillar) 5400 ta professional jangchidan iborat **doimiy armiya tuzgan**. Undan faqat tashqi dushmanlarga qarshi emas, balki xalq qo'zg'olonlarini bostirish uchun ham foydalanish mumkin edi. Bu armiya Ikkidaryo oralig'ining keyingi hukmdorlari davrida ham saqlanib qolgan.

Xammurapi davrida doimiy armiyaning jamoa yer egaligidan tamomila ajratilishi yuz bergan. **Jangchi (redum, bairum)** xizmat eyaziga podsholik yerlaridan chek yer olgan, shuningdek, oilasini boqish uchun uy-joy, bog', chorva olib, podshoning qaramog'ida bo'lgan (XQning 30-36-moddalari). Bu mulklar fuqarolik oborotidan olingan. Hatto jangchi asirga tushib qolsa ham, chek yerga nisbatan egalik huquqini saqlab qolgan; uchastkaning bir qismiga uning voyaga yetmagan o'g'li meros huquqini saqlab qolgan (XQ 27-29-moddalari). "Agar jangchi xizmatdan qutulish maqsadida chek yerni tashlab ketsa, unga nisbatan egalik huquqini bir yilgacha muddatga saqlab qolgan, bunda, albatta, unga xizmatga qaytish sharti qo'yilgan. Jangchi halok bo'lsa yoki asir tushib qolsa, mulki uning voyaga yetgan o'g'liga harbiy xizmat o'tash sharti bilan o'tkazilgan. Agar o'g'li voyaga yetmagan bo'lsa, jangchi xotiniga mulkning 1/3 qismi o'g'lini yaxshi jangchi qilib tarbiyalash maqsadida berilgan. Jangchi asirdan qaytib kelsa, uning boshqa kishiga o'tkazilgan barcha mulklari qaytarib olib borilgan.

Xammurapi armiyaning jangovarlik qobiliyatini mustahkamlash, qattiq intizom o'rnatish choralarini ko'rgan. Jangchi yurishlarda qatnashishdan bosh tortsa, o'limga mahkum etilgan va unga berilgan barcha mol-**mulklar** tortib olingan. Agar jangchi o'z o'rniga o'rinbosarini jo'natsa, bunda ham u o'limga mahkum qilinib, uning mulki o'sha jangga borgan o'rinbosariga o'tkazilgan. Agar **harbiy boshliqlar (dekum va lubuttum)** jangchining mulkidan o'z maqsadlari yo'lida foydalansalar yoki ijaraga bersalar o'limga mahkum etilganlar, Jangchining xizmati "abadiy" hisoblangan.

¹ Sargon – Akkad podshosi

Bobilda professional jangchilar politsiyachilik¹ vazifalarini ham bajarganlar.

Bobilda kuchli va mustahkam doimiy armiya tashkil etilgan bo'lsa ham, ammo u ink harbiy yurishlar vaqtida chaqiriladigan xalq lashkari o'z ahamiyatini yo'qotmagan. Armiyada kamonchilar va og'ir qurollangan piyodalar bilan bir qatorda aravali jangchilardan iborat otradlar alohida o'rin egallagan. Qadimgi Bobil manbalari shundan darak beradiki, ularning qo'mondonlari jangovorlik jasorati uchun podsho tomonidan yerlar bilan taqdirlanganlar, soliqlardan va boshqa turli majburiyatlar o'tashdan ozod qilinganlar.

¹ Politsiyachilik –mirshablik

IV Bob. QADIMGI MESOPATAMIYADA HUQUQNING

ASOSIY BELGILARI

4.1 Huquq manbalari

Ikkidaryo oralig'i davlatlarida huquqning eng qadimgi manbai, Misrda bo'lgani kabi, **odat huquqi** hisoblangan. Mesopatamiya davlatlarining tashkil topishi natijasida bu yerdagi xalqlar va qabilalar hayotida asrlar davomida ishlab chiqilgan, avloddan-avlodga an'analar sifatida o'tib kelgan va ijtimoiy hayotning turli sohalarini tartibga solib turgan, u yoki bu bir-biriga o'xshash hodisalarni uzoq vaqt bir xil tartibga solib kelgan axloq-odob me'yorlari endi majburiy xarakter kasb eta boshlagan. Bobilda ibtidoiy jamoa tuzumi davrida paydo bo'lgan ko'p urf-odatlar davlat tashkil topgandan keyin ham dastlabki vaqtlarda saqlanib qolgan. Zero, Ikkidaryo oralig'i davlatlarida paydo bo'lgan yozma qonunlarni o'rganish shuni ko'rsatadiki, ular o'zlarida jamiyat hayotining hamma tomonlarini tartibga solishga qaratilgan huquqiy hujjatlar emas edi. Qolaversa, ushbu yozma qonunlarda ibtidoiy jamoa tuzumining anchagina qoldiqlari saqlanib qolgan edi. Albatta, bu davrda urf-odatlar yangi ijtimoiy munosabatlarni tartibga solishga moslashtirilgan.

Ikkidaryo oralig'ida odat huquqi bilan birga huquqning boshqa yana bir muhim manbai - qonun juda erta paydo bo'lgan. Qadimgi Mesopatamiya davlatlarida juda qadimgi paytlardanoq u yoki bu podsholik hukmdorlarining irodasi bilan qabul qilingan yozma qonunlar huquqning asosiy manbai bo'lib qolgan. Bu yerda podsholar qonunlarining paydo bo'lishi uzluksiz urushlar, davlat to'ntarishlari, bosqinchiliklar davomida uncha mustahkam bo'lmagan hududiy-siyosiy birlashmatarning qaror topishi yoki u yoki bu hukmdor - gegemon hokimiyatining mustahkamlanishi, u yoki bu irq oliyligining o'rnatilishi natijasida kelib chiqqan ko'p sonli davlatlarning tashkil topishi va rivojlanishining alohida shart-sharoitlari bilan bog'liq. Podsho qonunchiligining paydo bo'lishini bu yerda yana tovar-pul munosabatlarining, ichki va tashqi savdoning nisbatan erta rivojlana boshlanganligi ham tezlashtirgan. Bobil qadimgi dunyoda xalqaro savdoning asosiy markazlaridan biri bo'lgan.

Dastlabki podsholar yozuvlari torn ma'nodagi qonunlar yoki islohotlar bo'lmagan. Ularda Mesopatamiya podsholarining haqiqiy yoki hayoliy g'alabalari,

ularning o'z mamlakatlari, shaharlari, ibodatxonalari aholisiga, xudolarga qilgan muruvvatlari va xayr-saxovatlari haqidagi ma'lumotlar saqlangan. Bu madhiyaviy yozuvlarning o'ziga xos belgisini ulardagi haqiqatni tiklash haqidagi, hamma narsadan mahrum qilinganlarni (kambag'allarni, yetim-yesirlarni, beva-bechoralar va hokazolarni) podsho tomonidan himoya qilinishi haqidagi ko'rsatmalarda ko'rish mumkin. Bunday tarixiy hujjatlar qatoriga miloddan avvalgi XXIV asrga taalluqli Lagash podsholigi hukmdori Uruinimgin (2318-2312 yillar)¹ning "islohotlari" ham kiradi. Bu hujjatlarda kambag'allarni qarzlardan, kaltaklardan, o'zboshimchalik bilan yig'iladigan yig'implardan ozod qilinishi haqida, ilgarigi hukmdorlar tomonidan tajovuz qilingan ibodatxonalarining mulkining himoya qilinishi haqida gapiriladi.

Dastlabki yozuvlar harakatdagi qonunlarni o'zlarida mujassamlashtirmagan bo'lsalarda, ammo hukmdorlarning qonunchilik faoliyatlarini, qonunlarini an'anaviy yozib qoldirilishiga va e'lon qilinishiga asos solgan. Va, endi podsholarning qonunlari asta-sekin yozib qo'yiladigan bo'lgan.

Bunday harakatdagi qonunlar (to'g'ri, bizgacha to'liq yetib kelmagan) qatoriga quyidagilar kiradi: Ur sulolasining asoschisi (miloddan avvalgi III ming yillikda) podsho Ur-Nammu qonunlari, Isina podsholigi hukmdori Lipid-Ishtar qonunlari, Eshkurma podsholigi (miloddan avvalgi I ming yilliklar boshida)dagi Bilalam qonunlari, "O'rta osur qonunlari" (miloddan avvalgi II ming yillik o'rtalari) va nihoyat, Mesopatamiyaning eng muhim huquqiy hujjati - Ikkidaryo oraliqidagi eng yirik davlat - qadimgi Bobil podshosi Xammurapi qonunlari. Bularning ichida ayniqsa podsho Xammurapi qonunlari qadimgi davr huquqiy qarashlarining va huquq tizimining juda katta yodgorligidir.

Xammurapi qonunlari 1901-1902 yillarda Jeniulyak boshchiligidagi fransuz arxeologik ekspeditsiyasi tomonidan qadimgi Elam poytaxti Suz shahrini qazish chog'ida topilgan. Bu qonunlar mixxat yozuvida qora bazalt tosh ustuni sathiga o'yib yozilgan.² Bu ustun quyosh, haqiqat va adolat xudosi Shamash taxti oldida turgan hamda uning qo'lidan oliy sud hokimligi belgisi cho'qmor va chambar olayotgan podshoning o'zini tasvirlaydigan bo'rtma shakllar bilan bezalgan, 282 ta moddadan

¹ Авдиев В.И. Қадимги шарқ тарихи. Т -1964 72 бет

² Uning asl nusxasi Parijda saqlanadi

iborat bo'lgan ushbu qonunlar Shumer va Akkad huquqining ko'pgina tajribalari mujassamlashtirilgan edi. Uni biz shartli ravishda kodeks-qonunlar to'plami deyishimiz mumkin. Chunki u ko'proq sud qarorlarining to'plamiga o'xshab ketadi. Kodeks uch qismga bo'linadi: 1) Kirish; 2) Qonunnomaning matni (yoki asosiy qism); 3) Xulosa. Kirish qismida qonunlarni chiqarishdan asosiy maqsad mamlakatda adolat o'rnatishdir, deb ko'rsatilgan. Unda podsho ulug'lanib, ko'klarga ko'tarilgan. Undan keyin podsho o'zi qilgan ishlarini sanab ko'rsatadi va unvonlarining tola nomini keltiradi.

Asosiy qismda jinoyat huquqi, protsessual huquq, mulk huquqining buzilishi va unga qo'llaniladigan jazolar, nikoh va oila huquqi, jangchilarning huquqlari va boshqa munosabatlar to'g'risida me'yorlar belgilangan.

Xulosa qismida podsho o'zining xalq oldidagi xizmatlarini keltiradi, bu qonunlarni kelgusida bajaradigan podsholarni hurmatlash, ularni bajarmagan yoki bekor qilmoqchi bo'lgan podsholarni la'natlash lozimligini to'g'risida gapiriladi.

XQning 15-moddalari sud va sud jarayonining ayrim masalalariga bag'ishlangan. Bu moddalar sudlarda hukmron bo'lgan o'zboshimchaliklarga, suiste'molliklarga, birovni noto'g'ri ayblashlarga qarshi qaratilgan. Bu shundan darak beradiki, Bobilda sudyalarni va guvohlarni sotib olish, poraxo'rlik kabi hollar ham keng tarqalgan. Xullas, 1- 5- moddalar Kodeksning asosiy qismi boshidagi o'ziga xos muqaddima sifatida berilgan. Undan song mulkka bag'ishlangan juda katta bo'lim boshlanadi, bu alohida ajratib ko'rsatilmasada, Kodeksning 6-120-moddalari mulk va u bilan bog'liq munosabatlarni tartibga soladi. Bunga mulkni himoya qilishga taalluqli, jumladan, o'g'irlik, talonchilik uchun jazolar o'rnatuvchi, daraxtlarni kesish, maydonlarni payhon qilish va boshqalar uchun javobgarliklar belgilovchi me'yorlar kiritilgan. Ushbu bo'limga mulkka egalik qilish va uni tasarruf etish, begona mulkdan foydalanish usullarini, ko'pgina shartnoma majburiyatlarini tartibga solishga qaratilgan moddalar kirgan. Xususan, 26-39-moddalarda jangchilarning chek yerlari haqida gapiriladi. XQning 127-195-moddalari nikoh, oila va meros masalalariga bag'ishlangan. Undan keyingi qismda 196-214-moddalarda shaxsning hayoti va sog'lig'ini himoya qilishga qaratilgan me'yorlar belgilanib, bu yerda shaxsga qarshi qaratilgan jinoyatlar uchun javobgarliklar o'rnatilgan. Kodeks matnining oxirgi bo'limi

- 215-282-moddalari mehnat va mehnat qurollari to'g'risida bo'lib, bu yerda shifokorlarlarga, veterinarlarga, quruvchilarga mukofotlar va javobgarliklar o'rnatuvchi moddalar, ho'kizlarni ijaraga berish haqidagi va suzong'ich ho'kiz uchun egasining javobgarligi haqidagi, qishloq xo'jalik ishchilari, hunarmandlar, cho'ponlar haqidagi, qishloq xo'jalik asboblari o'g'irlaganlik uchun jazolar haqidagi, eshaklarni, aravalarni, kemalarni ijaraga olish haqidagi va, nihoyat, qullar haqidagi moddalar keltirilgan. Shunday qilib, huquq tarmoqlari bo'yicha uning tuzilishi quyidagichadir: 1) Sud; 2) Mulk; 3) Nikoh va oila; 4) Shaxsni himoya qilish; 5) Mehnat va mehnat qurollari. Lekin bizning bunday shartli tizim asosida XQning mazmunini o'rganishimiz ushbu qonunlarning huquq sohalari bo'yicha ma'lum bir tizimga solinganligini va huquq sohalarining alohida institutlarga ajratilganligini anglatmaydi. Chunki bunday bo'linish va tizimga solish Kodeksdayo'q.

Kodeksni tuzishda eski odat huquqi, shumer qonunlari va yangi qonunlar unga asos qilib olingan.

XQ o'zining to'laligi nuqtai nazaridan va qat'iyligi bo'yicha mukammal emas, ular jamiyat hayotining hamma tomonlarini to'liq qamrab olmagan..

Matnlar asosan kazuistik (qonunning umumiy moddalarini turli yuridik holatlarga tadbiq qilish) shaklda tuzilgan. Qonunlarda umumiy tamoyillar mavjud emas, ularni, garchi, ma'lum mantiq bo'yicha bayon qilishga harakat bo'lsada, ammo tizimga solib bayon qilish yo'q. Lekin ularda ko'rsatilgan barcha holatlar batafsil hal qilingan. XQ boshqa Sharq qonunnomalaridan farq qilib, o'zida diniy va nasihatgo'ylik elementlarni saqlamaydi.

Xammurapi o'z qonunlari bilan mayda va o'rta quldorlar hukmron kuch bo'lgan davlatning ijtimoiy tuzumini mustahkamlashga harakat qilgan. XQ quldorchilik tuzumini, xususiy mulkchilikni aks ettiravchi birinchi yirik va mashhur qonunlar to'plami bo'lgan. Shu sababli qonunlarda urug'doshlik tuzumining qoldiqlari saqlanib qolgan. Masalan, jazolarning juda og'ir va shafqatsizligi, talion tamoyili ("ko'zga ko'z" "tishga tish" va hokazo)ning saqlanib qolganligi, ordaliya (sinab ko'rish)ning qo'llanishi va boshqalar aynan urug'doshlik tuzumiga xos bo'lib, ular qonunlarda to'liq saqlanib qolgan.

Quyida XQda belgilangan me'yorlarning mazmuniga qarab, garchi, ular ma'lum tizimga solinmagan bo'lsa ham, huquq sohalari va institutlari bilan tanishib chiqamiz.

4.2 Mulk huquqi va majburiyatlar

Xammurapi hukmronligi davrida xususiy mulkchilik eng yuqori darajaga erishgan. Bobilda yerga egalikning xilma-xil shakllari mavjud bo'lgan. Bular: podsho yerlari, ibodatxonalarning yerlari, jamoa yerlari va xususiy yerlardir, Podsho yerlari ham, ibodatxonalarning yerlari ham podsho tomonidan idora etilgan va muhim daromad manbai bo'lgan.

Davlat yerlari podsho yerlari sifatida, saroyga tegishli yerlar sifatida ko'rilgan. Podsho bunday yerlarning bir qismini mayda ishlab chiqaruvchilarga (dehqonlarga) berib, evaziga natura tarzida haq olib turgan; ba'zan dehqonlarga yerlar bilan birga zarar ishlab chiqarish qurollari va ashyolar ham berilgan. Podsho o'z yerlarining boshqa qismini mansabdor shaxslarga va jangchilarga ma'lum xizmatlar o'tash sharti bilan berib qo'ygan.

Chinovniklarga va jangchilarga berilgan yer uchastkalari xizmat o'tayotgan vaqtlari davomida ularning qo'lida bo'lgan va o'g'illari o'sha xizmatni davom ettirsa, ularga meros bo'lib o'tgan. Jangchilarga yer uchastkalari bilan birga ba'zan yerga birlashtirib qo'yilgan dehqonlar ham berilgan.

Chinovniklarga va jangchilarga taqdim etilgan bunday yerlar, shuningdek, uylar va ashyolar alohida darajadagi mulkni - ilku mulkni tashkil etgan. Yerlar, uylar va boshqa ilku mulklar fuqarolik oborotidan chiqarilgan: ularni sotish, sotib olish, xotini yoki qiziga vasiyat qilib qoldirish, jangchini asirlikdan sotib olish uchun sarflash, qarzni to'lash uchun berish mumkin emas edi. Agar biror kishi jangchiga tegishli yer, bog' va uyni sotib olsa, bunday shartnoma haqiqiy emas deb hisoblangan. Ularni sotib olgan kishi unga to'lagan barcha narsasidan mahrum bo'lgan. Yer, uy, bog' ularaing egasiga qaytarilgan. (XQning 35-39-moddalari).

XQning 40-moddasiga binoan, ilku mulkini sotish mumkin bo'lgan faqat ikkita holat belgilanadi. Bunda, birinchidan, bunday mulkni tamkar sotishi mumkinligi, ikkinchidan esa, ilku mulkini sotib olayotgan shaxs xazinaga to'lov to'lab turishini ta'minlaydiganlar sotishi mumkinligi ko'rsatiladi.

Ilku mulkining egasi davlatga shaxsan harbiy xizmat o'tab turishi lozim bo'lgan. Agar u o'z o'rniga o'rinbosar yollab, xizmatga jo'natsa, o' limga mahkum etilgan va uning yeri, uyi va boshqa ilku mulki o' sha yollanib xizmatga borgan kishiga o'tkazilgan (26-modda). Agar jangchi asirga tushib qolsa, uning yeri yoki ilku bog'i voyaga yetmagan o'g'liga xizmat o'tash sharti bilan o'tkazilgan. Agar o'g'li voyaga yetmagan bo'lsa yoki xizmatni o'tay olmasa, u holda ilku mulkining uchdan bir qismi onasiga o'g'lini jangchi qilib tarbiyalash uchun berilgan.

Jangchi o'ziga berilgan ilku yerni ishlashga majbur bo'lgan. Agar yerni ishlatmay qarovsiz uch yil davomida tashlab qo'ysa va kimdir buni barcha majburiyatlarni zimmasiga olgan holda egallab olsa, bu mulkning dastlabki egasi o'zining yerga nisbatan barcha huquqlarini yo'qotgan (30-modda).

Bobilda yerga nisbatan jamoa mulkchiligi davlat mulkchiligi bilan bir qatorda uzoq saqlanib qolgan. Bunga, avvalo, mazkur yerdagi sun'iy sug'orish ishlarini birgalikda tashkil qilish zaruriyati yordam bergan.

Jamoa mulkini tashkil etgan yerlar qishloqlar o'rtasida taqsimlangan. Jamoa hududi ancha mayda hududiy birliklarga bo'lingan. Jamoa yerlari parsellalarga bo'linib, ular mazkur joylar aholisi - "qo'similar" o'rtasida taqsimlangan. Bu qur'a tashlash yo'li bilan amalga oshirilgan bo'lsa kerak. Yerlar noma'lum muddatga vaqtincha foydalanish uchun berib qe'yilgan; jamoa uni xohlagan vaqtda qaytarib olishi mumkin edi.

Jamoaning alohida a'zolari yerni begonalashtirish yoki meros tariqasida o'tkazish huquqiga ega bo'lmagan. Ba'zi hollardagina, ko'pincha podsho foydasiga yerni begonalashtirishga yo' 1 qo' yilgan.

Yer sotish uchun qo'shnilarning roziligi talab qilingan. Yer egaliklari chegaralariga "kiidurru" (chegara, oraliq) deb nomlanadigan tosh-hujjatlar qo'yib qo'yilgan. Mazkur yer egalarining ushbu yerga nisbatan mulk huquqini anglatadi. Bunday toshlar dastlab dalalarga qo'yilgan bo'lsa, keyinchalik ibodatxonalarga joylashtiriladigan bo'lgan, ya'ni kudurru nusxasi ibodatxonalarda saqlangan.

Ba'zan kudurru xususiy mulkni himoya qilish maqsadida qo'yilgan. Podsho ko'pincha jamoalardan tortib olgan yerlarni ayrim kishilarga kudurru asosida bergan. Bunday yerlar xususiy, meros tariqasida o'tadigan mulk bo'lib qolgan. Mulk egalari

esa turli majburiyatlarni o'z zimmalarida saqlaganlar. Ular podsho foydasiga - sug'orish inshootlarini tartibga keltirish, yo'llar va ko'priklar qurish va ular bilan bog'liq majburiyatlarni, jamoalar foydasiga - o't-o'lanlar, poxollar, don yig'ishtirish, cho'pon taqdim etish, chorva uchun bino berish va boshqa majburiyatlarni, qo'shnilari foydasiga - alohida hollarda esa, suvdan foydalanishga ruxsat etish, dalasidan o'tishga imkon yaratish va hokazo majburiyatlardir.

Podsho yerlarni in'om etib, ba'zan ularga turli imtiyozlar ham bergan. Bunday kishilar ba'zan kanallar haqida g'amxo'rlik qilishdan, yangi sug'orish inshootlari qurishda ishtirok etishdan, ibodatxonalar foydasiga soliqlar to'lashdan va boshqa majburiy xizmatlardan ham ozod etilgan.

Bobilda xususiy mulk juda qattiq choralar bilan himoya qilingan. Agar o'g'ri qonunda belgilangan katta miqdordagi jarimani to'lay olmasa, o'linga mahkum etilgan.

Mulk egasi o'z mulkini har qanday kishidan talab qilib olish imkoniyatiga ega bo'lgan. Agar mulk egasi o'z mulkini birovdan topib olsa, bunda uni egallab turgan shaxs mulkni boshqa shaxsdan sotib olganligini ko'rsatsa, mulkning haqiqiy egasi sudga mulk haqiqatda uniki ekanligini tasdiqlaydigan guvohlar keltirishi, uni sotgan kishini va ushbu shartnoma buzilishida ishtirok etgan guvohlarni sudga olib kelishi lozim bo'lgan.¹

Guvohlarni so'roq qilish natijasida begona ashyo sotilganligi aniqlansa, mulk egasi o'z ashyosini qaytarib olgan, mulkka egalik qilib turuvchi shaxs (sotib oluvchi) esa uni sotgan kishidan bergan to'lov haqini qaytarib olgan, mulkni sotgan sotuvchi o'g'ri deb topilgan va o'linga mahkum etilgan (9-modda). Agar mulkka egalik qilib turgan shaxs ashyoni sotgan kishini ko'rsata olmasa va guvohlar taqdim eta olmasa, mulkning haqiqiy egasi guvohlar yordamida ashyoga bo'lgan huquqini isbotlasa, mulkka egalik qilib turgan shaxs o'g'ri deb topilgan va o'linga mahkum etilgan (10-modda). Agar, aksincha, da'vogar ushbu mulkka bo'lgan huquqini isbotlay olmasa, tuxmatchi sifatida o'linga mahkum etilgan (11-modda). Agar begona ashyoni sotgan shaxs o'lib ketgan bo'lsa, u holda ushbu ashyoni sotib olgan kishi foydasiga

¹ Мухаммедов Х. Хорижий мамлакатлар давлати ва ҳукуки тарихи Т -2005 85 бет

sotuvchining uyidan mulk qiymatining 5 baravar hajmida mulk undirilgan (12-modda).

Qonunlarda shartnomalardan va zarar yetkaishdan kelib chiqadigan majburiyatlar bir-biridan ajratib ko'rsatilgan. Shartnomalardan kelib chiqadigan majburiyatlar keng tarqalgan. Ayniqsa, Xammurapi davrida shartnoma huquqi juda rivojlangan. Bu vaqtda Bobilda tovar-pul munosabatlarining ancha rivojlanganligi, jamiyatda savdo-sudxo'rlik rolining oshganligi, mulk aylanishining nisbatan taraqqiy etganligi, yerlarning sotilishi, sotib olinishi, ijaraga, vaqtincha foydalanish uchun berilishi va hokazolar hammasi shartnoma huquqining ancha rivojlanganligini ko'rsatadi. Shartnomalarning oldi-sotdi, ijara, qarz, yuk tashish, topshiriq, shirkat, hadya va boshqa turlari haqida qonunlarda ko'pgina me'yorlar belgilangan.

Ko'chirib bo'ladigan va ko'chmas mulkka xususiy mulkchilik mavjudligi sharoitlarida oldi-sotdi shartnomasi keng tarqalgan. Oldi-sotdi shartnomasining predmeti (narsasi) ko'chirib bo'ladigan ashyolar (don, hayvonlar, qullar va boshqalar) hamda ko'chmas mulklar (dalalar, bog'lar, uylar) bo'lishi mumkin bo'lgan. Ancha qimmatbaho mulklar (yerlar, qurilish binolari, qul, hayvon singarilar)ni sotish guvohlar ishtirokida yozma shaklda amalga oshirilgan. Bunday shartnomalar quyoshda quritilgan yoki olovda kuydirilgan loydan yasalgan qattiq loytextachaga yozib qo'yilgan. Oldi-sotdi shartnomasida ashyoni sotuvchi faqat mulkning haqiqiy egasi bo'lishi talab qilingan. Zero, mulk uchinchi shaxs tomonidan sotilib, so'ngra mulkning haqiqiy egasi mazkur mulk uning xohish-irodasiga zid ravishda sotilganini da'vo qilsa, ushbu mulk haqiqatan ham unga qarashli ekanligini guvohlar yordamida isbotlasa, tuzilgan shartnoma haqiqiy emas deb topilgan. Bunday holda, yuqorida aytib o'tganimizdek, mulk haqiqiy egasiga qaytarilib, sotuvchi o'g'ri sifatida sotilgan narsa evaziga uning sumrriasini sotib oluvchiga qaytarib bergan va o'zi o'limga mahkum etilgan (XQ 9-modda). Shu sababli oldi-sotdi shartnomasida ba'zi hollarda sotilayotgan ashyoning uchinchi shaxs tomonidan talab qilinmasligi uchun kafolatlar nazarda tutilgan. Shuningdek, bunday shartnomalar tuzish chog'ida shartnoma predmetining yaroqliligi haqida ham kafolat olingan. Masalan, sotilgan qul tutqanoq kasaliga yo'liqqan bo'lib chiqsa va ishga yaroqsiz bo'lsa, bir oy muddat ichida shartnoma bekor qilinishi mumkin, ya'ni qul egasiga qaytarilib, unga to'langan haq,

("kumush") qaytib olingan (278-modda). Fuqarolik oborotidan chiqarilgan mulklarni (masalan, ilku mulkini) sotish ham haqiqiy emas deb hisoblangan (35-39-moddalar). Shu sababli yozma ravishda tuziladigan oldi-sotdi shartnomalarida sotib olinayotgan narsaning nomi, unga nisbatan sotuvchining mulk huquqi aniq ko'rsatilishi, ba'zan bu guvohlar ishtirokida qasam ichish orqali tasdiqlangan bo'lishi lozim edi. Oldi-sotdi shartnomasi tomonlarning ma'lum harakatlarni bajarishi bilan, ya'ni sotuvchi tomonidan shartnomada ko'rsatilgan narsaning sotib oluvchiga berilishi va sotib oluvchining bunga belgilangan to'lovning to'lashi bilan tuzilgan deb hisoblangan. Ba'zi hollarda sotilgan narsa (masalan, yer) uchun haq to'lash muddati kechiktirilishi mumkin edi. Bunday hollar, albatta, qarzdorlik tilxatlari bilan rasmiylashtirilgan.

Xammurapi qonunlarining ko'pgina moddalari (4851; 113-119 va boshqa moddalar) bevosita qarz shartnomasiga bag'ishlangan. U Bobilda dastlabki sulolalar davridayoq keng tarqalgan. O'sha vaqtlarda sudxo'rlik avjiga chiqib, dehqonlar xonavayron bo'lib, qulga aylana boshlaganlar. Xammurapi qonunlari qabul qilinishiga qadar qarzdor dehqonlar qarzi evaziga umrbod tutqunlikka tushilar edi. Natijada juda ko'p kambag'allar erkinligini yo'qotmoqda, armiya safida xizmat qilishi lozim bo'lgan erkin fuqarolarning soni juda qisqatib bormoqda edi. Bu esa mamlakat mudofaa qobiliyatining kuchsizlanishiga sabab bo'lmokda edi. Shu sababli Xammurapi o'z qonunlarida qarzdorlik asoratini cheklashga, ochko'z sudxo'rlarning (katta foizlar hisobiga qarz beruvchilarning) haddan ziyod ish-tahasini tiyib qo'yishga va qarz uchun qulga aylanish jarayonining o'sishini to'xtatishga harakat qilgan, shuningdek, mumkin qadar qarzdorlar ahvolini yaxshilashga intilgan. Xammurapi qonunlari qarz uchun umrbod asoratga solinishini yo'q qilgan va har qanday qarzni to'lash uchun uch yillik muddat o'rnatgan. XQning 117-moddasiga binoan, qarzdorning o'zi emas, balki uning xotini yoki o'g'il-qizlari faqat uch uil qarz badaliga ishlab berishi lozim edi; to'rtinchi yili esa ular erkinlikka qo'yib yuborilgan. Bu yerda qarzdorning o'zi haqida hech narsa deyilmasada, ishlab berishi mumkin bo'lgan oila a'zolari bo'lmasa, uning o'zi uch yil ishlab berishi kerak edi.

Qonun qarzini o'tayotgan qarzdorga va uning oila a'zolariga kreditor tomonidan shafqatsiz munosabatda bo'lishlikni taqiqlaydi. Agar kreditor garovga olingan shaxsni urib yoki boshqa og'ir munosabatda bo'lish natijasida o'ldirib qo'ysa va garovga

olingan (o'lgan) kishi erkin odamning o'g'li bo'lsa, u holda kreditorning o'g'li ham o'ldirilgan, agar garovga olingan erkin odamning quli bo'lsa, unda 1/3 mina kumush to'lagan, bundan tashqari, qarzga bergan hamma narsasini yo'qotgan (116-modda). Xammurapi qonunlarida kreditor tomonidan qarzdorning mulkini o'zboshimchalik bilan egallab olinishi ham taqiqlanadi. Agar kreditor qarzdorning ruxsatisiz uning omboridan yoki xirmonidan "donini" olsa, uni qaytarib berishi lozim bo'lgan va qarzga bergan hamma narsasini yo' qotgan (113-modda).

Qonunlarda boron, suv toshqini yoki qurg'oqchilik natijasida ziyon ko'rgan va hosil ololmagan qarzdorlarga imtiyozlar nazarda tutilgan. Bunday hollarda qarzini to' lash muddati kechiktirilgan va shu uilgi to' lov foizlaridan ozod qilingan (48-modda).

Qarz bo'yicha olinadigan foizlar ancha yuqori belgilangan. Qonunda uning eng ko'p miqdori quyidagicha o'rnatilgan: urug'lik uchun - 33,3 %; pul uchun - 20 %. Qarz garov bilan ta'minlangan. Garovga, asosan, qarz oluvchining mulki (ko'pincha yeri) qo'yilgan.

Xammurapi qonunlarida yerlarni ijaraga (arendaga) berishni tartibga soluvchi qator moddalar mavjud. Shuningdek, bog'larni, turar-joylarni, aravalarni, kemalarni, eshaklarni ijaraga berish ham keng tarqalgan. Qullarni ijaraga berish tez-tez uchrab turadigan holat edi. Bular mulkni ijaraga berish hisoblangan. Ma'lumki, mulk ijarasi shartnomasi bo'yicha ijaraga beruvchi ijaraga oluvchiga haq evaziga mol-mulkni vaqtincha egalik qilish va foydalanish yoki faqat foydalanish uchun topshirish majburiyatini oladi. Agar qonun yoki mulk ijarasi shartnomasida boshqacha tartib nazarda tutilgan bo'lmasa, ijaraga oluvchi ijaraga olingan mol-mulkdan foydapanish natijasida oladigan mahsulot, meva va boshqa daromadlar uning mulki hisoblanadi. Mol-mulkni ijaraga berish huquqi shu mol-mulk egasiga tegishlidir.

Yerlarni va bog'larni ijaraga (arendaga) berish shartnomasi, qisqa muddatga, odatda, bir yilga tuzilgan. Agar bog'larni arendaga oluvchilar o'z zimmalariga hosildorlikni oshirish majburiyatini olsalar, bu muddat besh yilgacha uzaytirilishi mumkin bo'lgan. Yerlarni va bog'larni ijaraga olishda dala yoki bog' maydoniga qarab arenda haqi aniq o'rnatib qo'yilgan. Bu, shuningdek, qo'shni maydonlar va bog'lardan keladigan daromadlarga qarab ham belgilanishi mumkin bo'lgan. Albatta, hosilning

ma'lum qismini berish shaklidagi hisob-kitob ham uchray turadi. Bunda ko'pinchayerlardan olinadigan hosilning yarmi yoki 1/3 qismi, bog'lardan olinadigan hosilning 2/3 qismi miqdorida ijara haqi belgilangan.

Yerni yoki bog'ni ijaraga olib, undan foydalanmay tashlab qo'yishlik, ya'ni ma'lum hosil olmaslik ijarachilarni arenda haqi to'lashdan ozod qilmagan. Bunday holda arendator mulk egasiga uning qo'shnisi qancha to'lasa, u ham shuncha to'lagan (42-modda). Agar arendator yerni olib, unga umuman ishlov bermagan bo'lsa, ijara haqi to'lash bilan bir qatorda yerga ishlov bergan holda egasiga qaytarishi lozim bo'lgan (43-modsa). Qonunning ushbu moddalarida o'z yerlarini va bog'larini arendaga bergan mulk egalari haqida g'amxo'rlik choralari ko'rilgan.

Shuni ta'kidlash joizki, Bobil jamiyatida unumdor va serhosil yerlar va bog'larni oldindan aniq belgilab qo'yilgan ijara haqlari evaziga arendaga olish ko'p hollarda ijaraga oluvchilarning juda boyib ketishiga sabab bo'lgan. Ko'p hollarda arendatorlar sifatida ancha-muncha mol-mulkka ega bo'lgan kishilar maydonga chiqib, o'z daromadlarini yanada oshirib borganlar. Bu o'z navbatida ayrim kambag'al dehqonlarning yanada qashshoqlashuvi hisobiga amalga oshirilgan.

Xammurapi qonunlarida turar-joy ijarasi haqida faqat bitta 78-moddada me'yorlar belgilangan. Unda ko'rsatilishicha, turar-joyi ijaraga bergan mulk egasi ijara haqini oldindan olib, belgilangan muddat (odatda bir yil) o'tmay ijarachini uyni bo'shatib qo'yishini talab qilsa, u holda ijara haqi sifatida olgan "kumush"ni ijarachiga qaytarib berishi lozim bo'lgan.

Ko'chirib bo'ladigan (harakatdagi) asbyolarni ijaraga berishni tartibga soladigan qonunlarning moddalari, birinchidan, ijara haqining qat'iy narxlarini, ikkinchidan esa, ba'zi hollarda ijaraga olingan ashyolarning nobud bo'lishi yoki yaroqsizlanishi uchun javobgarliklar ko'lamini o'rnatadi. Ho'kizlar, kemalar ijarasida ham javobgarlik o'rnatilgan. Shubhasiz, boshqa harakatdagi ashyolarning ijarasiga nisbatan ham shunday javobgarlik belgilangan.

Ho'kizni ijaraga oluvchi uni ehtiyotsizlik yoki urib-kaltaklab ishlatish natijasida nobud qilsa (o'ldirsa), ijarachi buning uchun javobgar bo'lgan. Agar ho'kizni dalada yirtqich hayvon nobud qilsa, ijarachi javobgarlikdan ozod qilingan (244-modda).

Ho'kiz o'lat tegishi natijasida nobud bo'lsa ham ijarachi xudo nomi bilan qasam ichgan va javobgar bo'lmagan (249-modda).

Xammurapi qonunlarida qullarni ijaraga berish to'g'risida alohida to'xtab o'tilmaydi. Biroq bizgacha yetib kelgan ma'lumotlarda bunday turdagi bitimlarning keng tarqalganligi ko'rsatiladi.

Bobilda, shuningdek, **erkin fuqarolarni ishchi kuchi sifatida ijaraga berish** ham bo'lgan. Erkin kishilarni ijaraga berish shartnomasi qullarni ijaraga berish shartnomasiga o'xshab tuzilgan.

Hunarmandlarning bir qancha toifalari uchun ulaming mehnat haqlarining aniq narxlari o'rnatilgan. Biroq, bunga ko'pincha amal qilinmagai, masalan, qonunlarda ko'rsatilgan yiliga 9-10 siql o'rniga, ishchilar 6-7 siqlga yollanib ishlaganlar. "Agar odam ishchi yollasa, unga yil boshidan beshinchi oygacha kuniga 6 she kumush berishi, oltinchi oydan yilning oxirigacha kuniga 5 shedan¹ kumush berishi lozim" (273-modda). Shunisi xarakterliki, qishloq xo'jalik ishchilari qonun bo'yicha hunarmandlardan ancha yuqori ish haqi olganlar. Bu qishloq xo'jaligining hunarmandchilikka nisbatan katta ahamiyatga molik ekanligidan guvohlik beradi. Qonunlar shuningdek, tabiblarning, veterinarlarning, quravchilarning, kemasozlarning mehnat haqlarini o'rnatadi. Tabiblarga haq to'lashda ular kimga (avilumgami, mushkenugami yoki qulgami) xizmat ko'rsatganliklari inobatga olingan.

Mehnatga haq to'lash, qoida bo'yicha, ijara muddati tugagandan song amalga oshirilgan. Agar yollanib ishlovchi muddatidan ilgari ishni to'xtatsa, haq olish huquqini yo'qotgan.

Ko'pincha shaxsiy ijara qarz shartnomasi bilan qo'shilib ketgan. Shaxsni yollovchi ishchiga ish haqining bir qismini qarz tariqasida oldindan bergan. Bu ijaraga oluvchilarga (yollovchilarga) ko'p hollarda ishga o'z vaqtida kelmagan, ishni o'z muddatida bajarmagan ishchilarni qarzdorlik asoratiga solishlarida qo'l kelgan.

Alohida hollarda yollanib ishlovchilarga moddiy qimmatdor narsalar ishonib topshirilgan. Qonun bunday hollarda ularning ushbu qimmatdorliklarning saqlanishi uchun javobgarligini ham belgilaydi. Masalan, cho'pon unga ishonib topshirilgan ho'kizlarni va eshaklarni yo'qotib qo'ysa, ho'kiz uchun ho'kiz, eshaq uchun eshaq

¹ She -0,046 gram

qaytarishi lozim bo'lgan. Bundan tashqari, cho'pon podaning kamayishi va uning yetarli darajada o'smasligi uchun ham javob bergan. Cho'pon shuningdek, o'g'irlangan va o'zi tomonidan sotib yuborilgan chorva moli uchun 10 baravar miqdorda zararni to'lashi lozim edi (265-modda). Agar cho'pon ehtiyotsizligi natijasida chorvaning kasallanib o'lishiga sababchi bo'lsa, buning uchun ham javob bergan.

Yuqoridagilardan tashqari, dalani kuzatib turish uchun yollangan shaxslarning, kemalarda yukni manzilga eltish uchun yollangan kemachilarning, jarrohlik yo'li bilan davolovchi tabiblarning kasalning ko'zini ko'r qilib qo'yganligi yoki o'limi uchun, veterinarlarning hayvonni muvaffaqiyatsiz operatsiya qilgani natijasida o'ldirib qo'yganligi uchun, quruvchilarning mustahkam uy qurmaganligi oqibatida yetkazgan moddiy va jismoniy zararlari uchun javobgarliklar o'rnatilgan,

Xammurapi qonunlarida ashyolarni saqlash yoki **tashish shartnomasi** ham nazarda tutilgan. Saqlash uchun pullar, urug'liklar, donlar, xurmolar, qullar, metaplar, hujjatlar berilgan. Ashyolarni saqlash shartnomasi guvohlar ishtirokida tuzilishi lozim bo'lgan, aks holda uni saqlashga bergan shaxs sudga da'vo qila olmagan (122-modda). Don saqlashga berilganda u kam chiqsa, saqlovchi ikki baravar miqdorda qaytarishi lozim bo'lgan (120-modda). Agar kimdir qandaydir ashyoni saqlashga olib, so'ngra ularni olganligini inkor qilsa, bunday holda ham undan o'sha ashyolarning ikki baravar miqdori undirib olingan (124-modda). Xammurapi qonunlari bo'yicha mulkni saqlash uchun olgan shaxs mulkni o'g'irlatib qo'ysa, u mulkning qiymatini to'lagan va bu mulkni qidirishhamda o'g'ridan talab qilib olish huquqini olgan (125-modda).

Saqlash tichun berilmagan ashyoni asossiz talab qilganlik uchun aybdorga qancha talab qilgan bo'lsa, o'sha mulkning ikki baravar narxini berish majburiyati yuklangan (126-modda). Xammurapi qonunlari bo'yicha, agar sayohatga chiqqan kishi yo'lda kimgadir pul, oltin, qimmatbaho toshlar va boshqa ashyolarni belgilangan joyga olib borish uchun saqlashga bergan bo'lsayu, saqlashga olgan shaxs ularni o'ziniki qilib olsa, u holda ishonib topshirilgan narsalarning besh baravari miqdorida undirib olinishi mumkin bo'lgan (112-modda). Bu shartnoma topshiriq shartnomasiga ham o'xshab ketadi (bu haqda quyiroqda to'xtalamiz).

Qonunlarda saqlash uchun berilgan ba'zi ashyolarning aynan o'zini emas, balki ularni o'zining to'liq bosadigan boshqa ashyolarni qaytarish mumkinligi ham o'rnatilgan.

Bunday ashyolar, masalan, kumush, oltin, don, xurmo va hokazolar bo' lishi mumkin edi.

Yuqorida ko'rib o'tganimizdek, XQning 112-moddasida topshiriq shartnomasiga xos barcha belgilar o'z aksini topgan. Zero, topshiriq shartnomasi bo'yicha bir taraf (vakil) ikkinchi taraf (topshiriq beruvchining nomidan va uning hisobidan muayyan yuridik harakatlarni sodir etish majburiyatini oladi. Topshiriq shartnomasi ma'lum shaxs yoki shaxslar nomidan ma'lum shaxsning yoki shaxslarning vakillik qilishi to'g'risidagi shartnomadir. Topshiriq taraflarning o'zaro ishonchlariga asoslanib tuziladigan shartnoma bo'lganligi uchun u shaxsiy xarakterga ega bo'lgan shartnoma hisoblanadi.

Topshiriq shartnomasi haqida Xammurapi qonunlarida alohida to'xtab o'tilmagan bo'lsada, Bobilda u qadimdan keng qo'llanib kelgan. Masalan, hosil daladan yig'ishtirilayotgan chog'da kimlargadir uni xirmonga, omborxonalarga eltish uchun ishonib topshirilgan, kimlardir ishongan odamlaridan ibodatxonalarga soliqlar berib yuborganlar va hokazo.

Topshiriq olgan shaxs uning bajarilganligi haqida hisobot berishi lozim bo'lgan. Topshiriq shartnomasi ma'lum haq evaziga yoki bepul tuzilishi mumkin bo'lgan.

Shirkat shartnomasi bizga yetib kelgan hujjatlardan ma'lum bo'lishicha, turli maqsadlarda, masalan, qarzni birgalikda uzish, ish hayvonlarini birgalikda sotib olish singari hollarda tuzilgan. Shirkat shartnomasi birgalikdagi faoliyati to'g'risidagi shartnomadir. Bilamizki, bu shartnomada sheriklar deb ataluvchi ikki yoki undan ortiq shaxs foyda olish yoki qonunga zid bo'lmagan boshqa maqsadga erishish uchun o'z hissalarini qo'shish va yuridik shaxs tuzmasdan birgalikda ish qilish majburiyatini oladilar.

Nag bir sherik boshqa sheriklari oldida o'z zimmasidagi majburiyatni bajarmasligi uchun javob beradi. Foyda va zararlar sheriklar o'rtasida teng taqsimlangan (99*modda). Taqsimlash "xudoning oldida", ya'ni ibodatxonada amalga oshirilgan.

Xammurapi qonunlari ayirboshlash, hadya kabi shartnomalarni ham nazarda tutadi.

Xammurapi qonunlari bo'yicha majburiyatlar faqat shartnomalardan emas, balki zarar yetkazishdan ham kelib chiqadi.

Qonunlarda zarar yetkazishdan kelib chiqadigan majburiyatlar to'g'risida apohida me'yorlar belgilangan. Qonun bo'yicha, bit shaxsning mulkiga yoki sog'lig'iga yetkazilgan zarar uchun aybdor zimmasiga ba'zi hollarda ushbu zararni to'lash majburiyati yuklatiladi. Bunga quyidagi hollar kiradi: a) sug'orish inshootiga ehtiyotsizlik orqasida yetkazgan zararni to'lash majburiyati; b) cho'ponning egasi ruxsatisiz chorvani birovning dalasida boqishi natijasida kelib chiqadigan javobgarligi; v) birovning bog'idan daraxt kesganlik uchun javobgarlik; g) daryo oqimi bo'yicha yuqoriga suzib borayotgan kema haydovchisining quyiga suzib kelayotgan kemaga to'qnashib ketishi oqibatida cho'ktirib yuborishidan kelib chiqadigan majburiyati; d) urushish natijasida ehtiyotsizlikdan jarohat yetkazgan shaxsning davolanish xarajatini to'lash (206-modda), shuningdek, qul yoki cho'rini tasodifan o'ldirib qo'yganda qiymatini to'lash majburiyati. Oxirgi holda xo'jayinga qul uchun qul berish majburiyati kelib chiqqan. O'ziga ishonib topshirilgan mulkni manzilga eltayotganda kemani cho'ktirib yuborgan kemachi barcha o'lganlar uchun zararni to'lashi lozim bo'lgan.

4.3 Nikoh –oila munosabatlari. Meros huquqi

Nikoh Bobilda yozma tuziladigan shartnoma asosida rasmiylashtirilgan.

“Agar kishi xotin olsa va yozma shartnoma tuzmasa, bu ayol unga xotin emas” (128-modda). Demak, shartnomasiz nikoh haqiqiy emas deb topilgan. Nikoh shartnomasi kuyov va kelin o'rtasida yoki kuyov va kelinning oilasi o'rtasida tuzilgan. Biroq, shuni aytish kerakli, shartnoma mazmuniga bo'lajak xotin ham o'z ta'sirini o'tkazishi mumkin. Masalan, ayol kishi nikoh shartnomasida bo' lajak eri zimmasiga qarzlari evaziga xotinini garovga qo'ymaslik majburiyatini yuklashi mumkin bo'lgan (XQ, 151-modda). Erkin kishining qul ayol (cho'ri) bilan nikohga kirishiga yo'l qo'yilgan (100-modda), shuningdek, erkin ayolning saroy quli bilan yoki mushkenu quli bilan nikohga kirishi mumkin bo'lgan. Bunday nikohdan tug'ilgan bolalar erkin hisoblangan.. Biroq qul er o'lgaftidan song er-xotin birgalikda orttirgan mulkning yarmi qulning xo'jayiniga o'tgan, qolgan yarmini xotin "bolalari uchun" olgan.

Bundan tashqari, xotinda nikoh shartnomasi tuzilayotganda o'zi bilan olib kelgan sep-sidirg'asi ham to'liq qolgan (175-176-moddalar).

Nikoh shartnomasi tuzilishidan avval kuyov bo'lajak qaynonasiga qalin puli - "**tirxatum**", kelinning oila a'zolariga toy sovg'alari - "**bib-lum**" berishi lozim bo'lgan edi. Kelinning otasi qiziga sep-sidirg'a - "**sheriktum**" topshirgan, bu albatta, keyin kuyovga foydalanish uchun o'tkazilgan. Sep-sidirg'a, odatda, qalin pulidan ancha katta qiymatga ega bo'lgan.

Qonunda belgilanishicha, qalin puli nazarda tutilgan bo'lsa ham, ammo bu nikoh shartnomasi tuzishning majburiy sharti bo'lmagan (139-modda). Nikoh qalin puli to'lash natijasida emas, balki shartnoma tuzish oqibatida kelib chiqqan. Nikoh shartnomasi bo'yicha ayol zimmasiga turli majburiyatlar yuklangan va u ma'lum darajada mustaqil shaxs sifatida ko'rilgan. Qalin puli va kelinning oilasiga toy sovg'alari berish odati urug'doshlik tuzumidan saqlanib qolgan qoldiq sifatida qonunlarda o'z aksini topgan.

Kuyov nikoh shartnomasini tuzishdan bosh tortsa, bergan qalin puli va to'u sovg'alarini qaytarib ololmagan. Bular kelinning otasida qolgan. Agar kelinning otasi qizini erga berishdan voz kechsa, u holda olgan narsalarini ikki baravar qilib qaytarishi lozim bo'lgan (159-160-moddalar).

Nikoh munosabati bilan ota tomonidan qiziga berilgan sep-sidirg'a kelinning mulki hisoblangan va urning foydalanishiga o'tkazilgan. Xotin vafot etsa, bolalariga qoldirilgan, bolalari bo'lmasa, o'lgan ayolning otasiga qaytarilgan, bunda qaynota qalin pulini kuyoviga qaytarib berishi lozim bo'lgan. Sep-sidirg'a er olsa, xotinda qolgan (171-172-moddalar). Shuningdek, urning tashabbusi bilan yoki aybi bilan nikoh asossiz ravishda bekor qilinsa yoki xotini tug'maganligi yoki kasalligi tufayli nikoh bekor qilinsa, bunday hollarda ham sep-sidirg'a xotonga qaytarib berilgan. "Agar xotin erini yomon ko'rsa va unga "menga qo'l tekkizma" deb aytsa, bu qo'simlar o'rtasida tekshirib ko'rilishi lozim. Agar xotin axloqiy sof va halol bo'lsa, er uni uyda yurib sharmanda qilsa, bunda ayol aybsiz; u o'z sep-sidirg' asini olib otasining uyiga ketishi mumkin" (142-modda). "Agar ayol axloqiy halol bo'lmasa va uyida yurib o'z uyini xonavayron qilsa, o'z erini sharmanda qilsa, bu ayolni suvga cho'ktirish lozim" bo'lgan (143-modda). Albatta, bunday hollarda sep-sidirg'a erda qolgan.

Nikohning asosiy shakli monogamiya (bir nikohli) bo'lgan. Lekin ba'zi hollarda urning ikkinchi nikohga ham kirishiga yo'l qo'yilgan. "Agar xotin o'zini telbalarcha tutsa, o'z uyini xonavayron qilsa yoki erini mensimay qo'ysa", er ikkinchi nikohga kirishi mumkin. Bunda u ilgari xotinini uyda cho'ri sifatida qoldirishi yoki u bilan ajrashishi mumkin edi (141-modda). Agar xotin bola tug'masa, uning boshqa hech qanday kamchiliklari bo'lmasa ham, er o'ziga jazman (nikohsiz xotin) olishi mumkin edi. Lekin ana shu jazman (o'ynash) ayol oilada xotin bilan teng mavqega ega bo'lishni da'vo qila olmagan (145-modda). Va nihoyat, er agar xotini kasal bo'lganda ham ikkinchi xotin olishi mumkin edi. Bunday holda birinchi xotin eri bilan qolishni xohlamasa, er unga sep-sidirg'ani qaytarib bergan va u otasining uyiga qaytib ketgan. Agar tug'maydigan xotin o'z eriga tug'ib berish uchun cho'ri tavsiya qilsa, er o'ziga boshqa xotin olishi mumkin emas edi. Bunday holda cho'ri bola tug'ib bersa, xotin endi uni sotishi mumkin bo'lmagan (146-modda).

Xotin oilada ma'lum mustaqil huquqlarga ega bo'lgan. U bitimlar tuza olgan, mulk sotib olgan va ijaraga bergan, hunarmandchilik, savdo, sudxo'rlik bilan shug'ullangan. Biroq, shularga qaramay, xotin eriga to'lik, bo'ysungan. Bobil ayollari Misr ayollariga qaraganda ancha past mavqega ega bo'lganlar. Ko'rib o'tganimizdek, erkak kishiga ko'p xotinlikka ruxsat etilgan. Shu bilan birga xotin eriga bevafoqlik qilsa, o'linga mahkum etilgan, ya'ni daryoga tashlangan. Erkak kishi xohlagan vaqtda nikohni bekor qila olgan. Xotin esa faqat quyidagi hollarda: a) agar u bevafoqlikda asossiz ayblangan bo'lsa; b) eri sadoqatni buzsa va xotinini avaylabasramasa (142-modda); v) er uy-joyini va yashash joyini tashlab ketsa; g) agar xotin kasal bo'lib, er uyga jazman olib kelgan bo'lsa nikohni bekor qilishi mumkin bo'lgan. Xotin boshqa hollarda o'z xohishi bilan nikohni bekor qilishga haqqi yo'q edi.

Bundan tashqari, er xotini ustidan ma'lum shaxsiy hokimlikka ega. Agar nikoh shartnomasida xotin erining nikohgacha qarzi uchun qaramlikka berilishi mumkin emas, deb ko'rsatilmagan bo'lsa, er xotinini bolalari singari qarz badaliga uch yilgacha ishlab berishga berishi mumkin bo'lgan (117; 151-moddalar). Nikoh tuzilgandan song kelib chiqqan qarzlar uchun er-xotinning ikkalasi javobgar edi. Bunda ham qarz to'lash uchun mablag' bo'lmasa, er xotinini, bolalarini ishlab berishga uch yil muddatga kreditorga bera olardi.

Agar er asir tushib qolsa, xotin yashashi uchun mablag' bo'lmagan holda, ikkinchi erga tegishi mumkin edi. Biroq, er asirlikdan qaytib kelsa, xotin ikkinchi erini tashlab birinchisiga qaytishi lozim edi.

Beva xotin, agar yosh bolalari bo'lsa, sudning ruxsatisiz ikkinchi erga tegishi mumkin emasdi. Sudyalar birinchi erdan qolgan mulklarning ro'yxatini tuzib, homiy tayinlaganlar. Mazkur mulklar faqat bolalarga tegishli bo'lib, ona ham, ikkinchi er ham ularni sotish huquqiga ega bo'lmagan.

Ota bolalari ustidan to'liq hukmronlikka ega bo'lgan. U qizini kohinlikka berishi, bolalarini qul sifatida sotishi, qarz badaliga ishlab berishga topshirishi, yollab ishlatishi va bundan keladigan daromadlarga tola egalik qilishi mumkin edi. Ota-onasiga bo'ysunmagan, ularga qarshi ish tutgan farzandlar qattiq jazolangan. Masalan, o'z otasini urgan o'g'ilning barmoqlari kesilgan (195-modda). Xuddi shuningdek, "agar haram og'asining (bichilgan qulning) boqib olgan bolasi yoki ibodatxona kohini ayolining boqib olgan bolasi o'zini tarbiyalab ostirgan kishilarga "sen mening otam emassan" yoki "sen mening onam emassan" deb aytsa, uning tilini kesilgan (192-modda).

Bobilda bolalikka olish keng tarqalgan. (185-192-moddalar). Bu albatta, ko'pincha tekin ishchi kuchiga ega bo'lish maqsadini ko'zlagan. Bolalikka olish, shuningdek, nikohsiz tug'ilgan bolalarga, jumladan, cho'rilardan tug'ilgan bolalarga qonuniy bolalar mavqeini berish maqsadlarida ham amalga oshirilgan.

Xammurapi qonunlarida o'g'il qilib oluvchilarning bunday o'g'illaridan tonish huquqiga yo'l qo'yilmaydigan sharoitlar ko'rsatilgan. Shuningdek, o'g'il qilib olinganlardan tonish mumkin va asosli bo'lgan holatlar ham qayd etilgan. Masalan, o'g'il qilib oluvchida o'zining qonuniy o'g'li tug'lsa, o'g'il qilib olgan bblasidan tonishi mumkin (191-modda). Biroq bunday holda ota unga o'g'illariga meros qilib qoldiradigan ba'zi mulklarning 1/3 qismini berishi lozim edi. "Daladan, bog'dan va uydan unga hech nima berishga majbur emas".

O'g'il qilib olingan farzand, agar hunarmand tomonidan o'zhunarini o'rgatish uchun olingan bo'lsa, lekin unga hunar o'rgatmasa hamda o'zining boshqa farzandlari bilan teng ko'rmasa, uni tark etishi va o'z ota-onasiga qaytarishi mumkin edi (189-190-moddalar).

Merosga dastlabki vaqtlarda eng avval o'g'illar o'g'illar bo'lmasa qizlar, keyinchalik qizlar ham o'g'illar bilan teng meros huquqiga ega bo'lganlar. Agar meros qoldiravchining farzandlari va nevaralari bo'lmasa, u holda aka-ukalar, ular bo'lmasa, amakilari merosxo'r sifatida maydonga chiqqanlar. Agar meros qoldiravchining o'g'illaridan biri olgan bo'lsa va undan farzandlar qolgan bo'lsa, u holda ular otasining o'miga merosxo'r bo'lib, tegishli ulushni olganlar.

Meros bolalar o'rtasida teng taqsimlangan. O'g'il qilib olinganlar ham haqiqiy bolalar bilan teng ulush olganlar. Cho'rilaridan tug'ilgan bolalar, agar ular otalari tomonidan tan olingan bo'lsa, faqat harakatdagi (ko'chirib bo'ladigan) ashyolardan teng meros olganlar, lekin ko'chmas mulkni taqsimlashda ishtirok etmaganlar (170-modda). Biroq harakatdagi ashyolarni meros qilib olishda erkin ayoldan tug'ilgan bolalar o'zlariga tegishli ulushni tanlab olish huquqiga ega bo'lganlar. Agar ota cho'ridan bo'lgan bolalarini tan olmasa, ular merosda ishtirok etmaganlar, lekin otasi o'lganidan so'ng onasi bilan birgalikda erkinlik olganlar.

Meros taqsimlanayotgan vaqtda otalari hayotlik chog'ida undan to'u uchun tirxatum olgan o'g'illar hali uylanmagan aka-ukalariga tirxatum to'lovi uchun alohida hissa ajratishlari lozim bo'lgan (166-modda). Cho'ri xotinning qizi erga tegayotgan vaqtida sep-sidirg'a olgan bo'lsa, otasidan qolgan meros taqsimlanishida qatnashmagan (183-modda). Agar u bunday sep-sidirg'a olmagan bo'lsa, unda aka-ukalar buning uchun ulush ajratganlar (184-modda). Boshqa qizlar, yuqorida aytganimizdek, merosdan teng hissa olganlar.

O'lgan onaning sep-sidirg'asi bolalar o'rtasida teng taqsimlangan, bu otaga o'tmagan (167-modda). Agar xotin bolasiz o'lib ketsa, u holda er qaynonasidan qalin puli - tirxatumni qaytarib olib, xotining sep-sidirg'asini qaytarib bergan (163-modda).

Eri o'lgan xotin sep-sidirg'ani - sheriktumni va erining qilgan sovg'alarini - nudunnumni olgan va o'zining o'lgan eri uyida yashab qolavergan. Biroq u ushbu mulklarni sotishi mumkin emas edi, bu mulklar uning o'limidan so'ng bolalariga o'tkazilgan (171-modda). Agar xotin eridan sovg'alar olmagan bo'lsa, sep-sidirg'ani, sovg'alar o'miga bolalar bilan merosdan teng hissa olgan (172-modda).

Beva xotin ikkinchi marta erga tegsa, qonun birinchi nikohdan bo'lgan bolalarning manfaatlarini himoya qilgan. Bunda xotin birinchi nikohdan olgan sovg'alar (nudunnum)ni bolalariga qoldirishi lozim bo'lgan, bundan tashqari, u o'lganidan song birinchi nikohdagi bolalar uning sep-sidirg'asini ikkinchi nikohdagi bolalar bilan teng taqsimlab olganlar (173-modda).

Qulning mulki u o'lganidan song xo'jayiniga o'tgan. Agar saroy quli yoki mushkeni quli erkin ayol bilan nikohda bo'lgan bo'lsa, mulkining faqat bir qismi xo'jayinga o'tgan, qolgan qismi beva xotiniga kelib tushgan.

Xammurapi qonunlarida vasiyatlar haqida huquqlar to'g'ridan-to'g'ri ko'rsatilmaydi. Biroq meros qoldiruvchi merosxo'rlardan birining foydasiga boshqalarining zarariga ko'proq hissa ajratish huquqiga ega bo'lgan. Bu albatta, maxsus vasiyat orqali qilinmagan. Masalan, XQning 160-moddasida ko'rsatilishicha, beva xotin nudunnumni o'z bolalaridan xohla-ganiga o'tkazishi mumkin, 165-moddada esa otaning hayotlik chog'ida o'gillaridan biriga ko'proq mulk hadya etishi huquqi e'tirof etilgan. Albatta, o'g'il qilib olish tartibi ham xuddi vasiyat rolini o'ynagan, chunki o'g'il qilib olinganlar ham merosxo'r hisoblangan. Qonunlardan ko'rinadiki, ota o'g'lini rad etishi mumkin (168-169-moddalar), demak, bu bilan o'g'il meros huquqidan to'la mahrum etilgan. Otaning o'z o'g'lidan voz kechishi uchun, birinchidan o'g'il bir necha marta nojo'ya ishlar qilgan bo'lishi va, ikkinchidan, sudning ruxsati bo'lishi lozim, ya'ni o'z o'g'lini merosdan mahrum qilmoqchi bo'lgan ota bu haqda sudga murojaat qilishi talab etilgan.

Xammurapi qonunlarida ibtidoiy jamoa tuzumiga xos bo'lgan qonli qasos olish odati haqida hech narsa eslanmaydi. Qonli qasos olish odati o'z o'mini davlat hokimiyati organlari tomonidan beriladigan jazolarga va jinoyatchining jabrlanuvchiga yoki uning qarindoshlariga to'laydigan haqlariga bo'shatib bergan.

Biroq, Xammurapi qonunlarida jinoyat huquqi sohasida ibtidoiy jamoa tuzumining ko'pgina qoldiqlari saqlanib qolgan. Bularga: a) jinoyat uchun jinoyatchining shaxsi noma'lum bo'lgan hollarda butun hududiy jamoaning javobgarligi (23-24-moddalar); b) ota-onalari qilgan jinoyatlar uchun bolalarning javobgarligi (116,210,230-moddalar); v) jinoyatchini mazkur hududdan yoki "uyidan" haydab yuborish (154,158-moddalar) kabilar kiradi. Xammurapi qonunlarida talion

("ko'z uchun ko'z", "tish uchun tish" va h.k.) tamoyilining saqlanib qolganligi ham ibtidoiy jamoa tuzumining qoldiqlaridandir. Biroq talion tamoyili faqat jinoyatchi va jabrlanuvchi Bobilning to'la huquqli fuqarolari (avilum) bo'lsa, shunda qo'llanilgan. Agar avilum avilumning ko'zini chiqarsa, uning ham ko'zini chiqarish lozim bo'lgan (196-modda). Agar avilum avilumning suyagini sindirsa, uning ham suyagi sindirilgan (197-modda). Agar avilum mushkemming ko'zini chiqarsa yoki suyagini sindirsa, jarima to'lagan, agar u qulga jarohat yetkazsa, uning xo'jayiniga qul bahosining yarmini to'lagan (199-modda).

Shunday qilib, qonunlarda o'rnatilgan jazolar ochiqdan-ochiq yuqori tabaqalar manfaatlarini himoya qilgan. Bu bir xildagi jinoyatlar uchun ayblanuvchi va jabrlanuvchining qanday mavqeda turganligiga qarab turlicha jazolar tayinlanganligida yaqqol ko'rinadi. Masalan, avilum ijtimoiy mavqei bo'yicha o'ziga teng boshqa avilumning yuziga ursa, jarima to'lagan (203-modda). Agar kimda-kim o'zidan yuqori ijtimoiy mavqedagi kishini yuziga ursa, u omma oldida mol terisidan tayyorlangan qamchi bilan oltmish darra savalangan (202-modda). Agar qul erkin kishining yuziga ursa, uning qulog' i kesilgan (205-modda). Mushkenu boshqa mushkenuning yuziga ursa, avilum avilumni urganga qaraganda olti baravar kam (ya'ni 10 siql kumush) jarima to'lagan (204-modda). Zero, avilum buning uchun avilumga bir mina kumush jarima to'lashi lozim edi (203-modda).

Xammurapi qonunlarining mulkdor tabaqalar manfaatlariga xizmat qilganligini o'g'irlik uchun jazo berilgan joylarda ham ochiq ko'rish mumkin. Bunda o'g'irlik uchun asosan o'lim jazosi nazarda tutilgan bo'lsa-da, lekin bundan mulk qiymatining o'n yoki hatto o'ttiz baravar miqdorida jarima to'lash bilan qutilib ketish mumkin bo'lgan.

XQda nazarda tutilgan jazolar birinchi navbatda Bobildagi quldorlik tuzumini ushlab turishga qaratilgan. Qulni o'g'irlash, shuningdek, qochoq qulni yashirish yoki ushlab turish uchun o'lim jazosi nazarda tutilgan. Qul o'z xo'jayiniga so'zsiz quloq solishi va bo'ysunishi lozim bo'lgan. Qul ozgina bo'lsada xo'jayinga itoat etmasa, xo'jayini uni qattiq jazolashi mumkin edi. Qonunga binoan "agar qul o'z xo'jayiniga "sen mening xo'jayinim emassan" desa, xo'jayin uning qulog'ini kesishi mumkin" bo'lgan (282-modda).

Qadim davrlardagi boshqa kodekslar singari Xammurapi qonunlari ham jinoyatning umumiy tushunchasi va jinoyat deb hisoblanadigan barcha xatti-harakatlarning ro'yxatini bermaydi. Unda doimo o'lim jazosi bilan jazolanadigan davlatga va dinga qarshi jinoyatlar haqida hech narsa deyilmagan. XQning umumiy mazmuniga qarab, undagi to'rtta turdagi: shaxsga qarshi, mulkka qarshi, oilaga qarshi va sudga qarshi jinoyatlarni ajratib ko'rsatish mumkin.

Shaxsga qarshi jinoyatlarda avvalo shaxsning hayotiga qarshi jinoyatlarga e'tibor berilgan. Bunda qasddan odam o'ldirish haqida qonunlarda umuman hech narsa deyilmagan, lekin ehtiyotsizlikdan odam o'ldirish jinoyati to'g'risida anchagina me'yorlar belgilangan. Biroq bundan qasddan odam o'ldirish uchun javobgarlik nazarda tutilmagan ekanda, degan xulosa kelib chiqmaydi. Bunday hollarda aybdor albatta o'limga mahkum etilgan. Ushbu fikrimiz XQning 1-moddasida belgilangan birovni odam o'ldirishda yolg'ondan ayblovchilarga nisbatan o'lim jazosi nazarda tutilganligi, 3-moddasida belgilangan yolg'on ko'rsatma berish oqibatida birov uchun o'limga mahkum etilish xavfini tug'dirgan shaxslarga nisbatan o'lim jazosining nazarda tutilganligi, shuningdek, erini o'ldirgan xotinga nisbatan qoziqqa o'tqazish jazosining (153-modda) tayinlanganligi kabi holatlar bilan ham tasdiqlanadi. Demak, bular qonunlarda qasddan odam o'ldirish jinoyati sifatida alohida qayd etilmagan bo'lsada, aslida, sub'yektiv tomondan ana shunday bo'lganligiga shubha yo'q.

XQda ehtiyotsizlik natijasida odam o'ldirish to'g'risida aniq me'yorlar o'rnatilgan. Masalan, omonat imorat qurgan quruvchi bunday imoratning buzilishi yoki bosib qolishi natijasida uy xo'jayini o'lsa, quruvchi ham o'limga mahkum etilgan (229-modda); agar buning natijasida uy egasining o'g'li o'lsa, quruvchining o'g'li ham o'ldirilgan (230-modda); agar uy bosib tushishi natijasida uy egasining quli o'lsa, quruvchi qul uchun boshqa qul bergan (231-modda). Shuningdek, tabiblarning muvaffaqiyatsiz operatsiya qilishlari natijasida kasallarning o'limiga sababchi bo'lganliklari uchun ham javobgarlik belgilangan. Agar tabib-jarroh ehtiyotsizlik qilib kasalni o'ldirib qo'ysa yoki ko'zini ko'r qilib qo'ysa, uning qo'li kesilgan (218-modda). Agar bunday holda kasal kul bo'lsa, qul uchun qul bergan (219-modda).

Shaxsning sog'lig'iga qarshi jinoyatlarning bir qancha turlari uchun qonunlarda javobgarliklar nazarda tutilgan va bunday hollarda ijtimoiy ahvoli jabrlanuvchilar

bilan bir xil bo'lgan ayblanuvchilar talion tamoyili bo'yicha jazolangan. Agar jabrlanuvchi aybtanuvchiga nisbatan quyi mavqeda tursa, jarimalar nazarda tutilgan. "Agar avilum mushkenuning ko' zini chiqarsa yoki suyagini sindirsa, 1 mina kumush jarima to'lagan" (198-modda). "Agar avilum avilumning tishini sindirsa, uning ham tishi sindirilgan" (200-modda).

Shaxsga qarshi jinoyatlar qatorida yosh bolalarni o'g'irlash jinoyati ham eslab o'tiladi. Albatta, bunda ularni qul qilib sotish maqsadida o'g'irlanar edi. XQning 14-moddasida shunday deyiladi: "Agar kimda-kim avilumning yosh o'g'lini o'g'irlasa, o'limga beriladi".

Mulkka qarshi jinoyatlarga nisbatan qonunlarda ayniqsa juda og'ir jazolar nazarda tutilgan. Saroy yoki ibodatxona mulkini o'g'irlashga nisbatan qonunda ayrim hollarda o'lim jazosi (6-modda), boshqa hollarda (ho'kiz, qo'y, eshaq o'g'irlasa) o'g'irlangan mulkning o'ttiz baravari miqdorida jarima nazarda tutilgan. Agar o'g'ir bunday jarimani to'lay olmasa o'limga mahkum etilgan (8-modda). Jinoyatchi devorni buzib o'g'irlik qilsa, uni jinoyat joyida qatl etib ko'mib tashlash jazosi (21-modda) nazarda tutilgan. Yong'in paytida o'g'irlik qilgan jinoyatchi o'tga tashlangan (25-modda).

Ayniqsa, qulga nisbatan mulk huquqi qattiq himoya qilingan. Saroy **yoki** ibodatxona qulini, shuningdek, mushkenuning qulini o'g'irlaganlik uchun o'lim jazosi belgilangan (15-modda). Yuqorida aytib o'tganimizdek, qochoq qulni yashirganlik yoki topib olingan qulni uyida ushlab turganlik uchun ham o'lim jazosi nazarda tutilgan (18-modda). Quldan qullik belgisini olib tashlagan tamg'alovchining qo'li kesilgan, bu ishga uni da'vat etgan shaxs esa o'limga mahkum etilgan (226-227-moddalar).

O'g'irlik bilan bir qatorda bosqinchilik jinoyati ajratib ko'rsatilgan va buning uchun o'lim jazosi belgilangan (22-modda). Agar bosqinchi (talonchi) jinoyat joyida qo'lga tushmasa, jabrlanuvchi jinoyat sodir bo'lgan joyni ko'rsatishi kerak va bunda o'sha joydagi jamoa javobgarlikka tortilgan hamda yetkazilgan zararni to'lagan. Agar talangan shaxs o'lgan bo'lsa, uning oilasiga (qarindoshlariga) bir mina kumush to'lashi lozim bo'lgan (23-24-moddalar).

Xammurapi qommlarida oilaga qarshi jinoyatlar to'g'risida alohida me'yorlar nazarda tutilgan. Bunday jiriyatlarga er-xotinlik sadoqatini buzishlik, yaqin qarindoshlar bilan jinsiy aloqada bo'lishlik, shuningdek, beva xotinning sud ruxsatisiz ikkinchi nikohga kirishi kabilar kirgan. "Agar xotin boshqa erkak bilan birga yotganida ushlansa, ikkalasining qo'l-oyog'ini bog'lab suvga tashlash lozim. Agar xotinning xo'jayini (eri) uning hayotini saqlab qolsa, u holda podsho ham o'z qulining hayotini saqlab qoladi" (129-modda). Agar kimdir xotin kishini eriga xiyonat qilganlikda ayblasa, u ayol o'zini oqlashi, ya'ni o'zini suvga tashlab aybdor emasligini isbotlashi lozim (132-modda). Agar bunday holda xotin kishi sinovdan muvaffaqiyatli o'tsa, uni nohaq ayblagan kishining sochini sharmandalik belgisi sifatida olib tashlangan. Faqat xotin kishining eriga nisbatan xiyonati jazolangan. Er hech qanday jazosiz xotiniga xiyonat qilishi va hatto, yuqorida ko'rib o'tganimizdek, ba'zi hollarda uyiga jazman olib kelishi mumkin bo'lgan. Bu yerda qonun oilada urning xotin ustidan hukmronligidan kelib chiqqan.

Qonunlarda yaqin qarindoshlar va tug'ishganlar o'rtasidagi jinsiy aloqalar og'ir jinoyat sifatida qaralib, qattiq jazolar o'rnatilgan. Masalan, otasi o'lgan o'g'ilning o'z onasi bilan jinsiy aloqada bo'lishi o'ta axloqsizlik va og'ir jinoyat hisoblanib, bunda ikkala tomonning ham yoqib yuborilishi lozimligi belgilangan. Ota o'z qizi bilan jinsiy aloqa qilsa, yashab turgan joyidan xaydab yuborilgan va hokazo.

Jinoyat qonuni ota-ona va bolalar o'rtasidagi munosabatlarga ham taalluqli bo'lgan. Qonun otaning oiladagi hukmronligini qattiq himoya qilib, o'z otasini urgan o'g'ilning qo'li kesilishi lozimligini belgilaydi (195-modda). Qonun o'z navbatida bolalarni ham ota-ona tomonidan yo'l qo'yiladigan o'zboshimchaliklardan himoya qiladi. Qonunda belgilanishicha, ota o'z o'g'li faqat ikkinchi marta og'ir nojo'ya ish qilgandagina un-dan yuz o'girishi va uni merosdan mahrum qilishi mumkin (168-169-moddalar).

Jinoiy qonunlar, shuningdek, ota-onalar bilan farzand qilib olinganlar o'rtasidagi o'zaro munosabatlarga ham tegib o'tgan. Bu yerda farzand qilib oluvchilarning hukmronligi qattiq choralar bilan himoya qilinadi. Ayrim hollarda o'ziga farzand qilib olgan ota-onani inkor qilganligi uchun tilini kesish (192-modda), shuningdek, o'zining

haqiqiy ota-onasini ko'rib unga qaytmoqchi bo'lgan farzand qilib olinganlarning ko'zini o'yish (193-modda) jazolari nazarda tutilgan.

Xammurapi qonunlarida sudga qarshi jinoyatlar ham uchrab turadi. Garchi, qonunlarda bular haqida alohida to'xtab o'tilmagan bo'lsada, biz ayrim turdagi jinoyatlarning mazmuniga qarab, ularni shu turkumga kiritishimiz mumkin. Masalan, qonunlarda o'z hukmini o'zgartirgan sudyaning jazolanishini belgilovchi me'yorlar mavjud. Agar sudya hukm chiqarib va uni yozib qo'ygan bo'lsa, keyin esa o'zgartirsa, unda da'voning o'n ikki baravar miqdorida jarima to'lagan va o'z mansabidan mahrum bo'lgan (5-modda). Shuningdek, birovni yolg'ondan ayblash uchun, sudda yolg'on guvohlik berganlik uchun ham javobgarliklar mavjud. Tayyorlanayotgan jinoyat haqida xabar bermagan shaxslar ham jinoiy javobgarlikka tortilgan (109-modda).

Shunday qilib, Xammurapi qonunlarida **jazolarning** xilma-xil turlari nazarda tutilgan bo'lib, ularni quyidagi guruhlariga ajratish mumkin: o'lim jazosi, tana a'zolariga jarohat yetkazish (mayib qilish) jazolari, tan jazolari (darra bilan urish), sharmandalik belgisini qo'yish, yashab turgan joyidan yoki uyidan haydab yuborish, pul jarimalari, va nihoyat, kelajakda muayyan mashg'ulot bilan shug'ullanish huquqidan mahrum etib, mansabidan bo'shatish. O'lim jazojuda keng qo'llangan. Qonunlarda o'ttizdan ortiq holatlarda o'lim jazosi nazarda tutiladi. Buning ustiga o'lim jazosi turli ko'rinishlarda: suvga cho'ktirish, yoqib yuborish, qoziqqa o'tqazish, osish kabi ko'rinishlarda amalga oshirilgan. Tana a'zolariga jarohat yetkazish jazolari avvalo talion yo'li bilan berilgan. Bundan tashqari, jinoyat tananing qaysi a'zosi bilan qilinsa, o'sha qismini kesib tashlash ramziy talion ham qo'llangan. Masalan, farzandlikka olingan shaxs otasiga "sen mening otam emassan" desa tili kesilgan, otasini urgan o'g'ilning qo'li kesilgan va hokazo.

Sud ishlarini yuritish

Sud jarayoni jinoyat ishlari bo'yicha ham, fuqarolik ishlari bo'yicha ham bir xil bo'lgan. Ish jabrlanuvchi tomonlarning arizasi bilan boshlangan. Ayblov xususiy shaxslar tomonidan quvatlangan. Jamoat ayblovi qandaydir prokuror ayblovi yoki bo'lmagan. Pul jarimalari ko'p hollarda ayblanuvchidan jabrlanuvchiga kelib tushgan va jabrlanuvchi tashabbusi bilan undirilgan.

Sudda guvohlamining ko'rsatmalari, qasam, yozma dalolatnomalar, shuningdek, ordaliya isbotlash (gumon qilinuvchini suv bilan sinash) vositasi sifatida xizmat qilgan. Xammurapi qonunlaridan ko'rinadiki, ordaliyadan, birinchidan, xotin bevafoqlik qilishda ayblanayotganda, ikkinchidan, kimdir sehrgarlik (afsungarlik) qilishda ayblanayotganda foydalanilgan. Protsessual huquq me'yorlari sudyalardan "ishni ko'rib hal qilishni" shaxsan o'zlari amalga oshirishlarini talab qilgan. Sudya o'z qarorini o'zgartirishi mumkin emas. Agar sudya birinchi chiqargan o'z qarorini o'zgartirsa, yuqorida aytib o'tganimizdek, da'voning o'n ikki baravar miqdorida jarima to'lagan va mansabidan abadulabad mahrum bo'lgan.

Sud qaydnomalari loytaxtachalarga yozilgan. Ularda tomonlarning ko'rsatmalari, qasamlari, guvohlamining ismlari va sud hukmining mazmuni yozib qo'yilgan. Tomonlar qoida bo'yicha aynan bir ishni ikkinchi marta qo'zg'atishlari mumkin emas edi.

Xulosa

Hammurapi zamoniga oid hujjatlar asosan uning qonunlar to'plami mamlakat xo'jalik hayotining umumiy manzarasini bir qadar tiklashga imkon bergan. Katta va markazlashgan davlatda oliy hokimiyat o'z qo'lida to'plangan g'oyat ko'p yer fondiga tayanib turib, mamlakat xo'jalik hayotiga aralashgan va uning rivojlanishini yo'lga solishga uringan. Qurilish materiallariga doimo ehtiyoj katta bo'lganligidan podsho o'rmonlarini qo'riqlash yuzasidan bir qancha tadbirlar ko'rgan. O'rmonzorlar alohida-alohida «o'rmon uchastkalari»ga bo'lingan va bu uchastkalar o'rmon xujaligining bosh mudiriga bo'ysunuvchi maxsus «uchastka mudirlari» qaramog'ida bo'lgan. Saqlanib qolgan bir hujjatda, podsho o'rmon xo'jaligining bosh mudiri Ablianum va Sinmagir qaramog'iga topshirilgan o'rmon uchastkalaridan o'g'rincha kesib olib ketilgan daraxtlar haqidagi masalani tekshirishni, shuningdek daraxtlarni kim kesib ketganligini: o'rmon uchastka mudirlarining o'zlarimi, yoki "begona qo'lmi" (ya'ni jinoyatchimi),—aniqlashni buyurgan. O'rmon uchastka mudirlari daraxtlarning saqlanishi uchun javobgar bo'lgan. O'rmon uchastka mudirlari o'z mansablaridan foydalanib, biron jinoyat qilsalar, qatl qilingan. Bobil podsholigi ekonomikasida chorvachilik ilgarigidek katta ahamiyatga ega bo'lgan. Keng utloqlar, dashtlar va tog' etaklari juda ham qulay yaylov bo'lgan. Bu yaylovlarda juda ko'p podalar o'tlab yurgan. Hammurapi mollarga egalik huquqini tartibga solib, katta-katta podalarning egalari bo'lgan boy chorvadorlar manfaatini ayniqsa qattiq himoya qilgan. Hammurapi kodeksiga ko'ra, ish hayvonini ijaraga olgan kishi ijaraga olingan ish hayvoni uchun uning egasi oldida to'la javobgar bo'lgan va agar hayvonga biron ziyon yetsa (ulib qolsa, ko'ziga, shoxiga, dumi yoki burun teshigiga zarar yetsa), ijaraga olgan odam bu zararni egasiga to'lashi lozim bo'lgan. Bu hol juda ko'p chorva podalarining ayrim chorvador boylar qo'lida to'planganini ko'rsatadi, chorvador boylar esa mollarni ko'proq kambag'allarga yollab berganlar. Qonunning boshqa moddalarida cho'pon o'ziga topshirilgan qoramollar uchun javobgar ekanligi va qoramolning tamg'asi o'zgarib qolsa yoki mol o'g'irlab sotilsa, cho'pon qattiq jazolanishi ko'rsatilgan. Shubha yuqki, qonun chiqaruvchi bu moddalarda juda ko'p chorva mollariga egalik qiluvchi quldorlar manfaatini ifoda qilgan.

Mesopotamiyaning Dajla va Frot daryolarining toshqinlari natijasida yaxshi o'g'itlanadigan va sug'oriladigan allyuvial tuproq dehqonchilikning rivojlanishiga ayniqsa katta yordam bergan. Dexdonchilik Bobil davrida ham o'zining muhim ahamiyatini saqlab qolgan. O'sha zamonga oid hujjatlardan birida:

«Ekinzorlar — mamlakatning hayoti ekanligini bilmaysanmi?» deb yozilgan so'zlar Bobilda dexqonchilikning ahamiyatini juda yaqqol ko'rsatib beradi.

U vakdlarda yer odatda ikki ho'qiz qo'shilgan og'ip, qo'pol plug bilan haydalgan. Ba'zan plugga odamlar ham qo'shilgan; bu esa kullar mehnatidan keng foydalanilganini ko'rsatadi.

Tabiiy sharoitlarga ko'ra, dexqonchilik xo'jaligining rivojlanishi ma'lum darajada sun'iy sug'orish bilan bog'liq bo'lgan. Shuning uchun Hammurapi irrigasiya ishlarini rivojlantirishga katta ahamiyat bergan. Hammurapi «mamlakatni g'alla to'la konga aylantirib, yerlarni ishlashni oson-lashtirganligi... parokanda bo'lib ketgan aholini Shumer va Akkad yerlariga to'plaganligi, bu aholini don va suvga qondirganligi, uni farovonlikka va baxt-saodatga erishtirganligi» bilan faxrlanadi.

Hammurapi buyrug'i bilan Nar-Hammurapi degan kanal qazilgan. Bu kanal «Shumer va Akkadga mo'l-ko'l suv beruvchi. O'z qirg'oqlarini ekin maydonlariga aylantiruvchi, tog'-tog' g'olla yetishtirib beruvchi hamda Shumer va Akkad aholisini doimo suv bilan ta'minlovchi xalq boyligidir».

Podsho — davlat hokimiyati sug'orish tarmoqlarini kengaytirish bilan birga, bu tarmoqlarni tartibli holda saqlash uchun ham g'amxo'rlik qilgan. Podsho mahalliy amaldorlarga kanallarni tozalash va irrigasiya bilan bog'liq bo'lgan har xil ishlarni bajarish to'g'risida doimo farmonlar berib to'rgan. Agar butun sug'orish tarmoklarini tartibli holda saqlash davlatning vazifasi bo'lsa, bu tarmoqlarning har bir ayrim uchastkasini tartibli holda saklash, birinchi navbatda, jamoaning vazifasi bo'lgan. Hammurapi kodeksining 53—56-moddalari shu masalaga bag'ishlangan. Kodeksning bu moddalari irrigasiyaning tegishli uchastkasini tartibli holda saqlash uchun har bir jamoa a'zosi javobgar bo'lgan va, shu bilan birga, agar biron kishinnng aybi bilan to'g'on buzilib, qo'shni uchastkasini suv bosib ketsa, aybdor nobud bo'lgan g'alla haqini egasiga to'lashi shart bo'lgan. Agar g'allani tulashga aybdorning qurbi yetmasa, kodeksning 54-moddasiga binoan, aybdorning o'zi va

uning mol-mulki sotilib, shu boyagi zarar to'langan. O'sha zamonga oid boshqa bir qancha hujjatlarda sug'orish tarmoqlarini tartibli saqlash ishlari ustidan markaziy hokimiyat qattiq nazorat qilganligi ko'rsatilgan. Agar biron yerda sug'orishga suv yetishmayotganligi to'g'risida podsho saroyiga xabar kelib qolsa, saroydan darhol mahalliy amaldorga suv yetishmagan yerlarni suv bilan ta'minlash uchun zarur choralar ko'rish haqida tegishln ko'rsatmalar yuborilgan. Podsho yerlarini ijaraga olgan kishinnng yerlari albatta suv bilan ta'minlanishi zarur bo'lgan. Ijaraga olingan yerlarni sug'orish uchun suv yetishmay qolgan taqdirda esa mahalliy amaldorlar bu yerlarni sug'orish uchun zarur chora ko'rishlari yoki suv bilan ta'min qilingan boshqa yerga almashtirib berishlari kerak edi. Buni podshoning ko'pdan-ko'p xatlari ham ko'rsatib turadi. Bu xatlarga ko'ra, ijaraga olingan yerlarning bekam-ko'st sug'orilib turishi uchun mahalliy amaldorlar moddiy jihatdan javobgar bo'lgan. Yomon sug'orilish natijasida hosil bo'lmay qolgan takdirda yerning ijara haqi boqimondasini ijarador uchun mahalliy amaldor tulashi lozim edi.

Don xo'jaligi va chorvachilik bilan birga bog'dorchilik xo'jaligi ham keng tarqalgan. Qadimgi Mesopotamiyaning gullagan boqqa o'xshashi va ajoyib mevali daraxtlar o'sadigan jannat bog'i haqidagi afsonaning xuddi shu mamlakatda kelib chiqqanligi bejiz emas. Yer egalarining manfaatini himoya qiluvchi davlat bog' egalarining manfaatlarini yoqlashni ham o'z bo'yniga olgan. Hammurapi kodeksining bir moddasida, birovning bog'idan ijozatsiz kesilgan daraxt uchun aybdor ancha katta shtraf: yarim mina (252,5 grammga yaqin) kumush to'lashi kerak edi.

ADABIYOTLAR RO`YXATI

1. Авдиев В.И. Вавилонская религия. Б.С.Е, Т.6 М-1951.
2. Авдиев В.И. Қадимги шарқ тарихи. Т -1964.
3. Бартольд В.В. Восточно –иранский вопрос. М-1922.
4. Большая советская Энциклопедия. Изд.2. Т.3 М-1952.
5. Винклер Г. Вавилонская культура. под ред. Никольского.
6. Волков И.М. Законы Вавилонского царя Хаммурапи. М-1941.
7. Дяконов И.М Государственный строй древнейшего Шумера. –«Вестник древней истории» 1952 N 2.
8. История древнего востока. Под.ред. Кузищина В.И. М.,1979.
9. Косидовский Венон. Когда солнце было богом. М., 1968.
- 10.Липин Л.А., Белов А. Глиняные книги. Л., 1956.
11. Муқимов З.М. Чет мамлакатлар давлати ва ҳуқуқи тарихи. Т., 2003.
- 12.Муҳаммедов Ҳ. Хорижий мамлакатлар давлати ва ҳуқуқи тарихи Т - 2005.
- 13.Непомнящий Н.Н. Величайшие тайны мира. (Энциклопедический справочник). М., 2007.
- 14.Никольский Н.М. Вавилония. В. КН: Б.СЭ.
- 15.Никольский Н.М. Вавилония. М, 1927.
- 16.Рубинштейн Р.И. Древний Восток. М., 1974
17. Струве В.В Наёмный труд и сельская община в южном Междуречье. Вестник древней истории. 1948.